ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 6

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 19.07.2024
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Yo'ldoshev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 19.07.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 19.07.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

МАХМАРАИМОВА ШОХИСТА ТУХТАШЕВНА
«Илтимос» гибрид нутқий акти ва предикативлик 7

ALIMBEKOVA VAZIRA XALIMJON QIZI
Janubi-sharqiy Andijon shevalarida ayrim
Qarindosh-urug‘ atamalarining qo‘llanishi 15

RAJABOVA SADOQAT RASUL QIZI
Etnik arablar shevasida kelishik kategoriyalari
(Samarqand viloyati Ishtixon tumani misolida) 20

TO‘RALIYEV BAXODIR ERALI O‘G‘LI
Savdogar nutqi leksikasi haqida 24

ШАМСУДИНОВА ИХБОЛ
База данных вспомогательных слов
национального корпуса узбекского языка.....28

RAJABOV FERUZ UMARQULOVICH
Omonimik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari 31

UMAROVA SHAXLO BAXRIDIN QIZI
KASHTACHILIK TERMINLARINIG GIPONOMIK MUNOSABATLARI 36

М У Н Д А Р И Ж А

ADABIYOTSHUNOSLIK

MADIRIMOV BAHROM ABDULLAEVICH
Matnga munosabat shakllanishida
ijtimoiy-falsafiy asosning o‘rni
(Abdulla qodiriyning «mehrobdan chayon» romani misolida).....42

TUGALOV TOSHPO‘LAT YULDASHEVICH
Nuriddin Shukurov – mumtoz adabiyot bilimdoni 47

SAYDULLAYEVA AZIZA UBAYDULLAYEVNA
Turkiyada xalq ertaklarining to‘planishi va o‘rganilishi 51

ABDURAHMONOV MAHMARIZO
Abdusaid Ko‘chimov nasriy asarlariga bir nazar 55

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 6
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

«ИЛТИМОС» ГИБРИД НУТҚИЙ АКТИ ВА ПРЕДИКАТИВЛИК

Махмараимова Шохиста Тухташевна,
Термиз давлат университети профессори,
филология фанлари доктори

Дунё тилшунослигининг ҳозирги ҳолатида когнитив, ижтимоий, прагматик, лингвомаданий йўналишларнинг диққат-марказида "лисон-нутқ" масаласини турли даража ва кўринишда намоён қилувчи "тил ва жамият", "тил ва маданият", "тил ва шахс", "миллий тил ва миллий тафаккур" каби субстанциал асосларда ҳал қилинувчи муаммолар туради. Мулоқот жараёнида тилнинг вазифаланиши ва инъикос этилиши масаласи долзарб муаммоларнинг бири бўлиб, айнан мулоқот натижасида вербал коммуникация моҳиятининг аниқлашиб бориши ҳозирда исбот талаб қилмайдиган айниятдир. Шунингдек, нафақат лисон, нутқ, балки коммуникантнинг нутқий хатти-ҳаракати ва умуман, нутқий шахс ва унинг шаклланиши масаласига доир тадқиқотларнинг аҳамияти ортмоқда. Хусусан, миллий муомала ва унинг хусусиятларини текшириш этно ва прагмалингвистиканинг етакчи мавзуларига айланмоқда.

Жаҳоннинг этник манзарасида кузатилгани каби, ўзбек халқининг ментал-лисоний хусусиятлари унинг айнан нутқий этикетида намоён бўлади. Даврлар оша ахлоқий меъёрларнинг нутқий ифодаси сифатида турғун шаклга кирган бирликлари мулоқот хизматини бажара туриб, нутқ одобини юзага келтиради. Нутқ одоби – ижтимоий коммуникациянинг ажралмас, айни пайтда масъулиятли моменти ҳисобланиб, унда маданиятлар тўқнашуви, вербал ва новербал турғун рамзларнинг ифодаси кузатиладики, бу жараёнга бугунги кун илм-фанида ниҳоятда долзарб муаммо сифатида қаралмоқда.

Ижтимоий (социал) коммуникация энг камида учта иштирокчидан таркиб топиб (жонли мавжудотлар, одамлар ўртасидагина), узатувчи субъект (коммуникант) – узатилаётган объект (хабар, маълумот) – қабул қилувчи субъект (реципиент)нинг биргаликдаги – ўзаро алоқа-аралашув фаолиятини таъминлайди. Бу ўринда: ахборотни кодлаш, узатиш, қайта ишлаш, англаш, идрок этиш (расшифровка) усуллари мулоқот воситаларидир.

Ижтимоий коммуникация инсон шахсининг шаклланиш усули бўлиб, индивиднинг ижтимоийлашуви ҳамда ундаги қобилиятларнинг ривожланиши у орқали амалга ошади. Демак, ижтимоий коммуникация кичик социал гуруҳдан тортиб, миллат ва давлат кўринишидаги барча кишилик жамиятлари учун яшаш шарти ва омили бўлиб хизмат қилади.[1]

"Коммуникацияга мантиқийлик – вазифавий хосланганлик хусусияти мансуб бўлиб, уни уч ўлчамли хронотоп (замон ва макон координаталари) характерлайди: **ирсий** (генетик) хронотоп, бунда: ирсий дастур(программа)лар ва биологик образларнинг биологик замон ва макондаги ҳаракати (муайян гуруҳнинг яшаш ҳудудида); **психик** (шахсий-руҳий) хронотоп: муайян шахс томонидан англанган, идрок қилинган фикрлар "манзили"ки, бунда: инсоннинг турмуш фаолиятида такомиллашувчи маънавий ҳаёт; **ижтимоий** (социал) хронотоп, фикрлар ривожи юзага келадиган аниқ бир кишилик жамияти, яъни ижтимоий замон ва макон"[2].

Бу ўлчамлар ижтимоий коммуникациянинг этник ва бошқа маданий гуруҳлар мисолидаги тадқиқига, ўз навбатида мулоқот актидаги ижтимоий-этник нутқий тактиканинг тамойилларини белгилаш, ўрганишга ёрдам беради.

Ижтимоий мулоқотдан пировард мақсад – ижтимоий, маданий, ижодий, эстетик ва бошқа

[1] Соколов А.В. Общая теория социальной коммуникации. – Санкт-Петербург, 2002. – С. 61.
[2] Юқоридаги манба, 12-б.

эҳтиёжларни қондиришдан иборат. Шунга кўра, мулоқот учта: мазмун, мақсад ва восита каби асосий аспект[1] ҳамда қадрият, мотив, стереотип, аввалдан хулосалаш сингари мураккаб категориялардан[2] таркиб топади.

Нутқда учрайдиган ижтимоий-прагматик ҳодисаларни кўп ҳолларда лисоний қонуниятлар билан изоҳлаш қийин. Масалан, нутқ одобининг илтимос, узр сингари актларининг воситаларида асосан прагматик компонентлар[3] доминантлик қилади. Илтимос ва кечирим моментларининг миллий менталдаги янада уйғун, умуммеъёрий, вариатив элементлари эса, коммуникантлар (бу ҳолатда коммуникант-реципиент тамойили ўз кучини йўқотади) ўртасидаги принципиал-меъёрий алоқага ишора қилади. Ушбу ўринда илтимос ва кечирим актлари тизимидаги барча моментларда предикативлик (ҳукм) категориясини нисбатан ва шартли равишда мавжуд деб ҳисоблашимиз мумкин.

Мулоқотнинг маданий, психологик малакасини такомиллаштириш, нутқий актлар билан боғлиқ коммуникатив-руҳий ҳолатларни онгли бошқара олиш, мулоқот жараёнини лисоний-руҳий жиҳатдан асослаш, тушуниш, шарҳлаш ва коммуникация самарадорлигини ошириш сингари жиҳатлар бугунги кун прагмалингвистикаси, шунингдек, социолингвистиканинг энг долзарб муаммоларидан биридир. Хусусан, миллий маънавият ва шахснинг маданий савияси ва этник характерини намоён қилувчи мурожаат шаклларини социопрагматик нуқтаи назардан ўрганиш бугунги кунда миллий маънавият муаммоси глобаллашган бир шароитда ўта долзарб.

Мазкур мавзу жаҳон тилшунослигида мулоқот, нутқий актлар, дискурс назариялари, шунингдек, лингвомаданият кўлами бўйича улкан ишларни амалга оширган Дж.Остин, Серль, Н.Д.Арутюнова, М.М.Бахтин, А.Вежбицка, Е.И. Беляева, В.ИБеликов, Л.П.Крисин, Е.М.Верешагин, В.Г.Костомаров, А.А.Леонтьев, В.Е.Иосифова, М.А.Егорова, В.И.Карасик, О.Д.Белецкая, Т.В.Абрамова, С.В.Неверов, И.А.Стернин, Н.И.Формановская, Л.В.Цурикова сингари тилшуносларнинг нутқий акт тадқиқига бағишланган ишларида ва ўзбек тилшунослигида асосан М.Ҳакимов, Д.У.Ашурова каби олимларнинг нутқий актлар, сўзлашув нутқи синтаксисига бағишланган, Ш.Сафаров, Г.Тоированинг этносоциопрагматик-таҳлилий тадқиқотлари доирасида қисман ўрганилган. Бироқ ***илтимос*** гибрид нутқий актининг гибрид табиати, миллий, этник маънавиятни, мурожаат қилувчи ва уни қабул қилувчи шахснинг гендер (жинсий) характерини ўзида акс этирадиган миллий-этник ментал ва гендер тавсифи прагматик асосларда тадқиқ қилинмаган.

Ўзбек тилидаги лисоний ҳодисаларнинг нутқий воқеланиши, жумладан, илтимос гибрид нутқий актини социопрагматик нуқтаи назардан, яъни сўзловчи ва тингловчи шахс ҳолати ҳамда нутқ шароити ва вазияти билан боғлиқ равишда тадқиқ қилиш бу борадаги муаммолар ечимига дахлдорлик касб этади. Шу кунгача жаҳон тилшунослигида илтимос нутқий актини систем таҳлил қилиш, бу актнинг нутқий маданиятдаги ўрнини ўрганишдек йирик илмий ишлар бажарилди, аммо уни социал-прагматик жиҳатдан бошқа нутқий актлар тизимида кенг кўламли қиёсий текшириш ҳали амалга оширилганича йўқ.

Маълумки, тил тизимида жамланган бирликларнинг ягона тоифага мансуб эмаслиги социал дифференциалланган гуруҳларнинг фарқли белгисига ва ижтимоий фактор талабига кўра тил бирликларининг танланишини тақозо этади. Бинобарин, лисоний ҳамда коммуникацион вазиятнинг кескин ўзгариши, ахборот узатишнинг, шу жумладан, вербал ахборотнинг қайта ишланиши ва сақланишининг янги усул ва шакллари нутқий вазиятда коммуникантлар учун мос ифода воситаларини саралаб қўллаш имкониятини яратди. Ушбу омил жамиятда ижтимоий стандартлашган хатти-ҳаракатнинг шаклланишига қисман шароит яратиб, ижтимоий

[1] Биркенбил В. Язык интонации, мимики, жестов. – СПб.: Питер, 1997.

[2] Цапина Е.А. Обозначение речевых тактик в диалоге: Автореферат на соисание учёной степени кандидата филологических наук. – М., 2008.

[3] Бу ерда: ҳавола *прагматик компонентлар* атамасига нисбатан қўлланилган. М.Ҳакимов.Ўзбек тилида нутқий актнинг баъзи муаммолари. “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали. 1999 йил №1-сон.

индивидларнинг нутқий маданиятга эришувида такрорланувчи ва турғун, ягона ахлоқий шаблоннинг тил тизими ва қурилмасида вазифалашувини шартлайди. Зеро, Л.П.Якубинский айтганидек, "...кундалик турмушнинг маълум шаблонлари асносида сўзлаш муайян кундалик маиший ҳолатлар ва шаблон мавзуларига гўёки бириктирилган қатор шаблон жумлаларнинг шаклланишига олиб келади"[1].

Аксарият ҳолларда ана шу шаблонлар (ифода формулалари) ментал маънавиятнинг шаклланишида алоҳида таъсир кучига эга ижодкор шахслар (шоир, ёзувчи, сўз усталари в.б.) нинг нутқий шаблонлар ҳақидаги тасаввурига кўра танланган позицияси бўйича қарор топиб боради. Демак, миллий-маънавий, маданий негизни акс эттиришга қаратилган қатор тадқиқотларда ҳам асосан илмий-бадиий асарлардан олинган фактларга таянилиб хулоса қилиниши инобатга олинса, социал-прагматик шартланган нутқ маданиятига доир илмий изланишларда маиший турмуш манзарасини намоён этувчи кенг қамровли (интернет, СМС, ММС ва ҳ.) фактларга табиий равишда эҳтиёж туғилади.

Хусусан, нутқ маданияти моҳиятан прагматик ҳодиса сифатида ўзбек тили нутқ одоби ва маданиятига бағишланган тадқиқотларнинг сўлашувчи нутқига нисбатан унинг жинс, ёш, маълумот даражаси, эгаллаган мутахассислиги, касби ва муайян ижтимоий гуруҳга тегишлилик каби омилларни эътиборга олиб иш кўришни тақозо этади. Шу сабабли, мазкур омиллар тематик томондан таснифланувчи нутқий актларнинг социопрагматик хусусиятларини текширишда асосий мезон бўлиб юзага чиқади.

Шахслараро коммуникацияда мазмуний-мантиқий ахборот алмашинувига ўтилаётганда бевосита нутқий муносабатларга ўтилади, бу эса мулоқотнинг муайян қоидаларига амал қилишни келтириб чиқаради. Мулоқот жараёнида коммуникантлар табиий равишда ана шу қоидаларни бажаришга киришадилар, бу вазиятга вазифа сифатида қараш мулоқот иштирокчиларининг онг ости фаолияти билан белгиланиб, суҳбатдошлар аксарият пайтларда ўзлари амалга ошираётган нутқий "маросим"нинг даврий шаклланиш хусусиятига эга бўлган умуммеъёр эканини пайқамайдилар. Холбуки, нутқий муносабатларда мазкур меъёрдан четлашилган ҳолатдагина, мулоқот иштирокчилари томонидан шу меъёрнинг бузилганлиги англанади.

Демак, алоҳида олинган ҳар бир нутқий ҳолат ўзининг белгиланган меъёрига эга бўлиб, у ана шу меъёрга кўра тематик томондан муайян гуруҳга бирикади. Шу нуқтаи назардан, илтимос нутқий акти ҳам ўзининг ифода бирликлари (шаблон ифодалар) ва ахлоқий-мантиқий, мазмуний характерни белгиловчи вербал ҳамда новербал инъикосининг универсал характерланишига кўра, нутқ маданиятининг даъват ҳамда ундаш маъносини англатувчи тематик гуруҳига бирика олади.

Жумладан, назарда тутилаётган илтимос гибрид нутқий акти тематик жиҳатдан нутқ маданиятининг асосан ундаш тематик гуруҳига мансуб бўлса-да, дискурснинг ташкилий бирликларидан бири бўлган ушбу акт ижтимоий-прагматик хусусиятига кўра локутив, иллокутив, перлокутив, тўғри ва эврилувчан (косвенный) нутқий акт сифатида қараб чиқилади. Нутқий актлар назариясида тизим сифатида ўрганиб чиққан Е.И.Беляева томонидан прескриптив, реквестив, суггестив деб қаралувчи[2] илтимос гибрид актини нутқий актлар характерини сақлаши билан ҳам тадқиқотталаб деб ўйлаганимиз туфайли, ушбу мавзуни ўрганиш ўзбек тилшунослиги ривожи учун аҳамиятли деб ҳисоблаймиз.

Таъкидлаш зарурки, ***илтимос*** актининг гибрид табиати бирламчи адресат факторига кўра аниқланади. Табиийки, прагматик тилшунослик даставвал адресатга мулоқотнинг

[1] Зубарёва А.А. Формулы речевого этикета: социолингвистическое исследование. http/: www.dissazakaz.com/catalog/formuli_russkogo_rechevogo_etiketa_sotsiolingvistich-eskoe_issledovanie.html.

[2] Қаранг: Шилихина К.М. вербальные способы модификации поведения и эмоционально-психологического состояния собеседника в российской и американской коммуникативных культурах. Диссертация на соискание кфн, Воронеж-1999. http://31f.ru/page,6,60-dissetaciya-verbalnye-sposoby-modifikacii-povedeniya-i-emocionalno-psixologicheskogo-sostoyaniya-sobesednika-v-rossijskoj-i-amerikanskoj-kommunikativnyx-kulturax.html

муваффақиятини белгиловчи фигура сифатида қарайди: “(адресат)... маиший диалогнинг бевосита иштирокчи-суҳбатдоши бўла олади, қайси бир махсус соҳа мутахассисларининг дифференциалланган жамоаси бўла олади, у ёки бу даражада дифференциалланган омма бўла олади, халқ, замондош, маслакдош, ҳамфикр, рақиб ва душман, тобе, раҳбар, яқин ва бегона в.ҳ. бўлиши мумкин. У ўзга томонидан бутунлай аниқлаштирилмаган ва конкретлаштирилмаган бўлиши мумкин (эмоционал типнинг турли тарздаги монологик ифодасига кўра) – адресатнинг ушбу барча турлари ва концепциялари мазкур ифода мансуб бўлган инсоний фаолият ва турмуш соҳасига кўра аниқланади”(М.М.Бахтин)[1]. Мулоқот иштирокчиларининг социал статусига ва мулоқотнинг кечиш хусусиятига кўра, илтимос нутқий акти эврилувчанлик хусусиятига эга бўлиб боради. Зеро: “Мақом (статус) – меъёрий категория (тушунча) бўлиб, статусли муносабатларни ўрганиш баробарида, биз табиий тилнинг бутун бойлигидаги кодлаштрилган нюансларнинг ижтимоий шаклланиш тамойилларини ўрганамиз”[2].

Ўзбек тили нутқ одобининг прагматик хусусиятларини аниқлашда мавжуд нутқий актларни ўрганишдаги социал мақомнинг бирламчи ўринга қўйилиши – унинг нутқнинг услубий, модал, эмотив, ижтимоий баҳо жиқатдан хосланган белгилари ўртасида алоҳида ва ҳал қилувчи компонент эканини билдиради. Айнан *нутқ одоби* ва *нутқ маданияти* тушунчалари *илтимос* нутқий актини объектив, турли ракурслардан туриб текширишни тақозо этади. Зеро, нутқнинг стандартлашган вазиятларида юзага чиқувчи ёхуд *амалга оширилиши кўзда тутиладиган* нутқий актлар ўртасида илтимос гибрид акти нутқий маданиятни ташкил этувчи “мулоқот иштирокчилари учун мулоқотни нутқ маданияти қоидаларига мувофиқ олиб боришда жамият томонидан қабул қилинган ва тавсия этилган миллий-хосланган вербал бирликларнинг микросистема”[3]нинг аниқ нутқий вазиятларидаги белгиланган шаклидир.

Хусусан, ўзбек тилидаги ***илтимос*** нутқий акти кўп миллатли ўзбек халқининг қўҳна қадриятларини ўзида акс эттирибгина қолмай, адресатнинг мазкур нутқий ҳолатга бўлган шахсий муносабатидан таркиб топувчи, шунингдек ўз тизимида ундаш, илтижо, талаб, таклиф, маслаҳат, даъват, огоҳлантириш ва ниҳоят, кечирим нутқий актлари деб қаралувчи алоҳида актларнинг хусусиятини ифодалаши, шунга мос мураккаб характери билан ҳам қолган нутқий актлардан кескин фарқланади.

Шунингдек, ўзбек тилида бошқа ментал маданиятларда кузатилмайдиган *андиша, ҳаё, шарм* деган тушунчаларнинг мавжудлиги ***илтимос*** гибрид актининг ижтимоий-прагматик жиҳатдан айнан ўзбек тилида текширилишга муносиб тадқиқот объекти эканини исботлайди.

Нутқ маданиятини ташкил этувчи микросистеманинг ташкилий бирликлари бўлмиш нутқий актлар ўртасида илтимос акти ўзининг нутқий вазиятни диференциаллаштириб берувчи ўзига хос “индикатор”лик хусусияти билан фарқланиб туради. Яъни у: *мулоқотнинг маълумотлилик (информативлик), маълумотсизлик, расмийлик, норасмий, тобелик, адресатнинг муаллифдан мустақил эканлиги ёки акси, турғун, сўзловчининг ўзгарувчан мақоми, таъкид, перформатив вазият, эксплицит, имплицитли перформативлик, эмоционал, адресатга рационал (ўйланган, режаланган) таъсир*[4] ва бошқа белгиларни тафовутлайди.

Ижтимоий мақомнинг суҳбат давомида белгиланган мулоқот тамойиллари асосида суҳбатни ташкил этишидаги аҳамияти илтимос актида бевосита намоён бўлишини иш юзасидан ўтказиладиган мулоқотда қуйидагича текшириш мумкин.

[1] Кобозева И.М. Лингво-прагматический аспект анализа языка СМИ. http:// evartist.narod.ru/text 12/08.htm.

[2] Карасик В.И. Язык социального статуса. – М.: Институт языкознания АН СССР, Волгоградский институт, 1991.

[3] Бу ерда: Н.И. Формановскаянинг нутқ маданияти юзасидаги қарашларига урғу берилмоқда. Қаранг: Карасик В.И. Язык социального статуса. – М.: Институт языкознания АН СССР, Волгоградский институт, 1991.

[4] Бунда: нутқий актлар назариясидан келиб чиққан ҳолда, мулоқот вазиятларини характерлашга урғу берилмоқда. Қаранг: Карасик В.И. Язык социального статуса. – М.: Институт языкознания АН СССР, Волгоградский педагогический институт, 1991.

Иш юзасидан мулоқот тасодифий мулоқотлардан фарқли равишда, суҳбатдошларнинг учрашувигача режалаштрилади. Бироқ, тасодифий мулоқотда ҳам мулоқот иштирокчиларида келишув, битимга келиш зарурати билан, иш юзасидан мулоқотга доир тактика ва стратегия ситуатив тарзда ишлаб чиқилади. Зеро, муомала ўз моҳияти ва тузилишига кўра мураккаб ахлоқий ҳодисадир. Унда кишининг ахлоқий онги (мотив, истак, унга эришиш йўлини танлаш), ахлоқий фаолият (хатти-ҳаракат), ахлоқий муносабат (баҳолаш) ва кишининг унга муносабати намоён бўлади. Шахснинг нияти (майли) замирида уни у ёки бу мақсадга ундовчи манфаатлар мавжуддир. Манфаатлар ижтимоий ва шахсий қимматга эга бўлиб, маълум бир эҳтиёжлардан ҳосил бўлади. Инсоннинг мақсади доимо асосланган бўлади. Сабаб (важ) муомала одобининг, хатти-ҳаракатнинг, қилиқнинг бир қисми бўлиб, бирор ҳаракатни бажаришда унинг яхши ёки ёмон эканлигини баҳолашга асосланилади.

Демак, юқорида айтилган иш юзасидан мулоқот жами бешта босқични ўз ичига олади. Булар:

I. Иш юзасидан мулоқот ғоясининг шаклланиш босқичи. Уни мулоқот ташаббускорининг қатор ҳолатларни уюштирган ҳолда, тегишли қарорни қабул қилиш истаги ташкил этади. *Камолова ёндафтарига алланималарни қанд этиб бўлгач, ҳамон сиполик билан Қодировага қаради. – Яна бир масала... «Бу нозик масала», деган экан бир шоир... – Камолованинг тиниқ шаҳло кўзлари кулимсиради. – Бу масалада бизни муҳтарама ўқитувчимиз Барно опа огоҳлантирдилар. Албатта, Зебо Қодировна, сизнинг бу ишдан яхши хабарингиз бор. Сўз жиянингиз Анвар Афзалов ҳақида боради* (Ҳамид Ғулом, Қорадарё).

II. Тайёрлов босқичи (материал таҳлили). Бунда материал тизимга солинади, қайта ишланади, келишув нутқи ёхуд маърузасининг ғоя ва режаси юзасидан шахсий позиция, стратегия ишлаб чиқилади: *Марвдаги воқеаларни Қундузда туриб эшитган Бобур Шоҳ Исмоилга махсус мактуб йўллаб, уни Шайбонийхон устидан эришган катта ғалабаси билан табриклаган, сўнг хон ҳарамидаги эгачиси Хонзода бегимни бешикаст Қундузга жўнатиб юборишни илтимос қилган эди*. (П.Қодиров, Юлдузли тунлар)

III. Мулоқот босқичи. Бунда қуйидаги фазалар ажратилади. *1. Саломлашув. 2. Томонлардан бирининг муаммони ўртага ташлаши – илтимоси (таклифи). 3. Эътибор билан тинглаш ва ахборотлар алмашинуви. 4. Муаммолар ечими юзасидан ғоя ва тахминларнинг илгари сурилиши. 5. Муаммони ечишга доир оптимал усулнинг изланиши:. Хон иккиланиб турганини кўрган мулла Абдураҳим изғиринда лаблари кўкариб, илтимос қилди: - Ҳазратим, биз сизнинг улуғ жонингизни хавф-хатардан узоқроқ тутмоғимиз даркор. Моваройуннаҳрдан келадиган қўшинни кутайлик* (илтимос: таклиф, даъват). Ёки: - *Қўйиб юбор болаларни, доноларнинг доноси. Сендан илтимос қиламан, уларни менга бер*. (Ч.Айтматов, Оқ кема) *6. Қарор қабул қилиш: - Илтимос, Владимир Васильевич, янги подстанция қурулгунча шундай қилиб турасиз. Хайр*. (Ў.Ҳошимов, Икки эшик ораси) (бунда илтимос таъкид ва буйруқ акти вазифасида). *7. Якуний сўзлар ва хайрлашув.*

IV. Суҳбат, мулоқот, келишувнинг таҳлилий босқичи. Таҳлил ўз ичига “нимага эришилди?” ва “нимага эриша олмадик?” саволлари қаторида “нега эриша олмадик?” сингари саволларни ҳам қамрайди. Айнан шу босқич илтимос актининг гибрид табиатини намоён этиб, унинг стратегик хусусиятларини белгилаб беради. Зеро, “эришиш” ғояси илтимос актининг вербал ва новербал воситаларини ўз ўрнида, маҳорат ва юксак зийраклик билан қўллашни шартлайди. Ҳар бир ижтимоий мақомнинг “натижа” ва “мағлубият” йўли томон кетишини уларнинг мулоқот маданиятини қай даражада эгаллаганлиги, алоҳида олинган нутқий вазиятлар тўғрисида шаблон тушунча ва кўникмага эгалиги ва эга эмаслиги кабилар белгилайди. Мана шу ўринда, объектив фактларни субъектив хусусиятлардан фарқлаш керак бўлади.

V. Ҳамкорлик истиқболи, стратегиясини ишлаб чиқиш босқичи. Иқтисодиётда келтириб ўтилган IV-V босқичлар ҳал қилувчи босқич ҳи-

соблангани учун, тадбиркорлар ўртасида илтимос нутқий акти юзасидан у билан боғлиқ нутқий шаблонларнинг энг самарадор бирликларидан фойдаланиш кўп кузатилади: **-** *Домлажон, менгина ўлай, соддалик қилиб алдандим, сизни бекорга хафа қилган бўлсам, кечиринг* (П.Қодиров, Айра институтга кирмоқчи) (гўё узр вазифасида келаётган илтимос акти).

Эътиборлиси шундаки, норасмий, иш юзасидан ўтказилган мулоқотларда ҳам, суҳбат ташаббусчиси илтимос акти стратегиясининг 4-5-босқичига аҳамият беради. Гарчи, илтимос натижасиз кечган бўлса-да, илтимос ўзини йиллар давомида эслатиб туради ва шу орқали ўз ишини "давом эттиради": - *Ёзда шунча илтимос қилдим, - дейди шанғиллаб. – Жон ака, сиз чўлда кўп юрасиз, бир арава саксовул обкеб беринг деб.* (Ўткир Ҳошимов, Икки эшик ораси)

Предикативлик – ақлий фаолиятининг маҳсули бўлиб, бунда икки ҳодисани: предикация жараёни ҳамда предикативликни фарқлаш лозим бўлади. Яъни, предикация – (предмет ва белгининг логик ҳукм остида бирлашуви) фикрлаш жараёнида юзага келади, унинг ҳосиласи сифатидаги реализацияси – нутқий шаклга эга бўлган гап (модель, конструкция) эса мазкур фикрий типик денотатив вазиятни номлайди (ифодалайди). Ҳолбуки, гап ўз навбатида аниқ денотатив вазият ҳақида хабар беради[1].

Мулоқот, одатда гаплардан ташкил топади. Бироқ муайян бир конструкцияларнинг ўрнини босувчи вазифавий ўринбосарлар ҳам борки, улар оғзаки нутққа хос бўлиб, кўп ҳолларда предикативлик хусусиятига эга бўлавермайди. Бу борада ҳам икки ҳодисани: фактуал ва ахборотли мулоқотни ажратиш лозим бўлади. Фактуал мулоқот предметли фактик ахборотни ташимайди, у ҳиссий-психологик характерга эга бўлиб, кейинги мулоқот туридан информацион-амалий эмаслиги билан фарқланади (***Оббо!, Наҳотки?, Ана холос!*** сингари). Ёки: илтимос ва кечиримнинг: ***илтимос, ижозат беринг, кечиринг*** (бирор нарсага эгалик қилиш учун ёки бирор манфаатни кўзлаб рухсат, ижозат сўраш, ножўя ҳатти-ҳаракат учун кечирим сўраш моментига нисбатан масъулият ва алоҳида ҳурматнинг расмий ифодаси) ва асосан ёрдамчи ва кўмакчи феъллар орқали ифодаланган конструкциялар (шахснинг мавҳум, субъектив ҳиссий-руҳий ҳолати билан изоҳланади) нинг ўртасидаги фарқ ҳам ушбу фикрга далил бўлади. Фактуал ва ахборотли мулоқот ўзаро чамбарчас ҳолда мавжуд бўлади. Унинг биринчиси икинчисига мулоқот давомида гўёки "едирилади".

Мулоқотнинг новербал ҳолатида инсон ўз фикр-мулоҳазасини ҳолат, тарз ва жестлар, проксимика ва ҳ. орқали ифодалайди. Новербал мулоқотда ахборотнинг 70 фоизини коммуникант визуал (кўриш) йўли орқали қабул қилади. Демак, мимика, жест, кинесика (киши ҳис-туйғуларининг ташқи ифодаси бўлмиш қиёфа, визуал коммуникация (кўзларнинг ҳаракати, нигоҳлар), ҳ.) ҳамда бошқа экстралингвистик фонатив воситалардан ташкил топувчи мазкур типдаги мулоқотда предикат ва предикатив кўламнинг мавжудлиги ҳақида қатор баҳсли мулоҳазаларни келтириш мумкин. Зеро, мулоқотнинг ўзига хос стратегияси бўлмиш яна бир воситаси – сукут ҳам тил ҳодисаси сифатида эътиборталаб. Нутқий актда фикр инъикосининг ноль кўрсаткичли[2] ушбу новербал муқобили ёрдамида таъкид ва тасдиқ, ваъда, розилик, кутиш, ишончсизлик ва баҳолаш сингари ижтимоий маъно юзага келади: *Очилнинг рангида қон қолмаган, аъзойи бадани қалт-қалт титрарди. – Муроджон, ука, ўша жой... Менга ўша қизнинг адреси керак. – Ҳозир билиб чиқаман, сиз шошмай туринг.* (П.Қодиров, Уч илдиз) Ёки: – *Яна бир илтимосим бор, Гавҳар, - деди у ва титраб гапирди: - Борди-ю, бошқа киши яқин туюлса... Энди айтиб бўлмайди-да. Агар бошқа биров билан бўлиб кетсангиз, мендан яширманг. Шу бирга ўтказган дамларимиз ҳурмати очиқ айтинг. Менда бундан мавҳумлик ёмон. Мабодо ўшан-*

[1] Андреева С.В. Элементарные конструктивно-синтактические единицы устной речи и их коммуникативный потенциал: Автореферат диссертации на соискание учёной степени доктора филологических наук. – Саратов 2005.

[2] Переверзева С.И. Невербальный коммуникативный акт утешения: материалы к построению словаря невербальных коммуникативных актов.http://www.dialog-21.ru/dialog2009/materials/html/59.htm

дай бўлса икки энлик хат... Хўпми?.. (П.Қодиров, Уч илдиз)

Ўзбек тили нутқий этикетидаги узр, кечирим актидан фарқли ўлароқ, у билан бирга бир тизимда мавжуд бўлувчи илтимос акти бирликлари предикацияга деярли хизмат қилмайди, улар вербал ва новербал ҳолда келишидан қатъи назар, символик моҳиятга эга бўлади: а) кечирим актида: *-Қулингизни авф этинг, сизни кутиб ололмадим*. (П.Қодиров, Юлдузли тунлар) ва б) илтимос актида: *У тиззаси билан юриб Бобирга яқинлашар экан, йиғлаб илтижо қилди: - Раҳм қилинг!* (П.Қодиров, Юлдузли тунлар)

Баъзи ҳоллардагина акт иштирокчиларининг учрашуви билвосита ва бевосита бўлишидан қатъий назар, коммуникант ва реципиентга мулоқотни бошқарувчи етакчи ғоя аниқ маълум бўлади. Бу эса кечиримнинг айнан ҳукм – предикат орқали юзага чиқишини таъминлайди: *Ўзи пойгакроққа ўтирди ва пешонасини қаттиқ қисиб, ҳазин товуш билан: - Темир Акбарович, мендан хатолик ўтган экан, энди тушундим, - деди. - Сиз тўғри айтган экансиз, Тошевни аллақачон чақиришиз керак экан*. (П.Қодиров, Уч илдиз) Мазкур нутқий жараёнда узрнинг аниқ ифодаси кузатилмаганлидан қатъий назар, уни оҳанг бошқарганлиги боис, бу ҳолатни ҳам кечиримнинг новербал кўриниши деб олиш мумкин.

Илтимос ва кечирим актларининг лисоний характерини айнан унинг нутқий хусусиятига қараб белгилаш қийин, чунки, илтимос ва кечирим моменти ўз номи билан икки индивиднинг ижтимоий-психологик юзма-юз келишига ишорадир, ундаги мурожаатларнинг миллий ментал усулда изоҳланишини эса табиийки, ижтимоий омил белгилайди: *- Тўй қачон энди, Ражаб ака? Кўпкарига олган улоқчамиз қариб, тишлари тушиб кетди-ку. – Э, сўрама, ука. Маҳалла-кўйдан ҳам уялиб юрибман.* (П.Қодиров, Қадрим)

Шунингдек, илтимос ва кечирим актлари бирликларининг кўчимлар(асосан истеҳзо, киноя) ёрдамида келиши мурожаатларнинг ижтимоий-руҳий, ахлоқий статусини белгилайди: *- Ўртоқ Ғуломов, қани, овқатга марҳамат!*

-Раҳмат, мен яқинда овқатланган эдим.

-Илтимос қиламиз, жилла бўлмаса татиб кўринг...

Ғуломов вилкани қўлига олди:

-Нима гап ўзи?

-Гўшт ҳидланган,- деди кимдир. (П.Қодиров, Қадрим)

Баъзан, нутқий актнинг прагматик компонентлари мулоқотнинг табиатига боғлиқ ҳолда илтимоснинг нутқий ифодасини турли синтактик қурилмалар орқали бошқаради: *- Мен сизга қуюғидан дедим! – кулиб гапирди Зулайҳо. – Ошпаз бўлгансиз-ку ахир. Қуюғидан деганда гўшти билан донидан кўпроқ сузмайсизми?* (П.Қодиров, Қадрим) Ёки: *- Ўртоқ профессор, битта савол бор...* (П.Қодиров, Қадрим)

Ўз-ўзидан маълум бўладики, мулоқот жараёнининг тури (ҳамкорлик, қарши кураш, ҳамкорликдан бўйин товлаш, бир томонлама қарши курашиш, келишувли ҳамкорлик, мураккаб ҳамкорлик ва б.)га ҳамда мулоқотнинг шаклига кўра предикативлик у ёки бу даражада намоён бўлади. Масалан, баъзи ўринларда кечирим расмий тарзда ифода этилади-ю, бироқ, контекстнинг моҳиятида унинг ёрдамида тахмин қилиш, умидланиш ва ҳатто, ваъда актининг юзага чиққанлигини кўриш мумкин: *Ашур безовта эди. Мутахассис унга қараб деди: - Кечирасиз, йигит, сизга бошқа иш беришар.* (П.Қодиров, Қадрим)

Вербал ва новербал мулоқот пировард натижада – ақлий фаолиятнинг бошқаруви остида кечишини назарда тутарканмиз, жамият учун ижтимоий аҳамияти кўпроқ бўлган новербал мулоқотдан коммуникантлар кўпроқ тушунча ва билимга – ахборотга эга бўладилар. Шунингдек, инсоннинг ўзга шахс томонидан айтилган сўзга ишончи 20 фоизни ташкил этгани ҳолда, новербал мулоқотдаги ишончи 30 фоизни кўрсатгани олимлар томонидан исботланган[1]. Негаки, вербал мулоқот: оғзаки ва ёзма нутқ малакаси, денотат ва коннотат каби тушунчалардан иборат мулоқот тизими бўлса, ундан фарқли ўлароқ, новербал мулоқот – таъсирчанлик,

[1] Вербальные и невербальные коммуникации. Характеристики общения. Личность как субъект общения http://www.volsu.ru/Volsu/news/diser/avto/avto295.doc

ички сезги, ҳолат ва масофа, қиёфа, визуал (нигоҳлар) алоқа, бош ирғаш, пауза ва сукутдек йирик тизимга эга. Бинобарин, бундай ўзига хос ижтимоий мақомни белгилаш, аниқлаш, кашф этишдек аҳамиятли алоқавий тизимлардаги ижтимоий социал-психик, ахлоқий маъно(ҳукм, моҳият) билан предикат ўртасида боғлиқлик борми, масала мана шу ерда...

Rezyume. Maqolada nutqiy aktlar tizimida alohida o‘rib tutuvchi, o‘zida bir necha nutqiy aktlarga taalluqli xususiyatni namoyon eta oluvchi iltimos gibrid akti hamda unda predikativlikning voqelanishi haqida so‘z boradi.

Resume. The article examines the issue of the hybrid nature of the act of request, which is unique in the system of speech acts, exhibiting characteristics characteristic of several speech acts. Also, the method of implementing predicativity in a given speech act is considered.

Резюме. В статье рассматривается вопрос о гибридной природе акта просьбы, который является уникальным в системе речевых актов, проявляющий характеристику свойственных нескольким речевым актам. Также, рассматривается способ реализации предикативности в данном речевом акте.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 6
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

JANUBI-SHARQIY ANDIJON SHEVALARIDA AYRIM QARINDOSH-URUG‘ ATAMALARINING QO‘LLANISHI

Alimbekova Vazira Xalimjon qizi,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Darhaqiqat, leksika rang-barang qatlamlarga ega bo‘lib, xalqning uzoq o‘tmishidan, madaniyat va ijtimoiy taraqqiyoti darajasidan darak beradi, binobarin, u xalq tarixining jonli shohididir.

Ana shu qatlamlarning biri qarindosh-urug‘ nomlarini ifodalovchi so‘zlar bo‘lib, ular tilshunoslikning qiziqarli, shu bilan birlikda muhim masalalaridan biridir. Gap shundaki, qarindosh-urug‘ nomlari til, lug‘at boyligining qadimgi tub va turg‘un, ayni chog‘da o‘ta faol qo‘llanuvchi qatlamga mansub bo‘lganligidan, har bir til, xususan, adabiy til va shevalarning shakllanish davri va rivojlanish jarayonida ishtirok etgan qabila va urug‘larning tutgan o‘rnini aniqlashga ham yordam beradi[1].

Shunday ekan, tili ozig‘i bo‘lgan shevalarni sinchiklab o‘rganish, tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir qatorda, umrini ham uzaytiradi.

O‘zbek tilshunosligida qarindosh-urug‘chilik va uning terminlari haqida ko‘plab tilshunoslar, jumladan, A.Ishayev “O‘zbek shevalaridagi qarindoshlik terminlari”, I.Ismoilov “Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari”, M.Saidova “Namangan shevalari qarindoshlik terminlarining leksik-semantik tahlili”, A.Mamatov “Andijon tip shevalarda qarindosh-urug‘ atamalarining qo‘llanishi” kabi bir qator ilmiy asarlar yaratilgan.

Olimlar qavm-qarindoshlik atamalarini ikki guruhga bo‘lishadi: qon-qarindoshlik atamalari va quda-andachilik atamalari[2]. Maqolada ushbu guruhdagi shevaga xos bo‘lgan qarindosh-urug‘ atamalari tahlilga tortildi.

Shevada qon-qarindoshlik atamalarining ifodalanishi

Bobo so‘zi hind-ovro‘po, afrika, kavkaz, som, xitoy tillarida ham mavjudligidan bo‘lsa kerak, sof turkcha-mo‘g‘ulcha emas, deb qaraladi va manbasini bolalar tili bilan bog‘lashadi[3].

Bobo so‘zi o‘zbek adabiy tilida nabiraga nisbatlab olganda otaning yoki onaning otasi ma’nosida qo‘llanadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ushbu so‘zning ma’nolari “ota, buva, oqsoqol” deb izohlangan [O‘TIL. 1 tom, 291]. Shu sababli, o‘rganilayotgan shevaning ayrim hududlarida otasining otasini *bobo* yoki *buva* deb emas ota, o‘z otasini *dada* deb atovchi sheva vakillari ham mavjud. *Bobo, buva* so‘zi bilan yondosh, **āpāqï (opoqi)**[4] so‘zi ham faol qo‘llanadi. *Opoqi* so‘zi, asosan, otaning otasiga nisbatan qo‘llanadi. Ushbu so‘z o‘zbek tilining izohli lug‘atida “qarindoshlik bildiruvchi so‘zlarga qo‘shilib “katta” ma’nosida keladi va hurmatni ifodalaydi” deya izohlangan [O‘TIL. 1 tom, 130]. O‘rganilayotgan shevalarda ushbu so‘z qarindoshlikni bildiruvchi *dada* so‘zi bilan ham birga **āpāydädä** *(opog‘dada)*, **āpādädä** *(opodada),* **āpāqi** (opoqi) tarzida ham qo‘llanadi. Bu holatda ota va onaning otalari ma’nolarini ifodalashda farqlanmaydi.

[1] Маматов Фю Андижон тип шеваларда қариндош-уруғ атамаларининг қўлланиши. – Тошкент. 2009. –Б 14.

[2] Qarang: Маматов Фю Андижон тип шеваларда қариндош-уруғ атамаларининг қўлланиши. – Тошкент. 2009. –Б 29.

[3] Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Т. I. – М., 1974.

[4] Qiyoslang: ushbu so‘z Toshkent shevasida amakining ayoliga nisbatan ishlatiladi.

Ayrim o‘rinlarda *bobo* ma’nosida *katta va ota* so‘zlari birga qo‘llanib **kätäätä** *(kataota)*, **kätätä** *(katata)* tarzida ishlatiladi. O‘zining otasini ota deb, bobosini shu nom ostida atovchi aholi vakillari ham mavjud.

Bu jihatdan biz o‘rganilayotgan shevada bir oilaga mansub bo‘lgan ikki til ta’sirini ko‘ramiz, ya’ni *opog‘dada* uyg‘ur til ta’siri bo‘lsa, *katta ota* qipchoq guruhi tillarining ta’siridir[1].

Tadqiqot olib borilayotgan shevada yana *bobo* ma’nosida **chöŋata** (cho‘ngata)**, chöŋenä** *(cho‘ng ena),* **täjätä** *(tayata)* kabi leksemalar ham qo‘llanadi. **Chöŋätä**[2] so‘zi *cho‘ng* va *ota* so‘zlarining birikuvidan tashkil topgan bo‘lib, otaning otasini bildiradi. **Cho‘ng** [O‘TIL.4-tom, 524] so‘zi xitoy tilidan kirib kelgan bo‘lib, o‘zbek tilining izohli lug‘atida “katta, ulkan; zo‘r; kuchli” degan ma’nolarni bildiradi.

O‘zbek va uyg‘ur tilida *katta oyi, kichik oyi* yoki shevalardagi *katta ena, katta buvi, kichik buvi*; uyg‘ur tilidagi *chöŋ apa, kichik apa, kichik ana* formalari, asosan, ona ma’nosida ishlatilish xususiyatiga ham egadir. Bunday ma’no xususiyati o‘zbek-uyg‘ur xalqlarining feodal tuzumi davridagi ko‘p xotinlilik tufayli kelib chiqqan bo‘lib, bir otaning ikkita xotini bo‘lgan sharoitda bu har ikki xotinning bolalari o‘z onasini onalariga nisbatan *ona, oyi, aya* terminlarini ishlatgani holda otasining birinchi (katta) xotiniga nisbatan kichik xotinining bolalari *katta oyi, katta buvi, katta ena, katta aya* kichigiga nisbatan *kichik oyi, kichik buvi, kichik ena, kichik aya* deb ataganlar. Uyg‘ur tilida ham xuddi shu xususiyat *cho‘ng apa, kichik apa, cho‘ng ana, kichik ana* formalarida ifodalangan[3].

Turkiy tillarda barcha “qo‘shma” atamalar tarkibida kelgan **taj\\daj** komponentlari ona tomon avlodlari ma’nosini ifodalagani uchun, masalan **taj+ata** (onasining otasi) **taj+ene=tajne** kabi *tay* va *day* qo‘shimchalari mantiqan ona ma’nosini ifodalagan bo‘lishi mumkin deya taxmin qilinadi. O‘zbek tilining Namangan viloyatidagi Norin hamda Janubiy Qirg‘izistondagi o‘zbek (Olabuqa, Oqtom, To‘qtag‘ul) shevalarida **taj (toy)** so‘zi ona tomonidan qarindoshlikni bildiruvchi terminlarning birinchi komponenti bo‘lib keladi: **tay ota** – bobo (onaga aloqador bobo), **taj enä** – buvi (onaga aloqador buvi). Bunday holat ba’zi bir turkiy tillarda ham mavjud: qirg‘iz. *tay ake (tayke)* – ona tomondan qarindosh bo‘lgan katta erkak; xakas: *tay içe*, oyrot: *tay ene* – buvi (onaga aloqador). Turkiy tillarning ayrimlarida **taj** termini yakka holda qo‘llanib, onaga aloqador erkak qarindoshlarni anglatadi: day - oltoy, yoqut, oyrot: taay – tog‘a[4].

Janubi-sharqiy Andijon hududining qipchoq lahjasida so‘zlashuvchi aholi nutqida onasining otasiga nisbatan *täjtä* (tayta) termini ham qo‘llanadi.

Otasining onasini yoki onasining onasini adabiy tildagidek *buvi* deb atashi shevada ham ancha faol. Lekin shu bilan bir qatorda bir qancha leksemalar ham mavjud. Shulardan biri **ene, enä (ena)** so‘zlaridir. Ushbu so‘z, asosan, qirg‘iz tili ta’siriga uchragan hududlarda qo‘llanadi. Ma’lumot sifatida aytib o‘tishimiz kerakki, qipchoq lahjasi vakillari nutqida bu so‘z onasiga nisbatan qo‘llanadi.

Tay terminini qo‘llash doirasi jihatidan faqat turkiy tillar bilan chegaralanib qolgan emas. V.M. Illich-Svitich nostrat (hind-yevropa, oltoy, ural, dravid, kartvel, som-xom) tillari uchun huddi mana shu so‘zni rekonstruksiya qilib *ta(н)jΛ* (?) – qarindosh deb ko‘rsatilgan hamda oltoy tillarida *tajy* – *ona* tomonidan qarindosh deb qayd etgan edi[5]. Qiyoslang: dravid tillariga taalluqli tamil tilida *tay-ona*, kartvel tillarida *da* – *opa*, budux tilida даьй – ona, oltoy tillariga oid *эвенк* tilida *tau* – *yaqin qarindosh*, kurd tilida *ða* – ona, urdu tilida *maй* – *amma.*[6]

Yosh jihatlarini inobatga olgan holda **buvi** so‘zining oldidan ***katta*** sifati ham qo‘shib aytiladi: *katäbü:i, kattabu:i* kabi.

[1] Маматов А. Ўзбек тили лексикологиясидан материаллар. – Тошкент. 2009. – 87 Б.

[2] Ўзбек шевалари лексикаси. – Фан: Тошкент, 1966. – Б 358.

[3] Маматов А. Андижон тип шеваларида қариндош-уруғ атамаларининг қўлланиши. – Тошкент, 2009. – Б. 26.

[4] Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Т. III. – М., 1980; Ишаев А. Этимологик кузатишлар. ЎТА. 1972. Сон 2. Б 51.н

[5] Иллич-Свитыч В. Материалы к сравнительному словарю ностратических языков (индоевропейский, алтайский, уральский, дравидский, картвельский, семитохамитский).

[6] Ишаев А. Этимологик кузатишлар. ЎТА. 1972. Сон 2. Б 51.н

Janubi-sharqiy Andijon shevalarida *ota* so‘zi bilan bir qatorda boshqa ko‘p hududlardagidek **dädä** (dada) so‘zi ham faol qo‘llanadi. Shevaning ayrim vakillari nutqida **ävä** *(ova)* **äkä** *(aka)* kabi so‘zlar ham ota ma’nosida qo‘llanadi. Qiyoslang[1]: qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq tillarida ham **aka (akä, äke)** ota ma’nosida qo‘llanadi. *Āvä* so‘zi ayrim bir shevalarda *ota* ma’nosida ishlatiladi. Ma’lumot sifatida aytib o‘tishni joiz deb topdik, Surxondaryo viloyati O‘shor, Oybayra qishloq shevasida ham **āvä\ävä** so‘zlari ham ota ma’nosida qo‘llanadi.[2] Aminjon Mamatovning “Andijon tip shevalarida qarindosh-urug‘ atamalari”[3] kitobida otasining otasini *katta amaki*, inisini *buva* ya’ni *amaki* ma’nosida qo‘llanishi aytib o‘tilgan. Lekin bugungi kunda *buva* so‘zi ushbu hududda *amaki* ma’nosida qo‘llanmaydi. Ushbu so‘z shevaning ayrim qipchoq lahjasiga mansub hududlari va Qo‘qon atrofi shevalari[4], uychi shevasida: amaki va katta yoshdagi kishilarga murojaat qilganda[5], O‘sh[6] *ava, āva (ova)* leksemalari *amaki* ma’nosida qo‘llanadi.

Shevada **ona** so‘zi *opa, aya, buvi, buva* kabi nomlar bilan ataladi. **Āpa** *(opa),* **apa** *(opo)* so‘zi o‘zbek adabiy tilida ota-onasi bir bo‘lgan o‘zidan katta yoshdagi ayol jinsiga mansub insonga nisbatan qo‘llanadi. Ammo o‘rganilayotgan shevada ushbu so‘z ona ma’nosida qo‘llanadi. Qiyoslang: Xorazm *apa*, Toshkent *āpä*[7] shakllarida ushbu hududlarda ham ona ma’nosida qo‘llanadi. A. Mamatov ushbu so‘z *ona, opa* va *aba* so‘zlari bir biri bilan bog‘liq ekanligini, chunki turkiy tillarning ko‘pchiligida, shu jumladan, o‘zbek, uyg‘ur tillarida *n* tovushining *b* ga va *p* ning *b* tovushiga almashish hodisasi mavjud ekanligini aytadi. Shuning uchun ham shevalarda *ona, aba, apa* termini bilan birga uning fonetik variantlari u yoki bu shevada tor ma’noda mustahkamlanib qolganligini aytadi.

Buvi so‘zi adabiy tilimizda ota va onaning onasiga nisbatan qo‘llanuvchi leksema hisoblanadi. Ammo o‘rganilayotgan shevaning ayrim hududlarida (Dehqonchek, Ijtimoyat) ushbu so‘zni ona ma’nosida ishlatilishini ham kuzatishimiz mumkin. **Büvi** so‘zining ona ma’nosida qo‘llanishi ham aytilgan [Farmonov; 1960:168].

Äjä *(aya)* leksemasi shevalarda boshqa so‘zlarga nisbatan ko‘p qo‘llanadi. Qo‘qon guruhi shevalarida katta tog‘aning xotinini **aya**[8] deb yuritiladi: ertaga azonlab dalaga chiqish kerakligini eslab, Dildor ayvonga Malika aya uchun ham joy qilib, chiroqni o‘chirmay yotdi. (S. Ahmad, Ufq)

Äkä (aka), **ükä** (uka) so‘zlari adabiy tildagidek qo‘llanadi, ayrim o‘rinlarda erkalash uchun so‘z oxiridagi **ä** unlisi **ö** deb talaffuz qilinadi: *äkö (ako‘), ükö (uko‘)* tarzida talaffuz qilinadi.

Shevalarda **singil** so‘zi ham murojaat uchun qo‘llanmaydi. Bu so‘z o‘rnida ham **ükä** so‘zi qo‘llanadi: *ükö, menga kitāplärini berib tur (<uko‘, menga kitoblaringi berib tur).*

Adabiy tildagi o‘zidan katta ayol jinsiga mansub shaxsga nisbatan qo‘llanuvchi *opa* so‘zi shevada ham shunday, ayrim qipchoq lahjasida so‘zlashuvchi aholi nutqida esa **ežе** (eje) so‘zi qo‘llanadi. **Eje** so‘zi turkman[9] tilida *ona* ma’nosida, Chimkent, Qoramurut[10] shevasida *xola, amma* ma’nolarida ishlatiladi.

O‘zbek adabiy tilida otasining aka-ukalariga nisbatan *amaki* so‘zi ishlatiladi. Shevalarimizda ular orasidagi yosh tafovutlari sababli turlicha leksemalar bilan ataladi. O‘rganilayotgan hududda *amaki* so‘zi bilan parallel ***āva*** (ova) so‘zi qo‘llanadi. Surxondaryo viloyatining qarluq, barlos, kaltatoy urug‘larida ***āvä*** (ova), oybarak shevasida ***ävä*** (ava)[11].

Shevalarimizda otasidan katta bo‘lgan amak-

[1] Исмаилов И. А. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – Б 28.

[2] Turdialiyev A. Denov shevasini areal o‘rganish va til korpusiga joylashtirish. Diss.PhD. – Toshkent, 2023. – B. 165.

[3] Маматов А. Андижон тип шеваларида қариндош-уруғ атамаларининг қўлланиши. – Тошкент, 2009. – Б. 88.

[4] Шоабдураҳмонов Ш. Қўқон шевасининг баъзи бир фонетик чусусиятлари ҳақида. ЎДМ, I. – Тошкент, 1957.

[5] Алиев А.Ю. Уйчи шеваси. ЎДМ, II. – Тошкент, 1961.

[6] Фармонов И. Ўзбек тили ўш-ўзган диалектининг баъзи лексик хусусиялари. – Тошкент, 1983.

[7] Ўзбек шевалари лексикаси. – Фан, Тошкент, 1966. – Б 36.

[8] Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 343.

[9] Исмаилов И. А. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 14.

[10] Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 330.

[11] Turdialiyev A. Denov shevasini areal o‘rganish va til korpusiga joylashtirish. Diss.PhD. – Toshkent, 2023. – B. 15.

ining ayoliga nisbatan turlicha murojaatlar bilan yuzlanishadi. Janubi-sharqiy Andijonning qarluq lahjasi vakillari nutqida **māmä** *(moma)*, qipchoq lahjasi vakillarining nutqida **kätäpä** *(katapa)* deyiladi. Ma'lumot sifatida aytib o'tishimiz kerakki, Toshkent shahrida **āpāqï** *(opoqi),* Xorazm shevalarida **ullïapa** *(ulliopa),* **apabiji** *(apabiyi)* leksemalari qo'llanadi. **Moma**[1] so'zi uyg'ur tilida otasining onasiga yoki onasining onasiga nisbatan qo'llanadi.

Surxondaryo shevalaridagi ***jäŋä*** *(yanga),* ***čečä*** *(checha)*[2], adabiy tilimizdagi *kelinoyi* (kennäji) o'rnida qipchoq lahjasi vakillari nutqida **ženä** *(jenga)* leksemasi qo'llanadi. Z.M.Boburning "Boburnoma"[3] asarida hamda Gulbadanbegimning "Xumoyunnoma"[4] asarida ***checha*** leksemalarini uchratishimiz mumkin.

Shevalarda qo'llanuvchi *amma, xola, tog'a* so'zlari deyarli adabiy tildagi bilan bir xil qo'llanadi.

Shevalarda quda-andachilik atamalari

Qayin termini turkiy tillarning deyarli barchasida mavjud. Uning fonetik variantlari ham bo'lmay qarluq va qipchoq til gruppalarida so'z boshida chuqur til orqa \q\ tovushi bilan, gagauz va turk tillarida nisbatan oldinroq talaffuz etiluvchi \k\ bilan, ozarbayjon va turkman tillarida esa uning jaranglashgan variant \g\ tovushi bilan boshlanadi[5].

Qajnata *(qayin ota)* (erning otasi uning xotiniga nisbatan va xotinning otasi uning eriga nisbatan) leksemasi shevada atash ma'nosida ishlatiladi, murojaat ma'nosida *ātä (ota)* yoki *dädä (dada)* leksemalari qo'llanadi.

Qajnene, qajnänä *(qayin ona)* (erning onasi uning xotiniga nisbatan va xotinning onasi uning eriga nisbatan) shevada atash ma'nosida, murojaat ma'nosida *äjä (aya), äpä (opa)* leksemalari qo'llanadi.

Adabiy til va boshqa shevalardagi *qaynog'a* (erning akasi uning xotiniga nisbatan va xotinning akasi uning eriga nisbatan) janubi-sharqiy Andijon hududida *qajnäkä (qaynaka)* deyiladi*, äkä (aka)* deb murojaat qilinadi.

Qayin egachi, ya'ni kelin va kuyovdan yosh jihatdan katta bo'lgan ayol jinsiga mansub shaxsga nisbatan shevada atash ma'nosida *qaynopa*, murojaat ma'nosida opa, ayrim hududlarda *ežä (eja), eže (eje)* terminlari qo'llanadi.

Qayin va **ini** so'zlari birikuvidan hosil bo'lgan *qayinini* termini kelin va kuyovdan kichik bo'lgan o'g'il ukalarga nisbatan shevada *qajnukä (qaynuka)* tarzida atash ma'nosida qo'llanadi.

Qayin singil - kelin va kuyovdan kichik yoshdagi ayol jinsiga mansub shaxs, shevada kuchli fonetik hodisaga uchrab, **qajnsinim** (*qaynisinim), qajnisinisi (qaynisinisi)* tarzida ataladi.

Qipchoq lahjasi vakillarining nutqida o'zidan kichik bo'lgan qayin singil va qayin ukalarning ismi hurmat ma'nosida aytilmaydi. Oilaga birinchi bo'lib tushgan kelin tomonidan ulardagi mavjud birorta sifat *qiz, bola* so'zlarining avvalidan qo'shib aytiladi: *dono qiz, chevar qiz, usta bola, kichkina bola tarzida* yoki *ey bola, ey qiz* tarzida tergab chaqiriladi.

Tadqiqot ishi olib borilayotgan hududda **bāldiz** *(boldiz)* leksemasi ham er (xotin) ning singlisi degan ma'noni bildiradi [Xolmonova 2002: 26]. Ammo ushbu leksemani bugungi kunda faqat ulug' yoshdagi insonlar nutqidagina uchratishimiz mumkin. Shuning uchun ham *boldiz* qo'llanish doirasi qisqarib borayotgan leksemalardan biridir.

Pochcha opaning eri ma'zmunini beruvchi ushbu so'z bilan bir qatorda shevamizda **žezde** *(jezde),* **žezdä** *(jezda)* leksemalari ham qo'llanadi. Ma'lumot sifatida aytib o'tish joizki, *pochcha* leksemasi Chimkent shevalarida *damad* [Ashirboyev 2021:79], jizzax, qashqadaryo she-

[1] Исмаилов И. А. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 138.
[2] Turdialiyev A. Denov shevasini areal o'rganish va til korpusiga joylashtirish. Diss.PhD. – Toshkent, 2023. – B. 63.
[3] Бобурнома. – 417.
[4] Хумоюннома. – Б. 40, 45.
[5] Саидова М. Наманган шеваларида қариндошлик терминларининг лексик-семантик таҳлили. – Тошкент, 1995.

valarida *žezde (jezde),* Surxodaryo shevalarida *žeznä (jezna),* Navoiy shevalarida *jäznä (yazna)* leksemalari qo‘llanadi.

Xulosa qilib aytganda, leksikaning asosiy qatlami bo‘lgan, biz deyarli har kuni kundalik hayotimizda qo‘llaydigan qarindosh-urug‘ leksemalarining boshqa shevalar bilan umumiy jihatlari ko‘p bo‘lsa ham, bir-biriga o‘xshamas farqli o‘rinlar talaygina. Tilning asosiy manbayi bo‘lmish ona tilni (shevani) o‘rganish, undagi xilma-xilliklardan nutqda maqsadli foydalanish uning ifoda ko‘lamini kengaytirishga va umrining uzoq bo‘lishiga yordam beradi.

Rezyume. Ushbu maqolada bugungi kunda janubi-sharqiy Andijon hududida qo‘llanuvchi ayrim qarindosh-urug‘chillikka oid so‘zlarning qo‘llanishi haqida fikr yuritiladi.

Resume. This article discusses the use of some kinship-related words used in the southeastern Andijan region today.

Резюме. В данной статье рассматривается употребление некоторых родственных слов, используемых сегодня в юго-восточной Андижанской области.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 6
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ETNIK ARABLAR SHEVASIDA KELISHIK KATEGORIYALARI (Samarqand viloyati Ishtixon tumani misolida)

RAJABOVA SADOQAT RASUL QIZI,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasi tayanch doktoranti

O'zbek shevalarida kelishiklar soni turlicha ko'rinishda uchraydi. Buning tub mohiyati tilning taraqqiyot bosqichlariga borib taqaladi. O'zbek tilining ilk taraqqiyot bosqichlarida kelishiklar soni 6-7 ta deb ko'rsatilgan. "Eski o'zbek tilida asosan oltita kelishik bo'lgan: *bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, jo'nalish kelishigi, o'rin-payt kelishigi, chiqish kelishigi*. Eski o'zbek tili tarqqiyotining oldingi davrlarida yettinchi kelishik *vosita kelishigi* ham iste'molda bo'lgan".[1]

Kelishiklar haqida S. Ashirboyev "…turkiy tillarning dastlabki taraqqiyot davrida 7 ta kelishik shakli bo'lgan, hozirgi o'zbek adabiy tilida 6 ta kelishik shakliga asoslanadi. O'zbek shevalarida esa ba'zan bu raqam to'rttagacha kamayishi mumkin. Faqat qipchoq hamda shimoliy o'zbek shevalarida 6 ta kelishik shakli to'liq saqlanadi. O'g'uz lahjasining aksariyat shevalarida, Toshkent, Farg'ona shevalarida 5 ta kelishik qo'llanadi, ya'ni qaratqich va tushum kelishiklari bir ko'rsatkich bilan ifodalanadi. Qarshi, Buxoro, Surxondaryoning "j" lovchi shevalarida 4 ta kelishik qayd qilinadi, ya'ni qaratqich va tushum kelishiklari bir xil ko'rsatkich bilan, jo'nalish va o'rin-payt kelishigi bir xil ko'rsatkich bilan ifoda qilinadi"[2]

"..qarluq va ayrim o'g'uz shevalarida qaratqich kelishigi va tushum kelishigi bir xil (-ni…) ko'rsatkichiga ega bo'lib, formal jihatdan farqlanmaydi. Shunga asoslanib V.V. Reshetov 1951-yilda Toshkent, Farg'ona tipidagi shevalarda yagona qaratqich-tushum kelishigi mavjud deb ko'rsatgan edi" [3].

Shuningdek, shevashunoslarimiz A.Shermatov, B.Jo'rayev, T.Qudratovlar Qarshi, Shaxrisabz, Yuqori Qashqadaryo kabi shevalarda to'rtta – bosh kelishik, qaratqich-tushum, jo'nalish-o'rin-payt hamda chiqish kelishigi borligini ko'rsatadilar. O'zbek shevalaridagi kelishiklarni maxsus tadqiq etgan M. Shoinoyatova Samarqand, Buxoro, Qarshi, Kattaqo'rg'on, Janubiy Tojikiston (qarl) shevalarini to'rt kelishikli; Toshkent, Namangan, Andijon, Qo'qon, Pop, Jizzax, O'sh, Mamkent singari shevalarda esa besh kelishikli shevalar deb aytadi[4].

Samarqand shevasini o'rgangan olim N.Rajabov kelishiklar to'g'risida quyidagi fikrlarni bildiradi: " G'arbiy Samarqand shevalarida ham hozirgi o'zbek adabiy tilidagi singari 6 ta kelishik mavjud bo'lib ularning 5 ta grammatik ko'rsatkichi bor. Qarluq-chigil-uyg'ur gruppasiga kiruvchi shevalarda kelishiklar 4 ta ko'rsatkichga egadir. Bu shevalarda qaratqich va tushum kelishiklari bir formada, ya'ni tushum kelishigi formasida qo'llanadi.

O'g'uz lahjasida ham qaratqich va tushum kelishiklarining formalari ko'pgina hollarda bir shaklda qo'llaniladi. Faqat ayrim paytlardagina ularning bir – biridan farqlanishi ko'zga tashlanib turadi."[5]

Biz tadqiq qilayotgan Samarqand viloyati Ishtixon tumanida yashovchi o'zbeklashgan etnik arablar shevasida (keyingi o'rinlarda sheva tarzida ifodalanadi) kelishiklar soni 6 ta bo'lib, 5 ko'rsatkichli hisoblanadi.

[1] Абдураҳмонов Ғ, Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Toshkent, 1973. – Б. 35.

[2] Ashirboyev S. O'zbek dialektalogiyasi. – Toshkent, 2021. – B. 50.

[3] Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Toshkent, 1984. – Б. 35.

[4] Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Toshkent, 1984. – Б. 35.

[5] Ражабов Н. Ғарбий Самарқанд шевалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 42.

T/r	Kelishiklar	Qo‘shimchalar
1	Bosh kelishik	–
2	Qaratqich kelishigi	*-ni, -nï, -ti, -tï, -di, -dï, -i, -ï*
3	Tushum kelishigi	*-ni, -nï, -ti, -tï, -di, -dï, -i, -ï*
4	Jo‘nalish kelishigi	*-gä, -kä -qa, -ya*
5	O‘rin-payt kelishigi	*-da, -dä, -ta, -tä*
6	Chiqish kelishigi	*-dan,-dän, -tan, -tän, -nan, -nän*

Bosh kelishik. Ushbu kelishik hech qanday ko‘rsatkich bilan ifodalanmaydi. Gapda quydagi gap bo‘laklari vazifasida qo‘llanadi.

Ko‘pincha ***ega*** vazifasini bajaradi.

*Hāzirgi šärejit minän ovalγi **šärejit** toγrï kemejdi. / Hozirgi sharoit bilan avvalgi **sharoit** to‘g‘ri kelmaydi.*

Bosh kelishikda ega vazifasini bajargan so‘zlar egalik, ko‘plik qo‘shimchalari bilan ham keladi.

*Damxoğadan Kätäqorγānγača ašuni **ādamlar** qāzib bārγan. / Damxo‘jadan Kattaqo‘rg‘ongacha ana shuni **odamlar** qazib borgan*.

*Ālmiš üč jāšidä **ātam** ālamdan ötdi. / Oltmish uch yoshida otam olamdan o‘tdi.*

***Enäm** bečärä kečqurunlari manovča nān qolimizda betip uxlap qāγanman dejäjdi. / **Enam** bechora kechqurunlari mana buncha non qo‘limizda bunday qilib uxlab qolganman deydi*

*Deqān āšijam hālisädäj **gäp.** / Dehqon oshi ham halisaday gap.*

Bosh kelishikdagi so‘z kesim vazifasida kelganda kesimlik qo‘shimchasi –dir qo‘llanmaydi.

Qaratqich kelishigi. O‘zbek shevalari qaratqich kelishigi qo‘shimchasi turli xil variantlarga ega. “…o‘zbek shevalaridagi qaratqich kelishigi affiksining to‘liq va to‘liqsiz ko‘rsatkichlari quyidagidek besh gruppadan iborat:

1. *- ның // -ниң /-нуң //-нүң; - дың // -диң (-дуң //-дүң); - тың // -тиң (-туң //-түң); - зың // -зиң, - йың // -йиң, - лың // -лиң.*

2. *- ың // -иң (-уң).*

3. *-нъ,-дъ, -тъ, -зъ, -лъ, -мъ,-въ,-гъ, -ғъ, -джъ(-жъ), -йъ, -къ, -қъ, -нъ, -дпъ, -ръ, -съ, -хъ, -ҳъ, -чъ,-шъ.*

4. *–и // -ъ // -ы.*

5. nol forma.”[1]

[1] Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Toshkent, 1984. – Б. 41.

Ishtixon tumani etnik arablar shevasida qaratqich kelishigi va tushum kelishigining ko‘rshatkich shakli deyarli bir xil *-ni, -nï, -ti, -tï, -di, -dï, -i,-ï* affikslari bilan ifodalanadi. Gapda gap bo‘lagi siftida aniqlovchi vazifasini bajarib keladi. Shevada qaratqich kelishigi belgili va belgisiz shaklda qo‘llaniladi.

Qaratqich kelishigining ***-ni, -nï*** shakli orqali ifodalanishi:

…ana šu ***arïxtï*** heč kim qāzmaγan birinči ***hässäni*** izidän sü Boranxoğa buvaγača ketip-ketkan ... / ana shu ariqni hech kim qazimagan birinchi ***hassaning*** izidan shu Bo‘ronxo‘ja buvagacha ketip-ketgan…

Paxtanï bāšïγa sevāsilär dejdi, ***māldi*** nurisini arqamizga köta vālejdïq, išänsäŋ. / ***Paxtaning*** boshiga sepasilar deydi, ***molning*** nurisini orqamizga ko‘tarib olar edik ishonsang.

Qaratqich kelishigining ***-ti, -tï*** shakli orqali ifodalanishi:

*Šünnej **üjimisti** äjvānidä u pilä päsmäkkänä üjlär boγan ajvān bārïdï hämmä erkaklar anovlar jïγïlïb šetïp enäm jïγlap jāptï. / Shunday **uyimizning** ayvonida u payt pastmakkina uylar bo‘lgan ayvon bor edi, hamma erkaklar yig‘ilib, shunday qilib enam yig‘lab yotibdi.*

Qaratqich kelishigining ***-di, -dï*** shakli orqali ifodalanishi:

***Ozimdi** häjätimni äjtäjdim. / **O‘zimning** hayotimni ajtar edim.*

*Aqa bārdïq bizär Näzäk **māmalardi** āldidan qajttïq. / U yoqqa bordik bizlar Nazak **momolarning** oldidan qaytdik.*

Qaratqich kelishigining ***-i, -ï*** shakli orqali ifodalanishi:

*Čarčamajabsizmi, dimāγlarïŋïz čāγma, sāγlïqlarïŋïz jaxšimi, **ozïmizi** qïšlaxtï qïzlarida-jakanku. / Charchamayabsizmi, dimog‘laringiz chog‘mi, sog‘liqlaringiz yaxshimi, **o‘zimizning** qishloqning qizlaridek ekan-ku*.

Qaratqich kelishigi belgisiz qo‘llanganda qaralmish orqali savol berib tiklanadi. Masalan,

***Tāvuq göši** sāliš šartmi? // **Tovuqning go‘shtini** solish shartmi?*

Ushbu misolda “***Tāvuq göši***” “nimaning go‘shti?” “tovuqning go‘shti” tarzida ifodalangan.

Ba’zi o‘rinlarda qaratqich ham, qaralmish ham ifodalanmaydigan holatlar ko‘zga tashlanadi. Bun-

day shaklarda ushbu birikmalar bitta yaxlit tushunchani ifodalab keladi.

Halvājtardi mājdi qïzitasan, ***ziγir māj*** *sālasan, āx māj sālasan, unigä änāv buγdäj unni sāb qāvurdi.*

Belgisiz qo‘llanganda ayrim o‘rinlarda kelishik shakli tushub qolib unlini cho‘zish orqali uning vazifasi shakllantiriladi.

Hä bürük-sürük kejib keppidi ***me: qïzïmγa*** *oxšab*.

Bu o‘rinda ***me: qïzïmγa // mening qizimga*** -ning qaratqich kelishigi tushurilgan va uning vazifasi unliga tushirilib unli ikkilamchi cho‘ziqlikda talaffuz qilinadi.

Tushum kelishigi. Shevada ushbu kelishik shakli qaratqich kelishigi bilan bir xil shaklda bo‘ladi *-ni, -nï, -ti, -tï, -di, -dï, -i, -ï* qo‘shimchalari. Ushbu kelishik ham bilgili va belgisiz qo‘llanadi. Gapda to‘ldiruvchi vazifasida keladi.

Tushum kelishigining ***-ni, -nï*** shakli orqali ifodalanishi:

Nimäni *bāšläj? // Nimani boshlay?*

Anšu kälxāz ***dövirlärin****i gäpirivuriŋ.// Ana shu kalxoz davrlarini gapiravering.*

Tushum kelishigining ***-di, -dï*** shakli orqali ifodalanishi:

buγdejdi *juvasan // bug‘doyni yuvasan*

Mājdi *qizdirädi,* ***is*** *piširvāladi tus sāmäj. //* ***Moyni*** *qizdiradi,* ***isni*** *pishiradi tuz solmasdan.*

Tushum kelishigining ***-ti, -tï*** shakli orqali ifodalanishi:

Isti *piširvāb turib, kejin suv sāvāradi. //* ***Isni*** *pishirib turib, keyin suv solib yuboradi.*

Gäpti *bāšläŋ.//* ***gapni*** *boshlang*

Tushum kelishigining ***-i, -ï*** shakli orqali ifodalanishi:

Šu ***qolimi*** *reŋin qïldirib keldim.// Shu* ***qo‘limni*** *rengin qilirib keldim.*

Tushum kelishik shaklining belgisiz ifodalanishi:

Paxta terdik, qurt bāxtik. // Paxtani terdik, qurtni boqdik.

Āldin māj sāladi. // Oldin moyni solidi.

Jo‘nalish kelishigi. Shevada bu kelishik uchun *-gä, /-kä -qa, -γa* affikslari qo‘llaniladi.

Jo‘nalish kelishigining ***-gä*** shakli orqali ifodalanishi:

Bālälärimgä *ertäk ajtejdim. //* ***Bolalarimga*** *ertak aytar edim.*

...zāldärini bir bova ***ikkovmizga*** *terip āpqojejdïq. // ...zaldori(o‘rik)ni bir bobo* ***ikkalamizga*** *terib olib qo‘yar edik.*

Jo‘nalish kelishigining ***-qa*** shakli orqali ifodalanishi:

Šaxta düvdï ***ejaqa*** *bārdïq. // Shu yoqda degan edi u* ***yoqqa*** *bordik.*

Otiŋ, otiŋ ***manjaqqa*** *otïŋ. // O‘ting, o‘ting mana bu* ***yoqqa*** *o‘ting.*

Jo‘nalish kelishigining ***-kä*** shakli orqali ifodalanishi:

Eläkkä *čïqqan äjäldi ellik āγïz gäpi bār. //* ***Elakka*** *chiqqan ayolni ellik og‘iz gapi bor.*

Jo‘nalish kelishigining ***–γa*** shakli orqali ifodalanishi:

Hāzir men toqsan ***āltiγa*** *kirjäppän. // Hozir to‘qson* ***oltiga*** *kiryapman.*

Parxāt ***känälïγa*** *ketkän. // Farhod* ***kanaliga*** *ketgan.*

Ātlarγa, māllarγa *jemiš joq. //* ***Otlarga, mollarga*** *yemish yo‘q.*

O‘rin-payt kelishigi. Bu kelishik ***–da /-dä, – ta /-tä*** affikslari bilan ifodalanadi.

O‘rin-payt kelishigining ***–da/ -dä*** shakli orqali ifodalanishi:

…āčarčiliγda *erkäklär urišgä ketkän…// …* ***ocharchilikda*** *erkaklar urushga ketkän…*

O‘rin-payt kelishigining ***–ta/ -tä*** shakli orqali ifodalanishi:

Punkitta *išläjidi. //* ***Punkitda*** *ishlar edi.*

Chiqish kelishigi ***-dan, / -dän, -tan / -tän, -nan / -nän*** affikslari bilan ifodalanadi.

Chiqish kelishigining ***–dan/ -dän*** shakli orqali ifodalanishi:

Mäjäkvāj tumälab ketuviribdi-ketuviribdi ***āldidän*** *nimä čïqsä jejmän dep jipti. / Mayakvoy dumalab ketaveribdi-ketaveribdi* ***oldidan*** *nima chiqsa yeyman dep yepdi.*

Mäqälladan *äjtiŋ, mäqäl. /* ***Maqollardan*** *ayting, maqol.*

Chiqish kelishigining ***–nan/ -nän*** shakli orqali ifodalanishi:

…unnan **kokargännan** *kejin tujib-tujib, siγib sumalakti un minan aralaštirib qäjnatasan. //…*

undan ko‘kargandan *keyin tuyib-tuyib siqib sumalakni un bilan aralashtirib qaynatasan*

Kätäqoryannän *keginča ikki māšin tarini täläb ketkän //* ***Kattaqo‘rg‘ondan*** *kelguncha ikki moshin tarixni talab ketgan.*

Bu deqānčilïqlar ***qozyalgannan*** *kejin ekiš vāxti* ***bogännän*** *kejin permirlär hämma nersä beradi. // Bu dehqonchiliklar* ***qo‘zg‘algandan*** *keyin ekish vaqti* ***bo‘lgandan*** *keyin fermerlar hamma narsa beradi.*

Chiqish kelishigining ***–tan/ -tän*** shakli orqali ifodalanishi:

Iš ištaxa āchar, dänkäsä ištän qāčar. / Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar.

Samarqand viloyatining Ishtixon tumanida yashovchi etnik arablar shevasida kelishiklar 6 kelishikli 5 ko‘rsatkichli hisoblanadi. Shevada qaratqich va tushum kelishigi deyarli bir xil ko‘rsatkichlar bilan ifodalanadi. O‘zbek shevalarida ushbu jarayonga ko‘pgina olimlarimiz o‘z tadqiqotlarida turli fikrlarni bildirib o‘tishgan.

Xususan, Samarqand viloyati shevalarini tadqiq qilgan olim N. Rajabov “Qipchoq guruppa shevalarida ham kelishiklarning soni 6 ta bo‘lib, ular uchun 5 ta ko‘rsatkich mavjuddir. Ba’zan bu shevalarda ham qaratqich va tushum kelishiklari affikslarining bir xil xarakterga ega bo‘lish holatlarini kuzatish mumkin. Lekin ulardagi formalar to‘liq ravishda biri ikkinchisining o‘rnida hamma vaqt qo‘llanila olmaydi”, – deydi.[1]

Olimlarimiz Y. Gulyamov, N Gafurova, B.Jurayev, I.Farmonov, O.Sharipov, S.Tulyakov, Sh. Nasirov, S.Ibrohimov kabi olimlar tushum va qaratqich kelishigini ifodalovchi shakl bitta ekanligini ta’kidlab o‘tishadisa, Sh. Shoabdurahmonov “Qaratqich va tushum kelishiklari uchun bitta, yagona forma emas, balki ikkita omonim formadir”,[2] – deb ta’kidlab o‘tadi.

Olimlarimizning tadqiqotlarini qiyoslagan holda xulosa qilar ekanmiz etnik arablar shevasida qaratqich va tushum kelishigi shakllari ayni bir shakl emas, biri o‘rnida biri qo‘llana olmaydigan ommonim affikslar hisoblanadi. Ishtixon tumanida istiqomat qiluvchi etnik arablar shevasida ***-ni, -nï, -ti, -tï, -di, -dï, -i, -ï, -gä, /-kä -qa, -ya, –da /-dä, –ta /-tä, -dan, / -dän, -tan / -tän, -nan / -nän*** *kabi kelishik shakllari faol qo‘llanadi.*

Rezyume. Samarqand viloyati Ishtixon tumanida arab qishloqlarida istiqomat qiluvchi arablar asosan o‘zbek tilining qipchoq lahjasida so‘zlashadi. Ba’zi o‘rinlarda qarluq lahjasining ham ta’siri sezilib turadi. Aholining shevasida kelishik kategoriyalari va ularning ishlatilish o‘rinlari tadqiq etilgan.

Resume. Arabs living in Arab villages in Ishtikhon district of Samarkand region mainly speak the Kipchak dialect of Uzbek. In some places, the influence of the Karluq dialect is noticeable. The categories of agreement and their places of use in the dialect of the population have been studied.

Резюме. Арабы, проживающие в арабских селах Иштиханского района Самаркандской области, в основном говорят на кипчакском диалекте узбекского языка. Кое-где заметно влияние каралукского диалекта. Изучены категории согласия и места их употребления в говоре населения.

[1] Ражабов Н. Ғарбий Самарқанд шевалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 42.
[2] Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент, 1984. – Б. 35.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2024; 6
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SAVDOGAR NUTQI LEKSIKASI HAQIDA

To'raliyev Baxodir Erali o'g'li,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Til va nutqning paydo bo'lishi ijtimoiy jamiyatdagi o'zaro aloqa jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir. Shu sabab til birliklarining paydo bo'lishi, shakllanishi, yashashi, rivojlanishi insonlarning o'zaro munosabati doirasida faoliyat ko'rsatadi. Ma'lumki, tilshunoslik bo'yicha qarashlar antik davrlardan mavjud bo'lsa-da, XIX asrning birinchi choragida alohida mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Shubha yo'qki, til o'rganish sohasi boshqa fanlar kabi tadqiqotlar, tajribalar, izlanishlar, g'oyalar, kuzatishlar, tahlillar natijasi sifatida o'zining alohida o'rganish obyektiga va tekshirish metodlariga ega bo'lgan fan hisoblanadi. Hattoki, tilshunoslikni murakkab, ilmiy, falsafiy, ijtimoiy fan desak xato bo'lmaydi. Tilshunoslik fani bugungi taraqqiyot bosqichiga kelgunga qadar uch ming yillik tarixiy taraqqiyotni boshdan o'tkazdi. Har bir tilning leksik tarkibi uning ulkan boyligi sanaladi. Tillar doimiy o'sish va rivojlanish bosqichida bo'ladi. Inson kishilik jamiyatida yashar ekan, ma'lum kasb-hunar doirasida faoliyat yuritadi. Har bir kasb-hunar vakili o'z nutqi jarayonida oddiy so'zlashuv nutqidagi so'zlar bilan bir qatorda shu kasb-hunar bilan bog'liq maxsus leksikadan ham foydalanadi. Tilda uchraydigan leksik birliklar inson tafakkuri va borliq haqidagi qarashlarining ongdagi aksi bo'lib, jamiyatning rivojlanishi bilan takomillashadi yoki yo'qolib boradi. Fan-texnika taraqqiyotida turli sohalarda bo'layotgan inqilobiy o'zgarishlar davrida nutqimizdagi ko'plab sof turkiy leksema, ibora va maqollar unut bo'lib ketmoqda. Ularning o'rnini eksperssivlik va bo'yoqdorlik funksiyasi bo'lmagan birliklar egallamoqda. Ushbu til birliklarini lingvistik jihatdan o'rganish va ilmiy tahlil qilish, lug'atlashtirish muhim ahamiyatga ega. Fikrimiz tasdig'i sifatida Lionella Lubojeva fikrlarini ilova qilamiz: "Professional leksikaning maqomi hali to'liq aniqlanmagan, maxsus leksikaning umumiy adabiy tilga ta'sirining tabiati ochib berilmagan. Ushbu muammolarga qiziqish ortib borayotganiga qaramay, tilshunoslar o'rtasida terminologik leksika haqida umumiy tushuncha mavjud emas. Umumiy nutqda kasbiy leksika birliklarining yuqori faolligi maxsus birliklarning umumiy adabiy til qatlamlariga kirib borish mexanizmini, sodda ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan ularni idrok etish va ishlatish xususiyatlarini tavsiflash va tahlil qilishni talab qiladi[1]. Shunday sohalardan biri savdogarlik leksikasi haqida quyida to'xtalib o'tamiz.

Kishilik jamiyatining turli bosqichlarida savdo va uning turlari turlicha shakllarda amalga oshirilgan. Dastlab savdo tovar ayirboshlash tarzida, keyinchalik ma'lum tartib-qoidalarga asoslangan ko'rinishda amalga oshirilgan. Qadimiy bozor shakllariga misol sifatida chorva mollari va dehqonchilik mahsulotlari sotiladigan bozorlarni keltirish mumkin. Ushbu bozorlardagi sotuvchi va oluvchi, dallolning o'ziga xos leksikasi mavjud. Ular foydalanadigan leksika sofligini yo'qotmagan, tilning haqiqiy jilosini o'zida saqlab turgan birliklardandir. Jonli nutqda faol leksikani tahlil etish hamda o'rganishga XX asrning 20-yillardayoq e'tibor qaratilgan. O'sha davrlarda ilm-fan sohasida katta inqilob yasagan jadidlardan biri Abdurauf Fitrat o'zbek tilining imkoniyatlarini sinchiklab o'rgangan va o'zbek tilining qoidalarini yaratgan. Tilga oid qarashlarini "Sarf" va "Nahv" asarlari orqali bizga qoldirgan. Tilning ichki xususiyatlarini va tarkibini jiddiy tahlil qilgach shunday fikrga kelgan: "…Bilamizki, bizning shaharlarimiz yuzlab yillardan biri arab, forsi(y) adabiyotining hukmi ostida yashaydir. Shuning uchun bizda shahar tili buzulg'andir. Tilimizning sof shaklini daladag'i el-aymoqlarim-

[1] Лубожева Л.Н. Роль профессиональной лексики в обогащении словарного состава общеупотребительного языка: на материале экономической терминологии английского и русского языков: Дисс. канд. фил. наук. –Челябинск, 2006. – С. 204.

izda ko‘ra olamiz. Dalada yashag‘an el-aymoqlarimiz orasida unlaring jon ozug‘i bo‘lib turg‘an dostonlar, ertaklar, matallar, laparlar, ashulalar, qo‘shiqlar bor. Shunlaring hamasini buyuk bir diqqat bilan xalq og‘zidan chiqqani kabi yozib olish kerak”[1]. Fitrat tomonidan bu fikrlar bilirilganiga ham bir asrga bo‘ldi. Darhaqiqat, Shahar markazlarida joylashgan bozor oralab yuqorida e’riof etilgan “jon ozug‘lari” ni topish mumkin emas. Buning uchun shahar chetlaridagi va qishloqlarda joylashgan bozor va hududlar leksikasini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

So‘nggi vaqtlarda tilshunoslikning amaliy sohalariga e’tibor kuchaydi va shu yo‘nalishlarda tadqiqot ishlari ko‘paymoqda. Biroq ijtimoiy munosabatning asosiy shakli bo‘lgan jonli muloqot nutqi to‘liq o‘rganilganicha yo‘q. O‘zbek tilshunosligida “Nutq madaniyati” alohida fan sifatida shakllangan, “Ortologiya” bo‘limi mavjud, ammo sohaviy nutq bo‘yicha qilingan ishlar sanoqli. Bugunga qadar nutq sohasida B. Husanov, V. G‘ulomov, J. Omonturdiyev, A. Omonturdiyev, E. Begmatov, M. Tursunpo‘latov, M. Yo‘ldoshev, Q. Yadgarov[2] kabi tilshunoslar izlanishlar olib borishgan, darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishgan. Sohaviy nutqqa oid dastlabki tadqiqotlarni Nizomiddin Mahmudov[3], Suyun Karimov[4] kabi taniqli tilshunoslar boshlab bergan.

Savdo jarayoni murakkab jarayon bo‘lib, sotuvchi va xaridor o‘rtasida ma’lum ijtimoiy talablarga asoslangan muloqot bo‘lib o‘tadi. Ma’lumki, dastlabki bozorlar bo‘lmagan. Ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi natijasida keyinchalik ochiq osmon ostida, yoyma rastalarda, xaridorni chaqirib oldi-sotdi amalga oshirilgan. Sotuvchi xaridor diqqatini mahsulotiga qaratish uchun sotiladigan narsaning xususiyatlarini maqtagan, ya’ni jonli reklama qilgan. Sotuvchi nutqi mubolag‘aviy va ishontiruvchi xarakterda bo‘ladi. Savdo sohasi vakillarining nutqida o‘ziga xos so‘zlar, terminlar, jargonlar, frazeologik birliklar, paremiologizmlar mavjud. Bu birliklar faqatgina jonli so‘zlashuv nutqidagina qo‘llanib, adabiy tilda deyarli ishlatilmaydi. Bu soha vakillarining nutqini quyidagicha guruhlarga bo‘lish mumkin:

a) sotuvchi nutqi;

b) xaridor nutqi;

c) dallol nutqi.

Sotuvchi nutqida ishlatiladigan leksik qatlam juda qadimiy bo‘lib, ushbu soha faoliyat turining ma’lum o‘zgarishlarga yuz tutishi natijasida arxaiklashmoqda. O‘zbek tilshunosligida ushbu sohaga doir leksikani saqlash, ularning lingvomadaniy, pragmalingvistik xususiyatlarini tahlil qilish uchun xaridor va sotuvchi, sotuvchi va dallol nutqining o‘ziga xos jihatlarini lingvistik jihatdan o‘ganish zarurati mavjud.

Savdogar nutqining o‘ziga xos xususiyati ular nutqida asosan ta’sirchan evfemik birliklar qo‘llanadi. Mol bozorda sotuvchi moliga qat’iy narx aytmasdan, savdoni ***so‘rang-so‘rangdan*** boshlaydi: “Mol savdosi bilan bog‘liq muomala jarayoni birmuncha murakkab bo‘lib, o‘ylab-o‘ylamay aytilgan bir so‘z yoki gap oluvchini ham, sotuvchini ham omad va omadsizligiga sabab bo‘lishi mumkin. Avvalo, sotuvchining qimmat aytishi, oluvchining arzon so‘rashi bozor muomalasining o‘ziga xos xususiyatidir.

Odatda, oluvchi sotuvchidan molning narxini so‘raydi, sotuvchi molning narxini birdaniga **“faloncha”** yoki **“buncha”** deb qimmat aytib, xaridorni cho‘chitib qo‘ymaslik maqsadida: **o‘zingiz so‘rang, o‘zingiz ayting, o‘zinggiz tilang, qanchaga olasiz, qancha berasiz, qanchaga so‘raysiz, epga keltirib so‘rang** kabi evfemik xarakterdagi gaplardan foydalanadi”[5]. Keltirilgan misollar strukturasi sodda yig‘iq gaplardan iborat bo‘lib, savdo jarayonida, asosan, aniq va qisqa gap qurilmalaridan foydalanilishni ko‘rsatadi. Agar oluvchi narxni qayta-qayta so‘rayversa, sotuvchi bir narx aytishdan tiyilib s***izdan oldin savdo qil-***

[1] Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Manaviyat, 2009. – B. 141.

[2] Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati. Darslik. – Toshkent, 2009; Омонтурдиев Ж., Омонтурдиев А. Сўз қўллаш санъати – Термиз: Жайҳун нашриёти, 1994; Бегматов Э., Турсунпўлатов М. Ўзбек нутқи маданияти асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991; Yo‘ldoshev M., Yadgarov Q. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2007.

[3] Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. Дарслик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009.

[4] Каримов С., Маматов Х., Бўриев И. Юристнинг нутқ маданияти. Ўқув қулланма – Тошкент: Зарқалам, 2004.

[5] Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси (чорвадорлар нутқи мисолида): Фил. фан. док. дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 134.

ganlar bunchaga so‘radi; oxirgi chiqqan narxi shuncha bo‘ldi; oxiri falon so‘mda to‘xtadi; falon so‘mga bermadik singari qurilmalar orqali o‘z maqsadini bildiradi. “…Agar sotuvchi xushmuomala bo‘lsa, savdosi kelishmaganda ham: Mol olishga kelganmisiz o‘zi? Molni bilasizmi? Hech mol olib ko‘rganmisiz? Siz ololmaysiz! Mol olish qo‘lingizdan kelmas ekan kabi dag‘al disfemik gaplar o‘rnida: **biroz savdomiz kelishmay turibdi; mayli, xohshingiz; mana bozor, bir aylanib ko‘ring; balki hali yana uchrasharmiz; savdomiz kelishib qolar** kabi evfemik vositalarni qo‘llaydi. Savdo jarayoni bunday nutqiy muomalani oluvchidan ham talab qiladi. **Qimmat, narxini oshirib aytayapsiz** gapi o‘rniga xaridor: **biroz tushing, balandlab ketdingiz, shekilli; oslab ketdingiz, baland aytdingiz, oshib ketdi, nazrimda** kabi yumshoq iboralarni qo‘llaydi…”[1]. Agar shunday jumlalardan keyin ham savdoda kelishuvga erishilmasa, sotuvchilar: **insof bilan so‘rang-da, akajon (ukajon, tog‘ajon, amaki); ozroq chiqing; hali ozroq bor; hali mol narxiga yetmadiz** kabi qoliplashgan murojaatlardan foydalanishadi. Savdoning yozilmagan qonuni – xaridor arzon olishni, sotuvchi qimmat sotishni istaydi. Shuning uchun mijozlat ham imkon qadar arzon olish maqsadi bilan **xayr barokasi uchun biror narsa o‘ting**; **chek pulini o‘tib bering; yo‘l pulini (moshin pulini, odatda) o‘tib bering; bering endi baraka topay; odamdan mol qadrli emas** kabi gaplardan bilan savdoni davom ettirishadi. Yuqoridagi misollar tarkibida qarindoshlikni ifodalovchi undovlar faol ishlatilgan. Undovlarni ishlatishdan maqsad mijozni o‘ziga yaqin tutish, unga xayrixoh ekanligini sezdirish, u bilan oldi-sotdi qilish istagi borligini bildirishdir. Bu bozorlarning boshqa bozorlardan (zamonaviy bozorlar) bir farqli jihati unda – asosan erkaklarning savdo qilishidir. Shu sababdan ham ishlatiladigan iboralar, leksemalar gender jihatdan farqlanadi. “Odatda, savdo bitimi – oldi-sotdidagi kelishuv **bor baraka qilindi, barakasi berildi, shirinkoma berildi, qo‘l tashlandi, qo‘l olindi, lafz qimmat, va’da vafosi bilan** kabi evfemik iboralari orqali anglashiladi. Har ikki tomon nutqida ham bir-biriga nisbatan: **baraka toping, to‘ylaringizga ketsin, yaxshi kunlaringizga buyursin** kabi olqish vositalari qo‘llaniladi”[2]. Bu fikrlarga qo‘shimcha qilgan holda yana aytish mumkinki, **moldan baraka toping, puldan baraka toping, yaxshilikka ishlating, yaxshilikka xizmat qilsin** kabi ezgu mazmunli maqtov va alqovlar ishlatiladi. Bunday qoliplashgan maqtovlarning doimo ishlatilishi e’tiqodiy qarashlar bilan bog‘liqdir.

Hozirgi globallashuv davrida savdo va uning turlari ham o‘zgarib bormoqda. Shu bois yangi leksik birliklar va iboralar savdogar hamda oluvchi nutqida ham ishlatilmoqda. Masalan, kiyim-kechak sotuvchisi nutqida: **bir kiyib ko‘ring, kiyib ko‘rish bepul-ku (hazil tariqasida), kiyib ko‘ring, sizga juda yarashdi, boshqa ranglari ham bor, razmerlari (o‘lchamlari) bor, oling sifatiga kafolat beramiz, olavering maza qilib kiyasiz, turetskiy** (Turkiya mahsuloti degan mazmunda) **mahsulot** kabi qoliplashgan taklif va reklama mazmunli jumlalarni ko‘p eshitamiz. Xarid amalga oshirilgach, **yaxshi kunlarda kiying, qutli bo‘lsin, yetti kunda janda bo‘lsin**; agar poyabzal olingan bo‘lsa, **tepib-tepib kiying, tepkilab-tepkilab kiying**, **bosib-bosib kiying, ezib-ezgilab kiying** singari birikmalarga duch kelamiz. Yuqoridagi misollarning hammasi struktural jihatdan gap shaklida. Gaplar, asosan, sodda gaplar bo‘lib, kesimlari aniq nisbatda va buyruq-istak maylida shakllangan. Gaplar semantikasi xaridorlarga yaxshilik tilash, ezgu istaklar bildirish mazmunidan iborat. Rivojlanish va zamonaviy natijasida bozorlarda yangi servis ham vujudga kelmoqda. Saygaklik – shunday xizmatlardan biridir. Saygaklarning vazifasi – turli hududlardan sayohat uchun kelayotgan, xarid maqsadida bozor aylanayotgan kishilarni o‘zi bilan kelishuv amalga oshirgan sotuvchining rastasiga yoki do‘koniga boshlab borishdir. Ular bu xizmat evaziga ma’lum haq olishadi.

Xulosa qilib aytganda, savdo bilan bog‘liq jonli nutqni alohida guruhlashtirib o‘rganish tilimiz leksik zaxirasinining boyishi uchun katta man-

[1] Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси (чорвадорлар нутқи мисолида): Фил. фан. док. дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 135.

[2] Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси (чорвадорлар нутқи мисолида): Фил. фан. док. дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 135.

ba bo‘la oladi. Sotuvchi nutqida ancha eski birliklar uchraydi. Bunday birliklarni to‘plab sotuvchi nutqidagi leksika lug‘ati, xaridor nutqidagi leksika lug‘ati, dallol nutqidagi leksika lug‘ati kabi sohaviy lug‘atlar tuzish mumkin. Shu yo‘l bilan savdogar nutqidagi birliklarning kamayib ketishi xavfi bartaraf etiladi. Ular nutqidagi leksikaning pragmatik xususiyatlari misolida ham kichik tadqiqotlar qilish mumkin.

Rezyume: Ushbu maqolada qadimiy sohalardan biri sanalgan savdogar nutqi va uning lingvistik xususiyatlari haqida mulohaza yuritiladi. Ma’lum soha yoki kasbga tegishli nutq va uning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi hamda ahamiyati savdogar nutqining leksik-semantik xususiyati misolida ochib berishga harakat qilindi.

Resume: This article discusses merchant speech, which is considered one of the ancient branches, and its linguistic features. An attempt was made to reveal the speech related to a certain field or profession, its study in Uzbek linguistics, and its importance on the example of the lexical-semantic feature of the merchant’s speech.

Резюме: В статье рассматривается купеческая речь, считающаяся одной из древних ветвей, и ее языковые особенности. Предпринята попытка раскрыть речь, относящуюся к определенной сфере или профессии, ее изучение в узбекском языкознании, ее значение на примере лексико-семантической особенности купеческой речи.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 6
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

БАЗА ДАННЫХ ВСПОМОГАТЕЛЬНЫХ СЛОВ НАЦИОНАЛЬНОГО КОРПУСА УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Шамсудинова Ихбол,
преподаватель Термезского государственного университета

Задача служебных слов во всех языках – обеспечивать взаимодействие слов в речевом процессе. В узбекском языке грамматическая связь представлена вспомогательным словом и союзом, а загрузка значения в контекст выражается частицием. Учитывая, что корпус представляет собой большую совокупность текстов, Служебные слова в тюркских языках выполняют грамматическую функцию по раскрытию контекстуального значения лексемы в тексте и обеспечению живых и свободных связей. Чтобы определить значение служебных слов в корпусе, необходимо уточнить их языковую функцию в грамматике. Потому что еще есть проблемы, ожидающие исследования в вопросе описания и интерпретации служебных слов.

Исследователь А. Пардаев в своей исследовательской работе о роли служебных групп слов в языковой системе и лингвопрагматике акцентирует внимание на проблемах, связанных с этой группой слов, и резюмирует их следующим образом:

1) постоянная и непрерывная связь служебных слов с самостоятельными словами;

2) их классификация как промежуточных единиц между лексикой и грамматикой;

3) функциональное значение служебных групп слов связано с их местом и ролью в структуре предложения;

4) тот факт, что в содержательном анализе не было специального исследовательского источника единиц этой группы, а употребление служебных слов недостаточно анализировалось дискурсивными методами

Служебные слова помогают уточнить воздействие идеи на слушателя. По этой причине для изучения прагматики служебных слов в тексте важны и центральные понятия лингвистической прагматики, такие как речевое выражение, непредикативные слова, контекст, речевая ситуация, личность говорящего. В процессе соединения лексем и предложений служебные слова выражают разные смысловые отношения и могут придавать тексту разные прагматические, производные значения по требованию дискурса. Корпус, с другой стороны, полагается на текст как на объект для создания лингвистической базы. Поэтому функция служебных средств в тексте очень важна для КЛ (компьютерной лингвистики). К числу недискриптивных слов А. Пардаев относит, прежде всего, служебные слова[1].

Изучающий язык или корпусной работник обычно использует словосочетания, чтобы понять или объяснить значение текста. Этап синтаксического анализа машинного редактирования – самый сложный этап редактирования текста. Именно на этом этапе определяется значение служебных слов. Потому что основная задача этапа синтаксического анализа – определение места слов и их сочетания. Поэтому этот этап можно назвать этапом лингвистического анализа, а не этапом редактирования. В синтаксическом анализе основная цель – рассмотреть правила связи слов. Учитывая, что ML (машинное обучение) предоставляет все знания, полученные человеком, с помощью статистических алгоритмов, важна корректность моделей, включенных в искусственный интеллект. Грамматический анализ текстов (проверка грамматики) проверяет, грамматически правильна ли структура предложения введенного в компьютер текста. Для этого необходимо вводить комбинации предложений. Затем программа проверяет предложение внутри введенных нормативных сочетаний. Комбинации не могут быть соединены без служебных слов. В синтаксической среде невозможно выразить модели связи предложений и словосочетаний без

[1] Пардаев А.Б. Ёрдамчи туркумларнинг субстанциал ва прагматик хусусиятлари. Монография. – Тошкент, 2013. – 199 б. 101 с.

служебных слов и соединителей. Предложения и слова в тексте могут быть связаны грамматически при помощи предлогов или при помощи союза. Но их значения в разных соединениях различны. Это их главная особенность при формировании семантической базы данных. Если мы не поместим вспомогательное слово в контекст, то есть не создадим в корпусе модель выражения, то его смысловая особенность не проявится. Поэтому важно построить семантические модели служебных слов для корпуса. Модели очень важны для того, чтобы компьютер (машинное обучение) мог прочитать содержание вспомогательного слова в тексте. Потому что машинное обучение – это алгоритмы, которые превращают наборы данных в модели. Вся суть языка обеспечивается точностью и корректностью алгоритмов-моделей, представленных в машинном чтении. Поэтому обучение машины смысловой функции служебных слов является первостепенной задачей в раскрытии истинной сути любого текста.

Мы можем смоделировать семантические свойства служебных слов узбекского языка, используя международные символы, выбранные для машины, следующим образом:

Предлог (Ko‘makchi) –POST

Предлог <билан> (с) $POST_1$.

$POST_1$ (1) = <восита>, $POST_1$ (2) =<тарз>, $POST_1$ (3) = <биргалик>: *калит билан очди* (открыл ключом), *завқ билан ўқиди* (прочитал с удовольствием), *онам билан келишди* (пришли с мамой). В узбекском языке также включено правило о том, что вспомогательный <билан> стоит между существительными в виде союза <ва> (ы). То есть, если модель NOUN+POST+VERB, то она выступает в роли вспомогательного <*билан*>, а если NOUN+POST+NOUN, то она выступает в качестве союза < *va* >: *Мадина билан келди / Мадина билан Наргиза.*

Предлог <учун> (для) $POST_2$.

$POST_2$ (1) = <мақсад> (цель), $POST_2$ (2) = <сабаб>(причина), $POST_2$ (3) = <аталганлик> для кого): *ўқиш учун келди* (пришел учиться), *ўқигани учун ўқишга кирди* (он поступил, потому что учился), *онаси учун сотиб олди* (купил для своей матери).


На этом этапе также вводится две разные модели комбинации который обозначают одинаковый смысл <*онам учун олдим*> (Купил для мамы) <онамга олдим>:

1.<NOUN + $POST_2$ (3) + VERB>

2. <$NOUN_{dat}$ + VERB>

Остальные вспомогательные слова можно смоделировать таким же образом.

В программах автоматического перевода текста четко введенные модели служебных слов также помогают при построении словарей-**согласований.** В этом случае становятся ясными левая и правая связи слова. Такими связями являются нграммы (последовательности слов), 2-граммы (двухкомпонентные последовательности слов), 3-граммы (трехкомпонентные последовательности слов) и 4-граммы (словами называют последовательность четырех содержаний). Ниже приведена 3-граммовая привязка служебных слов <билан> на узбекском языке в программе Antconc (*рисунок №1*):



Частицы являющиеся третьим типом служебных слов, в словосочетаниях не участвуют. Но имеют и грамматическое значение, обозначающее различные отношения. Ш. Шохобидинова в своей исследовательской работе высказала следующее мнение: «Грамматические значения никогда не могут быть целью мышления, даже временно. Они выполняют такие задачи, как адаптация возникающих лексических единиц к реальным речевым условиям, «приклеивание» их к текстовым средствам, внесение дополнений в выражаемые лексические значения». Поэтому во всей научной литературе частицы определяются как средства, служащие для придания дополнительного значения словам и предложениям. Прежде всего, важную роль в выражении этих особенностей загрузок играет текст. Потому что эта особенность загрузок без текста не появляется. Итак, предложение, представляющее собой текст или его небольшую единицу, имеет важное значение в определении риторико-прагматических особенностей нагрузок. Они могут усложнять смысловую структуру предложения на синтаксическом уровне и очень активно указывать на пресуппозицию. Нагрузки – это средства, создающие различные предпосылки в различных речевых процессах. Частицы являются наиболее активной единицей, которая относится к языковой пресуппозиции и реализует ее в предложении или предложении, а их значения понимаются согласно прагматическим ситуациям[1].

Итак, ввиду отсутствия обязательного характера в загрузках, как сказала в корпусе исследователь Ш.Шахобиддинова, хорошим результатом является определение того, как загрузки «приклеивают» смысловые отношения к тексту, то есть как компьютер считывает эмоции, в относительно новой программной системе в науке КЛ – анализе настроений мы пришли к выводу, что это дает. Наши научные взгляды на SA (анализ тональности) и важность его использования в загрузках мы изучили в нашей работе под названием «Сентиментальный анализ в компьютерной лингвистике»[2].

Грамматическая характеристика и значение служебных слов в корпусе узбекского языка зависят от их правильного и точного моделирования. Эта группа слов может предоставить точные алгоритмические модели для формирования содержательных отношений в тексте и наложения на предложение различных эмоций.

Rezyume. Maqolada o‘zbek tili milliy korpusida yordamchi so‘zlar bazasining tutgan o‘rni va ahamiyati yoritilgan. ML (*machine learning*) da barcha bilimlar statistik algoritmlar bilan berilishi uchun sun’iy aqlga kiritilgan modellarda yordamchi so‘zlarning ma‘no tashuvchanlik xususiyati va boshqa grammatik vazifalari xalqaro teglarda modellashtirilishi haqida nazariy xulosalar berilgan.

Resume. The article describes the role and importance of the database of auxiliary words in the national corpus of the Uzbek language. In ML (machine learning), in order to provide all the knowledge with statistical algorithms, theoretical conclusions are given about the modeling of the semantic portability of auxiliary words and other grammatical functions in international tags in the models included in the artificial intelligence.

Резюме. В статье описывается роль и значение базы вспомогательных слов в национальном корпусе узбекского языка. В ML (машинном обучении) для обеспечения всех знаний статистическими алгоритмами даются теоретические выводы о моделировании семантической переносимости вспомогательных слов и других грамматических функций в международных тегах в моделях, входящих в состав искусственного интеллекта.

[1] Пардаев А.Б. Ёрдамчи туркумларнинг субстанциал ва прагматик хусусиятлари. Монография. – Тошкент, 2013 - 199 б. 111-s.

[2] Shamsudinova I. Sentimental analysis in computer linguistics //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C6. – C. 81-84.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2024; 6
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

OMONIMIK BIRLIKLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Rajabov Feruz Umarqulovich,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti akademik litseyi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab tilning ekspressiv-emotsional vazifasini o'rganishga e'tibor qaratilgan. Bu esa badiiy nutq tadqiqiga bag'ishlangan bir qator monografik tadqiqotlarning maydonga kelishiga sabab bo'ldi. Bunday tadqiqotlar tilning konnotativ vazifasini yoritishga, ijodkorning uslubini aniqlashga ma'lum darajada imkoniyat yaratdi. Natijada o'zbek lingvopoetikasining shakllanishi va rivojlanishiga zamin hozirlandi.

Badiiy til belgilangan qonun-qoida va normalarga bo'ysundirilgan adabiy tildan o'zining emotsional-ekspressivligi, so'zlarning semantik serqirraligi, tasviriy vositalar yordamidagi obrazlilik ko'lami kabi bir qator o'ziga xos jihatlari bilan farqlanib turadi. Afsuski, ana shunday o'ziga xoslikka ega bo'lgan, boy tadqiqotlar manbai sanalmish badiiy nutq o'zbek tilshunosligida hali-hanuz kam o'rganilgan sohalardan hisoblanadi[1].

Badiiy adabiyotda milliy tilning fikr ifodalashdagi bor imkoniyati to'laligicha namoyon bo'ladi. Bu jabhada ijodkorning so'z tanlay bilish, fikrni badiiy tafsillar yordamida obrazli ifodalash, til boyliklari va tasviriy vositalarni aks ettirish, umuman, betakror badiiy nutq yarata olish qobiliyati katta ahamiyatga ega.

Badiiy adabiyot shunday xususiyatlarga ega ekan, uni ham tilshunoslikning, ham adabiyotshunoslikning zarur o'rganish predmeti, deb qarash lozim. Chunki badiiy adabiyot tilini o'rganish har tomonlama juda foydalidir. Badiiy asar tahlili tilning cheksiz imkoniyatlarini ochib beribgina qolmay, badiiy asar qimmatini belgilashda, ma'lum ijodkor - yozuvchi, shoir ijodi va mahoratiga baho berishda, uning ijod uslubini aniqlashda, dunyoqarashini va so'z boyligini bilishda samarali hisoblanadi. Xuddi shunday samarali jarayonni ko'rsatuvchi tilshunoslik hodisalaridan biri omonimlardir.

Omonimiya hodisasi nutqni yoqimli, ta'sirchan qilish bilan birga, o'quvchini kontekst talabidan kelib chiqqan holda, mushohada qilishga va shu so'zning asl ma'nosini, unga yondosh ma'nolarini izlashga undaydi. Omonim shakldagi so'z yoki birikmani qo'llanilishiga qarab bu ikki badiiy tasviriy vosita farqlanadi. Dastlab xalq og'zaki ijod namunalarida omonimiya hodisasi namoyon bo'ladi. Xalq og'zaki ijod namunasi bo'lmish *latifa, askiya*da so'z o'yini va qochiriq vositasi sifatida keng qo'llaniladi. Shakldosh so'zlar asosida yuzaga keladigan ohangdoshlikdan badiiy asarda alohida uslubiy vosita sifatida foydalaniladi. "Nasrda askiya va payrov orqali kulgi chiqarish maqsadida, she'riyatda esa tuyuq hosil qilishda ishlatiladi"[2].

Yusuf Xos Hojib, Koshg'ariy, Lutfiy, Navoiy singari ijodkorlardan boshlab hozirgi yosh shoirlarimizgacha omonimiyadan foydalanish mahorati o'ziga xosdir. Masalan, Iqbol Mirzoning quyidagi misralarida *tasdir* badiiy san'ati uchun lingvopoetik vosita hisoblangan sof omonimlarga e'tibor qaratsak, she'rda o'ziga xos vazifa bajarayotganini ko'rish mumkin:

[1] Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri, 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi: Filol.fan. nomz. diss. – Andijon, 2003. – B. 8.

[2] Yo'ldoshev M., Isaqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – B. 32.

Meni unutolmay qiynalar qishloq,
Turnalar yig‘laydi osmonlarida.
***Tovon**imni qo‘msab qabarar tuproq,*
*Qolaman tuproqning **tovon**lariga!*

Shoir qo‘llagan omonimlar bir so‘z turkumi (ot so‘z turkumi)ga xosdir: Tovon I oyoq kaftining orqa qismi. Tovon II to‘lov, badal(yetkazilgan zarar uchun to‘lovdor bo‘lmoq).

Hukmingni bekor qil, taqdiri azal,
***Yulduzim**, uchaylik **yulduz**lar qadar.*
Osmon buncha cheksiz, bunchalar go‘zal!
O‘mbaloq oshadi bir to‘p kabutar.

She’rlarda inson taqdirini yulduzlar bilan bog‘lash aqidasi yotadi. Yulduz- taqdir- suyukli dil egasi. Yulduzlar qadar balandlik, cheksizlikka uchmoq – ozodlik. Bunda shoir metaforik fikr ifoda etgan va poetik omonim so‘zga orqali badiiylik ta’minlangan.

*Biz **oh** ursak, har **oshiq**dan ko‘ra **oshiq oh**imiz bor,*
Ko‘ylagining shamolidan samolarda hokimiz bor.

She’rda omonim so‘zlarning ma’nolar go‘zalligi ham jilvalangan bo‘lib, bu asarning badiiy qimmatini ta’min etgan. Biz keltirgan parchada oshiq I sevgan odam (otlashgan sifat); oshiq II ko‘p (ravish so‘z turkumi) mahnosini anglatadi. Omonim so‘zlarning ketma-ket qo‘llanishi asarga badiiylik bag‘ishlash bilan birga musiqiylik, ohangdorlikni yuzaga keltirgan.

Gul***yuz**ligim **yuz** noz ila burdi **yuz**in,*
Men ko‘z yumsam kipriklarim so‘ydi ko‘zim.

Mirtemir she’riyatida poetik omonims so‘zlar lingvopoetik vosita bo‘lib kelgan. Bu esa *takrir*, *ohangdoshlik*, *tajnis* mahorat bilan qo‘llashga imkon bergan. Uning “Oy yuzli” she’rida *oy* va *oydin* so‘zlari orqali bu namoyon bo‘lgan.

*Kecha **oydin**, ko‘z **oydin**!*
*Men so‘radim so‘z **oydin**,*
***Oy** dedi: **oy** yuzliging*
***Oydin**roqdir, yuz **oydin**.*

She’rda yor tavsifi mavjud bo‘lib, bu berilgan dastlabki bandda so‘zlar takrori, tovushlar uyg‘unligi asosida ifodalangan. Matnda suyukli ayolning husn-u tarovati madh qilingan. Uning husni *oy* (metafora) va *oydin* (oy yorug‘iga ko‘milgan kecha) ga qiyoslash orqali tasvirlangan. Bu ohangdoshlik musiqiylikni, talaffuzda yaqinlikni ta’minlagan va bu hol she’rda o‘ziga xos ohangning yuzaga kelishiga zamin yaratgan”[1].

***Qo‘ng‘iroq** zulfing, ey qiz,*
Mayin ***qo‘ng‘iroq** chaldi.*

Qo‘ng‘iroq I - jingalak so‘zining sinonimi - sifat, qo‘ng‘iroq II - mayin sado chiqaruvchi predmet nomi, ot. Qo‘ng‘iroq so‘zi she’rga ko‘tarinkilik, yoqimlilik bag‘ishlagan.

Quyoshga intiqqan kabi g‘unchalar,
*Yurak sokin-sokin **qo‘ng‘iroq chalar**.*
*Nima deb kuylaydi **qo‘ng‘iroqchalar**?*
Bunchalar sevdirding meni, bunchalar. (Iqbol Mirzo)

“Bunchalar” deb nomlanuvchi ushbu she’rdagi “intiqqan g‘unchalar”, “yurak qo‘ng‘iroq chalar”, “kuylaydi qo‘ng‘iroqchalar” kabi misralarda ham jonlantirishning yorqin namunasini ko‘ramiz. “Qo‘ng‘iroq chalar” hamda “qo‘ng‘iroqchalar” kabi omoformalarning qo‘llanilishi she’rdagi badiiy aktuallashgan vositalarning ta’sir kuchini oshirgan. Bir o‘rinda bu leksemalar *qo‘ng‘iroq(-ni) chalar*, ya’ni ot+fe’l konstruksiyali to‘ldiruvchili so‘z birikmasi shaklida kelgan bo‘lsa, ikkinchi o‘rinda *qo‘ng‘iroqchalar*, ya’ni otning kichraytirish-erkalash shaklida qo‘llanilgan. Shakldoshlikdan bunday usulda foydalanish shoirning so‘z qo‘llash mahoratidan dalolat beradi[2] va poetik omonimlarning uslubiy xususiyatlari namoyon bo‘ladi.

She’riyatda to‘liq omonimlardan bilan birga omofonlarni ham uchratamiz. Ular she’rga kuchli badiiylik bag‘ishlaydi.

Tumanli ochunda **tuman** yil o‘tdi,
O‘tdi munojotga aylangan g‘ani.
Iltijo - gadoni
to‘rva - go‘r yutdi,

[1] Shovqorov A. Mirtemir she’riyatida takrorning ma’noviiuslubii xususiyatlari. Fil.fan.nomd. avto. Toshkent-2012
[2] Inogamova N. Iqbol Mirzo she’riyatida badiiy aktuallashgan leksik vositalar / O‘zMU xabarlari -B.337

Aksi sado qoldi:

“Iqbol qani?!”.

Shoir bunda tabiat hodisasi - **tuman** bilan tarixiy so‘z - **tuman** (o‘n ming- son so‘z turkumi) vositasida ta’sirli badiiy nutq yarata olgan. Shuningdek, she’rda “Iqbol qani?!” undov gapi poetik omonim gapga misol bo‘ladi. Bu gapni “Tinchlik qani?” va shoir “Iqbol qani?” mazmunida tushunish mumkin.

Baland-baland daraxtlarim, cho‘kib ***qolibsiz***,
Hech bo‘lmasa sizni ko‘ray devdim ***qolipsiz***.

Shoirning ramziy-majoziy fikrlari singdirilgan she’rning bu parchasida *qolibsiz* - fe’l, *qolipsiz* - sifat so‘z turkumiga mansub bo‘lib, aytilishi, deyarli, bir xil, ammo ma’nosi va yozilishi turlicha bo‘lgan so‘zlar sirasini tashkil etadi.

Omonimlar she’r san’atining muhim omillaridan biri bo‘lib, u xalq og‘zaki ijodida, bolalar she’riyatida va mumtoz she’riyatda mustaqillik davri she’riyatida ham yangicha talqinda o‘z aksini topgan. Bu davr ijodkorlari omonimlarning ma’no jilolaridan va ohangdorligidan unumli foydalangan. Ayniqsa, tarixiy so‘zlar bilan iste’mol doirasidagi so‘zlardan tashkil topgan omonimli misralar she’rga ham tarixiylik, ham obrazlilik, ham ohangdorlik baxsh etgan.

Ta’kidlash kerakki, badiiy matnda qo‘llanilgan har qaysi toponim ko‘chma ma’noda qo‘llangan bo‘lishi shart emas. Real geografik obyektni bildirgan toponimlar ham lingvopoetik jihatdan tahlilga tortilishi mumkin. Masalan, yozuvchi qaysidir hududni san’atkorona uslubda tasvirlashi mumkin yoki shoirlar yurt madhida alohida badiiy tasvir usullaridan foydalanib ifodalashi mumkin. Bunday hollarda toponim badiiy matnning muhim unsuriga aylangan bo‘ladi. Jumaniyoz Jabborovning «Qo‘ng‘irtog‘» nomli she’rida jumhuriyatimiz hududida mavjud bo‘lgan real tog‘ nomi she’riy matnning har tomonlama yaxlitligini ta’minlashga xizmat qilgan. Eng qizig‘i, shoir joy nomi tarkibidagi bir so‘zga hamohang, uyqash so‘zlarni keyingi satrlarda qo‘llash orqali o‘ziga xos parallellik hosil qilgan:

*Qarshining naq yonboshida **Qo‘ng‘ir**tog‘,*
*Bo‘lak tog‘ yo‘q undan ko‘ra **qo‘ng‘ir**roq,*
*Gullar unar unda qizil, **qo‘ng‘ir, oq**,*
*Sayrab yotar qushlar misli **qo‘ng‘iroq**,*
Tog‘ emas bu, balki ulkan qo‘g‘irchoq,
Bir ko‘rganning bir umrga ko‘ngli chog‘.

Shakliy teng birliklarning uslubiy qo‘llanishi nuqtayi nazaridan bir xil doiraga kiruvchi birliklarning, ya’ni affiksning affiksal tizmaga, affiksning so‘z yoki so‘z shakliga, so‘zning so‘z birikmasiga shaklan o‘xshashligi o‘rtasida keskin farq yo‘q. Buni quyidagi misollarda ko‘rish mumkin:

Ahli she’r, balki kitobim
*Nazmi ishq **deb ochadur**.*
Yo‘q, kitobim sevgining
*Devoniga **debochadur**.*
Nastarin ko‘z ochib aytsam,
*She’ri ham **Zebochadur**,*
Balki, ul Zebo emasdur,
Balki, ul bir g‘unchadur,
Husning oftobida ammo
*Kun sayin **zeb ochadur**. (E.Vohidov).*

Omonimlar boshqa she’riy san’atlarda qofiyaning bir vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Masalan, masnaviy janrida yozilgan she’riy asarlarda misralar omonim bilan qofiyalanadi:

*Dilbarimning sochi sumbul, yuzlari **gulzor erur***

*Bo vina oshiq sanavbar, yuziga **gul zor erur** (S.S.)*

Nutqda ikki xil anglash holatiga yo‘l qo‘yuvchi omonimiya hodisasi, o‘z navbatida, tushuncha doirasini kengaytiradi. Omonimlarning nutqda ahamiyati shundaki, ular kishining chuqur fikr yuritishiga yordam beradi. Chunonchi, badiiy matnda bir o‘rinda so‘zni, ikkinchi o‘rinda so‘z birikmasini o‘xshash – teng keltirish hodisasi ham omonim so‘zlar doirasini kengaytiradi. Misollar:

*Deydilarki, **kungaboqar***
*Umr bo‘yi **kunga boqar**.*

Misollarda ishlatilgan «tom», «tok» so‘zlari o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan tok (uzum), tom

(uy) so‘zlariga omografdir. Shuningdek, shoir she’rlarida «may», «to‘r» kabi omograflar ham uchraydi.

Yana ko‘klam keldi yelmay - yugurmay,
*Toklar shonasida taqdim etar **May**.*
O‘lmas xalq Vatani bo‘sag‘asida,
*G‘alaba asridir bu birinchi **May**.* (G‘afur G‘ulom).

Shu sababli uning poeziyasida ishlatilgan omonimlar shoir bir so‘z orqali bir necha ma’nolarni ifodalash uchun imkon berdi.

E.Vohidovning «Olma» she`rini tahlil qilish asosida fikrimizga oydinlik kiritamiz.

Meva berdi yetilib bu yil
Men bog‘imga o‘tkazgan nihol.
Mevalarki, cho‘g‘day qip-qizil,
Husni yoqut, shirinlikda bol.
Lablaridan tomizib sharbat,
Ol, ye, deydi, armonda qolma!
Lekin shunga hayronman faqat,
*Nega uni deydilar **«olma»**?*
Olma eksa bog‘iga har kim,

Mehmoniga, ol, ye, demasmi?

***“Olma”** mening mehmondo‘st xalqim*
Odatiga yot so‘z emasmi?
Meva berdi yetilib bu yil
Men ardoqlab o‘stirgan nihol.
Olmalarki, shafakday qizil,
Lekin nomi olma emas, ol.

She’r mazmuniga e’tibor berilsa, shoir *olma* (meva) – *olma* (olmaslik) so‘zlarning omonimik munosabati asosida predmet va u bilan bog‘liq ish-faoliyat aloqadorligi ajoyib “tashbeh”ni hosil qilgan. She`rda *olma (meva)* leksemasi bilan bog‘liq holda xotirasida jonlangan *olma (olmaslik)* fe`li yordamida so‘z o‘yini hosil qilib, *“olma (olmagin) deyish mening mehmondo‘st xalqim odatiga yot so‘z”* xulosasini ilgari suradi va omonim so‘zlardan unumli foydalanadi.

Umuman o‘zbek adabiyotida olma bilan bog‘liq ko‘plab she’riy satrlar mavjud. Ularda olma omografining poetik xususiyatlari namoyon bo‘ladi:

*Xon uzra ko‘rindi, turli **olma**,*
*Raxshon yuzidan ko‘zingni **olma**.*
***Olma**y, uyalib suqingni solma,*
*Bu bizlar uchun uzildi, **olma**!* (S.Not)

So‘zdagi urg‘uning o‘rin almashishi bilan bog‘liq bo‘lgan bu hodisalarda stilistik bo‘yoqdorlik ham vujudga keladi. Yana shunday holatlarni quyidagi misollarda ko‘rish mumkin:

*Bog‘chalarda erkin sayrar **qushchamiz**,*
*Hoy, bolalar, biz ham ozod **qushchamiz**.*
Biz yosh kuchlar – har bir ishda chaqqonmiz,
*Keng osmonda uchishda ham **qushchamiz**.*
(“Bolalar adabiyoti” dan).

Birinchi qatordagi qushchamiz so‘zi – bizning kichik qushimiz; ikkinchi qatordagi qushchamiz so‘zi – biz kichik qush bo‘lamiz; oxirgi qatorda esa ushbu so‘z qush kabi (qadar) miz. Bu ma’no xususiyatlar, turli ottenkalar urg‘u orqali ifodalanmoqda. Aynizamonda, she’r ohangining yoqimli bo‘lishini ta’minlamoqda[1].

Masalan, Anvar Obidjon “Oromgohda” she’rida shakldoshlikning original ko‘rinishidan foydalangan. Bitta band ichida “Qarshi” (shahar nomi) va “qarshi” (teskari tomon) leksemalarini ketma-ket keltirib, she’rning ritmini, so‘zlarning ohangdoshligini, leksik poetizmni yuzaga keltirgan.

Shukur – vodiy tomondan,
Jo‘ra – Ohangarondan.
*Akrom esa – **Qarshi**dan,*
*Men qarama-**qarshi**dan.*

Badiiy asar, badiiy matnni yuqorida ko‘rsatilgan funksiyalari asosida – badiiy asarning har tomonlama qimmatini ochib berish, til jilosini tahlil etish, uning g‘oyani aks ettirishdagi rolini ko‘rsatish, ijodkor uslubini oydinlashtirish va unda davr ruhining aks etishi, mazkur davrda yaratilgan asarlar tili bilan qiyoslab tadqiq etish lingvopoetikaning vazifasiga kiradi.

[1] Haydarov A. Fonostilistik vositalar va konnotativ ma’no. - Toshkent, 2020. – B. 86

Rezyume. So‘nggi yillarga kelib, badiiy matnda omonimik birliklarning o‘rni va ularni o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shundan kelib chiqib, hozirda omonimik birliklarning poetik matndagi funksiyalarini aniqlash zamonaviy nazariy va amaliy tilshunoslikning eng muhim va asosiy muammolaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu bois mazkur maqolada asosiy e’tibor omopoetik so‘z va so‘zshakllarni o‘rganish masalasiga qaratilgan va lingvopoetikada badiiy mantdagi tilning turli birliklari, xoh u leksik-grammatik, xoh sintaktik birliklar bo‘lsin, muallif yoki yozuvchi biron bir stilistik maqsadni ko‘zlagan holda undan to‘g‘ri va unumli foydalanishga harakat qilishi ta’kidlangan. Til birliklari, ya’ni omonimik birliklardan to‘g‘ri va unumli foydalanish yozuvchining uslubiy qirrasini, tafakkur olamini namoyon qilishi atroflicha asoslangan.

Resume: In recent years, special attention has been paid to the role of homonymous units in the literary text and their study. Based on this, determining the functions of homonymic units in the poetic text is considered as one of the most important and basic problems of modern theoretical and practical linguistics. Therefore, in this article, the main attention is focused on the study of homopoetic words and word forms, and in linguopoetics, various units of the language in the artistic context, whether they are lexical-grammatical or syntactic units, the author or writer sees a stylistic goal. It is emphasized that he will try to use it properly and productively. The correct and efficient use of language units, i.e. homonymic units, is based on the fact that the writer’s stylistic edge and world of thought are revealed.

Резюме: В последние годы особое внимание уделяется роли омонимических единиц в художественном тексте и их изучению. Исходя из этого, определение функций омонимических единиц в поэтическом тексте рассматривается как одна из важнейших и основных проблем современного теоретического и практического языкознания. Поэтому в данной статье основное внимание сосредоточено на изучении гомопоэтических слов и словоформ, а в лингвопоэтике различных единиц языка в художественном контексте, будь то лексико-грамматические или синтаксические единицы, автор или писатель видит подчеркивается, что он постарается правильно и продуктивно использовать ее. Правильное и эффективное использование языковых единиц, т. е. омонимических единиц, основано на том, что раскрываются стилистическая грань и мировоззрение писателя.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 6
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

KASHTACHILIK TERMINLARINIG GIPONOMIK MUNOSABATLARI

Umarova Shaxlo Baxridin qizi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti akademik litseyi o'qituvchisi

Kashta tikish aslida amaliy san'atning xotin-qizlarga xos turi bo'lib, uning shakllanishi ham uzoq tarixga borib taqaladi. «Xalq o'z orzu-umidlarini, – deb yozadi D.A.Faxretdinova, – ertaklarda ifodalanganidek, ayollarning nozik shoirona qalbi, ularning go'zallik haqidagi tasavvuri kashtalarda aks topar va jaranglar edi. Kashtachilik ayollarning kayfiyatini, his-tuyg'ularini ifodalagan tasviriy san'atning ular qo'li yetadigan yagona turi edi; mana shundan esa kashtachilikning yuksak emotsionalligiga erishilgan»[1]. Samarqand viloyati vakilasidan yozib olingan quyidagi misralar shundan dalolat beradi:

Tepchima tikkan tentak qiz,
Chindaxiyol tikkan chinni qiz.
Jo'rmama tikkan jo'nday qiz.

Uyni, umuman, binoni bezab turgan ulkan so'zanalardan choyxaltalar-u tuzliqlargacha, choyshab-u sochiqlardan tortib, eski-tuski saqlanadigan qopchiqlargacha–hammasi chevar ayollarning qo'llari bilan ziynatlanadi.

San'atshunos O.Xudoyorova Samarqand kashtachiligining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritar ekan, quyidagilarni ta'kidlab o'tgan: «Samarqand kashtalarida qadimgi so'g'diylar san'ati bilan yaqin bo'lgan arxaik xususiyatlarni ko'rish mumkin. Samarqand kashtalari Nurota va Buxoro kashtalaridan farqlanadigan jihatlariga egadir. Ularning guli yirik va uyg'un bo'lib, asosiy motivi barglar bilan o'ralgan rangsiz tonli davra turunjdir. XIX asr boshlarida to'qilgan rang-barang konsentrik va nursimon detallarga ega bo'lib, to'q-ko'k rangdagi barglar, kashta doiralari esa kamalak yo'li bilan yoki o'rtacha och-yashil, cheti och qizil rang bilan yorqinlashtirilgan. Samarqand kashtalarining tasviriy mahobati uning ko'rkamligi, sodda va yirik gullarining aniq tikilishidadir. Samarqand kashta kompozitsiyalarida eng xarakterlisi «Chor chiroq» kompozitsiyasidir. U markaziy turunjdan yo'naluvchi to'rt uzun guldan iborat bo'ladi. Kashtalari ingichka hoshiyali bo'lib, ikki barg gulli shoxning ketma-ket qaytarilishidan tuzilgan»[2].

Kashtachilik o'zbek xalqining qadimiy amaliy san'at turlaridan biri ekanligi, uning estetik-emotsional zavq olishga xizmat qilganligi va shu sohada ishlatilayotgan ayrim so'z/terminlar yuzasidan bildirilgan u yoki bu tarzdagi mulohazalar qator san'atshunoslarning ishlarida keltirilgan [Grigorev, 1937; Rassudova, 1961; Morozova, 1960; Chepelevetskaya, 1961; Suxareva, 1967; Faxretdinova, 1972; Xudoyorova, 2000].

Kashtachilikning ayrim lingvistik xususiyatlari haqidagi, dastlabki, ma'lumotlar T.Tursunovaning monografiyasida o'z ifodasini topgan (Tursunova, 1978). Monografiyada kashtachilikning paydo bo'lish va tarqalishi, uni anglatuvchi so'z/terminlarning shakllanish tarixiga batafsil to'xtalib, kashtachilikka aloqador qator so'z/terminlarning ma'no xususiyatlari, kelib chiqish asoslari (etimoni), yasalish usullari haqida atroflicha asosli fikr yuritilgan.

Kasb-hunarmandlikning kashtachilik turi ham Samarqand viloyatida keng tarqalgan. Uning «bisoti»da bir ming ikki yuztadan ortiq so'z/termin (ma'lumotlar bizniki) mavjud ekanligi o'zbek tili leksik qatlamlarining, nihoyat, boyligini tasdiqlovchi dalildir. Mazkur leksik guruh tarkibida adabiy tilda ham, tadqiqot ob'ektimizda ham ma'no jihatdan bir-biriga mushtarak so'z/terminlar mavjudligini (ayrim fonetik o'zgachaliklar bilan, albatta) ta'kidlab o'tish lozim. *Kashta, kashtachi, kashtachilik, so'zana, qo'chqorak, lolanusxa, yo'rma, chok* kabilar. Shu bilan birga, adabiy til doirasiga kiritilmagan, biroq samarqandlik kashtachilar hamda aholi nutqida ishlatilayotgan qator so'z/terminlar ham qo'llaniladi.

Kashtachilikda xilma-xil ma'nolarni anglatuvchi so'z/terminlar tarkib topgan. Fikrimizning isboti uchun kashtachilik amaliy san'atining tadqiqotchilaridan O.Xudoyorovaning so'zlarini keltiramiz: «*Kash-*

[1] Фахретдинова Д.А. Декоративно-прикладное искусства Узбекистана. – Ташкент: Литература и искусство, 1972. – 21.

[2] Худоёрова О. Ўзбек каштачилиги. – Тошкент, 2000. – Б. 20-21.

ta to‘qilgan *choyshap*lar, *ro‘yijo* (joypo‘sh)lar yangi kelin-kuyov O‘rni ustiga yopish uchun tayyorlangan. Ko‘rpa-yostiq ustiga tutish (yopish) uchun esa *takiya-po‘sh* (Nurotada shunday atalgan), *taxsarpo‘sh, bolishtpo‘sh* (Samarqandda), *yostiqpo‘sh* (Shahrisabzda) tikilgan. *Tanpokkun, sarpokkun* yoki *sochiq*lar tayyorlanib, ulardan yuvinganda artinish uchun foydalanilgan. Kashta tikib beza-tilgan *bo‘g‘joma*ga *kiyim-bosh*lar o‘ralgan. Ro‘zg‘orda *sandalpo‘sh* va *gavrapo‘sh* kabi buyumlar ham ishlatilgan. Uylarning devorlarini bezatadigan *so‘zanalar, palaklar, gulko‘rpalar, zardevorlar* kabi turli kashta tikilgan buyumlar tayyorlangan. Maxsus tikilgan *joynamoz* ustida esa keksalar namoz o‘qishgan. Erkak va ayollarning *bosh kiyimlari*ga kashta tikilgan bo‘lib, Farg‘onada uni *do‘ppi*, Shahrisabz va Samarqandda *qalpoq* deb atashganlar. Ayollarning *ro‘mollari* yoki *peshonabandaklari*, erkaklarning beliga bog‘laydigan *belbog‘lari* (Farg‘onada *chorsi*, Toshkentda *qiyiqcha*, Shahrisabzda *belqars*) kashta bilan bezatilgan. Shuningdek, *choyxalta* (choy uchun), *pulxalta* (pul uchun), *shonaxalta* (taroq uchun), *oynaxalta* (oyna uchun) kabi buyumlarning barchasi yuzalarida kashtalar O‘zining tikilish texnikasi, rasmlarining kompozitsiyasi, O‘ziga xos gullari bilan bir-birlaridan farqlangan»[1] (ta’kidlar bizniki – Sh. U.O.)

Bu kabi so‘z/terminlar majmuini quyidagi mikroguruhchalar tashkil etgan:

1) kashtachilik buyumlari va ularning turlarini anglatuvchi so‘z/ter-minlar: *kashta, gulko‘rpa, palak, choyshab* va b.;

2) buyumlarga tikiladigan naqshlarni anglatuvchi so‘z/terminlar: *qo‘chqorak, lolagul, islimi oy* va b.;

3) kashta choklarini anglatuvchi so‘z/terminlar: *iroqi, yo‘rma, sanama, chindaxayol* va b.;

4) kashta tikish jarayonlarini anglatuvchi so‘z/terminlar: *tikish, choklash, qaviqlash* va b.;

5) kashtachilik bilan shug‘ullanuvchi shaxslarni anglatuvchi so‘z/terminlar: *kashtachi, yo‘rmachi, dureshdo‘z, popopchi* va b.;

6) kashtachilik kasb-korlarini anglatuvchi so‘z/terminlar: *kashtachilik, zehdo‘zlik, yo‘rmado‘zlik* va b.;

7) ish qurollari va xomashyolarni anglatuvchi so‘z/terminlar: *ip, igna, bigiz* va b.

Kasb-hunarmandlikning boshqa turlari kabi kashtachilikda ham qo‘llanayotgan so‘z/terminlarning ko‘pgina qismi bir-biri bilan giponimik munosabatda ekanligini to‘plangan material tasdiqlay oladi. Bunday holatni shu sohaning «kashtachilik buyumlari va ularning turlari» guruhchasida ham ko‘rish mumkin. Mazkur masalaga o‘tishdan oldin *kashta* so‘z/terminining ma’nolari haqida so‘z yuritish maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Chunki adabiy tilda ham, shevalarda ham *kashta* ikki xil sememasi bilan ishlatilmoqda. Ta’kidlash joizki, *kashta* so‘z/terminining sememalari ayricha jins-tur munosabatlari bilan farqlanib turadi.

*Kashta*ning bir sememasi quyidagicha: «Gul, rasm, chiziq va sh.k. tikilgan mato» (O‘TIL, I, 374). Bu *kashta* deb atalmish alohida bir buyumning ta’rifidir. Biroq chevarlar leksikasida igna bilan tikiladigan buyumlarning hammasi «*kashta*» deb yuritiladi (Tursunova, 1978, 110). Shu fikrdan kelib chiqib, *kashta* so‘z/terminini jins nomi vazifasini bajaradi, degan xulosaga kelish mumkin. Bu giperonim *Kashta (I)* tarzida ifodalandi [*Kashta (II)* haqida quyiroqda gap ketadi].

Shu o‘rinda R.Safarovaning quyidagi mulohazasini keltiramiz: «Tur nomini ifodalovchi giponimlar o‘zining turli mavjud belgilarini ifodalash asosida nomlanadi, lekin ba’zi hollarda paradigmaning ayni bir elementi ham giperonim, ham giponim sifatida bir xil vazifani bajaradi (ta’kidlar bizniki – Sh.U.)»[2].

Bunday holatni kashtachilik so‘z/terminlari guruhida ham ko‘rish mumkin. Kashta (I), Kashta (II) giperonimlari va giponimlarining real lisoniy voqelik ekanligi shundan dalolat beradi:

I**. Kashta (I) ning giperonimi va uning giponimlari.**

Kashta (I) hgiperonim–«igna bilan tikilgan har qanday buyum»] – *kashta* hgiponim–«devorga qoqiladigan, gul tikilgan alohida bir buyum»]. Misollar keltiramiz: 1. Muzeyimiz (Kattaqo‘rg‘on shahridagi tarixiy muzeyi haqida gap ketadi–SH.U.)da kashtalarning so‘zana, palak, zardevol kabi o‘nga yaqin turi ham joy olgan, ular atrofida hamisha ekskursantlar mahliyo bo‘lib uzoq turib qolishadi («Zarafshon», 2023, 26.09). 2. Korrespondent (ya’ni kamina): Ena, bu buyumni nima deb ataysiz va qancha muddatda tikib bo‘lasiz? Respondent (ya’ni axborotchi – Karimova Muslima, 66 yoshda): Baläm, bizär muni keshtä diymiz. Uni ro‘zg‘arding ishidan bo‘shäg‘änimda tikämän. Uch-tort aydä tikib bolämän (Qo‘shrabot).

Kashta (I) giperonimning giponimlari jumlasiga yana quyidagi so‘z/terminlar kiritildi: *so‘zana* – sidirg‘a gazlamaga kashta tikib tayyorlangan buyum; *joypo‘sh* – shoyi, satin, duxoba kabi materiallarga igna, ilma bigiz yoki popop mashinasida tikiladigan, kelin-kuyovlar o‘rniga yozish, yozda ustga yoxud

[1] Худоёрова О. Ўзбек каштачилиги. – Тошкент, 2000. – Б. 20-21.

[2] Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – В. 30.

yig‘ilgan ko‘rpa-yostiq taxmoni ustiga yopiladigan kashtali buyum; *zardevor* zardeval/zarduval] – ip yoki ipak gazlamaga gullar tikilgan, binoning devorlariga yoxud shiftiga taqab gir aylana qilib osiladigan buyum; *dorpech*/*dorpo‘sh* – uy ichidagi dorga osilgan kiyim-kechaklar ustiga yopiladigan kashtali buyum; *zebitaxmon* – taxmon ustiga yopiladigan kashtali buyum; *peshona/peshana* (peshonaband) – ayollar peshonasiga o‘raydigan kashtali durracha (ro‘mol); *parda* – deraza, eshik kabilarni to‘sish uchun ishlatiladigan kashtali buyum (kashta tikilmagan har qanday gazlama ham parda vazifasini o‘tayveradi); *palak* – doira shaklida oy, yulduz kabi astronomik jismlarning tasviri tikilgan, devorga bezak uchun osiladigan kashtali buyum. «Palak faqat Toshkent oblastiga xos bo‘lib, xom surp yoki bo‘zga o‘xshash matoga qo‘l bilan ignada tikiladi», – deb hisoblaydi T.Tursunova[1]. Bu fikrga qo‘shilish qiyin. Chunki Samarqand viloyatining Nurobod (Jom, Sazag‘on), Go‘zalkent (Beklar) kabi tumanlarida bo‘lganimizda, ayrim xonadonlarda ayni shu buyumning mavjudligi va uning *palak* deb atalishining guvohi bo‘ldik; *gulko‘rpa* – devorga osiladigan yoki taxmonga yopiladigan kashtali buyum; *choyshab* [chayshap]–o‘rin-to‘shak ustiga yopiladigan kashtali buyum; *kirpech/kirpo‘sh*–kir taxlangan joy oldini to‘sib, berkitib turuvchi bezakli buyum.

II. **Kashta (II) ning giperonimi va uning giponimlari.**

Ma’lumki, kashtaning yuqorida keltirilgandan tashqari yana bir ma’nosi bor: «Tikib tushirilgan gul, chiziq, rasm va sh.k.» (O‘TIL, I, 374). Alohida ta’kidlab o‘tamiz: o‘zbek kashtachiligida *kashta* (II) so‘z/termini giperonim sifatida nutqda namoyonlashib, yuzdan ortiq giponimlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Shuning uchun bu haqda batafsilroq to‘xtab o‘tildi.

«Gullar, gulzor va bog‘lardan, – deb yozadi G.A.Chepelevetskaya,– kashtalarga ko‘chdi va u katta mahoratli san’atkorning ijodiy fantaziyasidan o‘tib, xalqqa shodlik keltiruvchi bezaklarga aylandi. Gullardan yulduzlar, ajoyib guldastalar va novdalar tasvirlanib, ular shoxchalarda silkinib, nafis butoqlarda osilib turadilar. Ko‘pincha, tabiat manzarasi ichida qushlar tacviri, goho hayvon va inson surati ham tikilar edi. Kashtalarning o‘simliksimon boy bezagida tabiat ko‘rinishlari va xalq hayotining muhim tomonlari o‘z ifodasini topardi. Naqshli bezaklarda kishilarning baxt-saodatli hayot orzusi, mo‘l hosil olishga intilish simvoli o‘z ifodasini topgan»[2]. Bu gaplarning haqqoniy ekanligini kashta ornamentlarini ifodalovchi maxsus leksemalar ham tasdiqlaydi.

Amaliy san’atga bag‘ishlangan ishlarda «geometrik shakllar bilan o‘simlik yoki hayvonlar olamidan, tabiat manzaralaridan olingan tasvirlarni qo‘shib, uyg‘unlashtirib ishlangan har qanday naqsh, bezak» ma’nosini ifodalash maqsadida *ornament* (lotincha ornament «bezak» so‘zidan) terminidan foydalaniladi. Adabiy tilda, shuningdek, uning og‘zaki shaklida, ya’ni shevalarda ham ayni shu ma’noda *kashta, gul, bezak, naqsh* kabi so‘z/terminlar ishlatiladi. Amaliy san’atning turlaridan biri kashtachilik deb atalgan ekan, qayd etilgan terminlar o‘rnida *kashta (II)*ni giperonim termin vazifasini o‘tashi ma’qul deb topildi.

Kashta (II) (giperonim)ning turlari (ya’ni giponimlari), nihoyatda, ko‘p ekanligini ta’kidlash lozim. Masalan, naqsh turlaridan biri, *islimiy*ni olib ko‘raylik. «O‘zbekiston ensiklopediyasi»da bu naqsh turi haqida shunday deyilgan: «Islimiy bir-biriga uzluksiz ulanib, o‘ralib ketadigan palaksimon, o‘simliksimon naqshlarning takrorlanishidan tashkil topadi. Shuning uchun uni ba’zan ustalar o‘rama yoki o‘simliksimon naqsh deb ham ataydilar. Islimiylikni bir-biri bilan chirmashib ketadigan chiziqlar orasiga ishlanadigan o‘simlik barglari, mevasi, turli buyum shakllari, hayvonlar, qush va h.k. tasviri sifatida ham ifodalanadi. Bu naqshning islimi qalampir, islimi bodom, islimi xurma, islimi oy, islimi yulduz, islimi doira, islimi barg, islimi bulbul kabi *yuzdan ortiq* (ta’kid bizniki–Sh.U.) sodda va murakkab turlari ma’lum»[3].

Kashtalarda xilma-xil o‘simliklar bilan bir qatorda, kamroq bo‘lsa-da, qadimiy mifologik simvollar, qushlar va boshqa hayvonlar hamda odam qiyofasi, ayrim predmetlar, geometrik shakllar, hatto, transport vositalari (masalan, «poezd» deb nomlangan kashta) ning tasviri aks ettirilgan. Muzeylarda XIX asrning ikkinchi yarmida harflar shakllari tasviri to‘qilgan kashtali so‘zana, palak kabi buyumlar saqlanib qolgan. Bunda arab, kirill alifbosining harflaridan keng foydalanilgan. Bejirim shakllar bilan hamohanglashib ketadigan arabcha harflar bilan bitilgan iboralar, yaxshi istaklar kashtalarning estetik obrazliligini va mazmunini boyitishga xizmat qilgan[4].

[1] Турсунова Т. Ўзбек тили амалий санъат лексикаси. – Тошкент: Фан, 1978. – В. 116-117.

[2] Чепелевецкая Г.Л. Ўзбекистон сўзанаси (Сузани Узбекистана). – Ташкент: Гос.лит.издат Уз-а, 1961. – В. 54-55.

[3] Ўзбекистон энциклопедияси. 3-том. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. – Б. 69.

[4] Фахретдинова Д.А. Декоративно-прикладное искусства Узбекистана. – Ташкент: Литература и искусство, 1972. – С. 21-22.

Matolarga tikib bitilgan bu kabi narsa-predmetlarning tasviri, ya'ni kashtalar muayyan lug'aviy birliklar bilan atalgan. Kashtalar nomlarining mutlaq ko'p qismi bevosita mato buyumda tasvirlanayotgan obyektlar nomidan iborat. Kashtalarning xillarini anglatuvchi bunday leksemalar esa, nihoyatda, ko'pligi bilan boshqa mikroguruhlar «boyligi»dan ajralib turadi. Ayrim manbalarda qayd etilgan va biz tomondan to'plangan materiallar hisob-kitob qilinganda, besh yuzdan ko'proq kashta nomlari mavjud ekanligi ma'lum bo'ldi. To'g'ri, Samarqand viloyatida bu kashtalarning barchasi ham tikilavermaydi. Biroq ularning bir talayi kashtalarda o'z aksini topganligi aniq dalildir. Quyida gap yuritiladigan kashtalarni ifodalovchi giponimlar shundan dalolat beradi.

Hozirda xalq orasida tarqalgan kashtachilik terminlari ommalashib ketmoqda. Mashhur kashtachi va viloyatdagi boshqa kashtachilar qo'li bilan tikilgan kashtalar va ularning nomlarida ko'rish mumkin: *qora qosh, oftobnusxa, g'uncha, choynak, ikki lola, karsangul, kosa kashta, chor davrasi, no'hdavra, ko'zanusxa, g'o'za, janona, suvterar, yigit-qiz, kelin-kuyov, no'xat, olmagul, shakar chinni gul, tovusnusxa, qayrilma barg zanjira, qo'ng'iz, tol bargi, qushoyoq, qo'chqorakgul, it tishi, qosh, qoshiqcha, chumchuqcha* va h.

Kashtachilik nominatsiyasi haqida so'z yuritishdan oldin, avval shuni qayd etmoqchimizki, amaliy san'atning, deyarli, barcha turida, masalan, zargarlik, to'qimachilik, naqqoshlik, gilamchilik, do'ppido'zlik, kulollik, misgarlik, metallsozlik, me'morlik, duradgorlik kabi sohalarida kashtalar, nusxalar, naqshlarning mutlaq ko'pi bir xil nom bilan ataladi. Shunday ekan, takrorga yo'l qo'ymaslik uchun muayyan bir kasb-hunar sohasida, masalan, kashtachilikda qo'llanayotgan leksik qatlam xususida batafsil to'xtab o'tmaslik yo'lidan borish maqsadga loyiq deb topildi. Shuning uchun quyida ayrim manbalarda qayd etilgan va tadqiqot obyektimizda qo'llanayotgan kashtachilikka oid lug'aviy birliklardan namunalar keltirish bilan cheklanamiz.

Samarqand shahri, uning tumanlari va qishloqlarida qayd etilgan kashta turlarining barchasidan foydalanib kelingan va foydalanib kelinayotir. Ta'kidlangan guruhlarga aloqador narsa-predmetlar yoki mavhum tushunchalarni ifodalovchi leksemalarning barchasi ikkinchi funksiyani ham bajaradi, aniqroq qilib aytganda, kashtachilikning so'z/terminlari sifatida o'zbek tili leksikonida muqimlashib qolgan. Shunday giponimlar jumlasiga boshqa-boshqa lug'aviy qatlamlarga oid quyidagi leksik birliklar kiradi:

1.O'simliksimon kashtalar nomlari. «Dekorativ kashtalar naqshida,–deb uqtiradi L.G.Chepelevetskaya, – o'simliksimon tasvirlar: shoxlar, gulbadanlar, guldastalar katta o'rin tutadi ... Yerga o'z ildizlari bilan o'rnashib oluvchi o'simlik esa shartli ravishda tasvirlanadi. Boshqa hollarda guldastalar doiraviy bezaklardan, yaproqlardan va gullardan o'sib chiqqandek boshqa bezaklar orasiga tarmoqlanib ketadi»[1].

Shunday qilib, o'simliklar olamiga oid quyidagi lug'aviy birliklar kashta (II)ning giponimlari sifatida namoyon bo'ladi: bodom, sarv, nok, no'xat, paxta, tol (bargi), archa, qalampir, anor (mevasi), shox, barg, novda, butoq, g'uncha va boshqalar. Kashtachilikda gulsimon shakldagi kashtalar juda ko'p uchraydi: *gul, lola, sapsargul/guli sapsar, chinnigul, gultojixo'roz, gulxayri,olma guli, anor guli, qizg'aldoq* (bargsoch ham deyiladi) va b.

2. *Hayvonot olami (hayvonlar hamda ularning tana a'zolari)ga oid nomlar*: ot, qo'chqor, qo'y, it/kuchuk; qo'ng'iz, kapalak, go'balak (parvona); toj, dum, oyoq, panja, tuyoq, tumshuq, qanot va b. Shu guruhda, ayniqsa, qushlar nomlari bilan bog'liq kashtalar ko'plab uchraydi: kaptar/kabutar, tovus, o'rdak, qirg'ovul, xo'roz, chumchuq, qaldirg'och va b.

3. *Inson va uning tana a'zolari nomlari*: odam, mardumcha, yurak, qosh /abro'/qoshak, manglayqosh, ko'z, oyoq, qovoq, boshmaldoq, kiprik va b.

4. *Osmon jismlari nomlari*: oy/moh, xurshid/quyosh/oftob, mohi setora, yulduz(i) va b.

5. *Uy-ro'zg'or va maishiy buyumlar nomlari*: qaychinusxa, choynigu piyola, qumg'on, oftoba, ko'za (ko'zacha), gugurtquti, taroqnusxa, choynak, lali, vazagul, karsangul va b.

6. *Geometrik shakllar, harflar nomlari*: alifak, gajak, davra (arabcha doira sO'zidan), oyatnusxa va b.

7. *Sanoat va texnikaga oid nomlar* (bunday kashtalar keyingi yuz yillikning mahsulidir): poezd, aeroplan, raketa, lunaxod, traktor, otasharoba (poezd), televizor va b.

8. *Kashtachilik keng rivojlangan joylar, umuman, toponimlar bilan bog'liq kashta nomlari*: urguti nusxa, xitoy qizi, samarqandcha nusxa, kattaqo'rg'oni, buxori nusxa va b.

*Kashta (II)*ning giponimlari haqida gap ketar ekan, quyidagi lisoniy holatlarni qayd etib O'tish lozim bo'ladi:

1. Og'zaki nutqda (ba'zan yozma manbalarda ham) giponim narsa-predmet nomiga gul leksemasini qo'shish yo'li bilan ifodalanadi: ko'zagul, karsangul, olmagul, qo'chqorakgul, vazagul, tuvakgul, yaxlitgul va b.

[1] Чепелевецкая Г.Л. Ўзбекистон сўзанаси (Сузани Узбекистана). –Ташкент: Гос.лит.издат Уз-а, 1961. –В. 55.

2. Ayni shunday holatda *nusxa* lug‘aviy birligidan ham foydalaniladi: gulnusxa, bodomnusxa, qalampirnusxa, chumchuqnusxa, kapalaknusxa, taroq-nusxa, tillaqoshnusxa, sirg‘anusxa va b.

III. **«Kashtali idish» giperonimi va uning giponimlari**. Ishimizning gilamchilik so‘z/terminlari guruhi haqida so‘z yuritilgan o‘rnida *idish* so‘z/termini xususida to‘xtab O‘TILgan va mazkur leksemani «biror narsa solib qo‘yiladigan to‘qima buyum» ma’nosida shu sohaning giperonimi sifatida namoyon bo‘lishi mumkinligi ta’kidlangan edi. Kashtachilik sohasida ham shunday holatni ko‘rish mumkin. Chunki kashtachilikda ham «idish» tushunchasi bilan bog‘liq o‘ndan ortiq so‘z/termin ishlatib kelinmoqda. Kashtachilikning giperonimlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladigan «kashtali idish» tushunchasining ayrimlari gilamchilik so‘z/terminlari bilan mushtarak ekanligini ham ta’kidlab o‘tish joizdir (bu kabi mushtarak so‘z/terminlarga yulduzcha belgisi qo‘yildi): *tuzliq/tuzxalta*, choyxalta*, tamakixalta* (tamakixolta)*, *qoshiqxalta*, pulxalta/qopchiq, oynaxalta, shonaxalta/taroqxalta, ishpech** (ip, ipak, igna kabi chevarlik ish anjomlari solib qo‘yiladigan buyum), *choynakpo‘sh, qamchilunj*.

IV. **«Yordamchi buyum» giperonimi va uning giponimlari**. Kashtachilikda yuqorida I va II ruknlarda ko‘rsatib O‘TILgan buyumlardan tashqari, yana qator narsa-predmetlar ham kashta bilan tikiladi. Ular ham o‘ziga xos nomlar bilan atab kelinmoqda. Binobarin, «yordamchi buyum» tushunchasini ifodalovchi giperonim bir qancha giponimlar tizmasini hosil qilib kela oladi: *beshikpo‘sh / beshikjobuv, beshikyopiq / gavrapo‘sh* (gavraposh), *bolishtpo‘sh / yostiqpo‘sh, joynamoz, tanpokkun, sarpokkun, choynakmonak / choynaktaglik, miyonband*.

Kashtachilik bezak sifatida shu qadar keng tarqalganki, matodan tikilgan har qanday buyumga kashta tikiladi. *Do‘ppi* (to‘ppi, qalpoq), *belbog‘* (belqars), *salla, dasturxon, ro‘mol, peshonabog‘* (peshanabov), *ro‘molcha/dastro‘mol/qo‘lro‘mol*(cha), *sochiq* (sachaq, chachaq), *chopon* (to‘n), *ko‘ylak, nimcha, qiyiq*(cha) kabilar shular jumlasidandir. Biroq bu singari so‘z/terminlarni bevosita kashtachilik so‘z/terminlari guruhiga kiritish to‘g‘ri bo‘lib chiqmaydi. Chunki ular «kiyim-kechak», «bosh kiyim» kabi so‘z/terminlar guruhlarining «mulki» sanaladi. SHuning uchun ushbu o‘rinda bunday so‘z/terminlarning leksik-semantik munosabatlari xususida so‘z yuritilmadi

O‘zbek tilida kashtachilik so‘z/terminlari nihoyatda ko‘pligi bilan ajralib turadi. Fikrimizni kashtachilikda *chok* deb ataladigan tushuncha bilan aloqador so‘z/terminlar ham tasdiqlay oladi. To‘g‘ri, *chok kashta* so‘z/terminining giponimi emas. Aslida *chok* partonimik munosabatda *kashta*ning bo‘laknomi hisoblanadi: *Kashta (I)* htotonim]–*chok* [partonim]. Bir leksema yoxud so‘z/terminning giperonim hamda partonim vazifasini bajarib kela olishi mumkinligi tegishli manbalarda ko‘rsatilgan (Safarova, 1996; Qilichev, 1997).

Bunday dalilni keltirishdan maqsad, garchi *chok* kashta (I)ning partonimi bo‘lsa-da, u, o‘z navbatida, giperonimlik vazifasini ham bajara olishini ko‘rsatishdan iborat.

Kashtachilarning ta’kidlashlaricha, kashtani kashta qiladigan matolar, har xil rangli iplar va kerakli asbob-uskunalardan tashqari, yana bir muhim omil borki, bu – kashtani yaratish, ya’ni tikishda chok tanlashdir. O‘TILda *chok* so‘z/terminiga shunday izoh berilgan: «Gazmol, teri va shu kabilardan tikilgan buyumlarning tikib biriktirilgan joyi» (II, 377). Chok esa igna, ilmoqli igna, bigiz, angishvona/o‘ymoq kabi asboblar vositasida tikiladi. Kashtachilikdagi choklar esa, nihoyatda, xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ularning tur va xillari 30-40 atrofida ekanligi shundan dalolat beradi. Bu dalil esa kashtachilikdagi choklarni anglatuvchi shuncha miqdordagi so‘z/termin ona tilimizda yoxud uning shevalarida ham mavjud degan gapdir. Dalillarga murojaat etaylik.

Kashta choklari bir-biridan oddiyligi va murakkabligi bilan ajratilib, quyidagicha ataladi: 1) oddiy chok; 2) murakkab (asosiy) chok.

Demak, *chok* [giperonim] –*oddiy chok*, *murakkab chok* giponimlardir. o‘z navbatida, masalan: *murakkab chok* [giperonim]. Chunki *murakkab chok*ning turlari bir qancha bo‘lib, ular xilma-xil so‘z/terminlar vositasida ifodalanadi.

Murakkab chok giperonimining giponimlari jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: *bosma, kandaxayol, chindaxayol/davro‘poya, xomdo‘zi /xomipak, yo‘rma, popur, ilmoq, iroqi, chamak/hunariy, bahya*.

Ushbu o‘rinda og‘zaki nutqda mazkur so‘z/terminlar ko‘rsatilgan holatda ham ishlatilaverishi mumkinligini ta’kidlaymiz. SHu bilan birga, bu so‘z/terminlarga *chok* so‘z/ terminini qo‘shib ishlatish – birikma tarzida qo‘llash holatlari ham qayd etildi: *bosma chok, kandaxayol chok, iroqi chok*.

Kashtachilikda shunday bir odat rasm bo‘lib kelgan: endigina kashta (II) tikishni o‘rganayotgan kishi (asosan ayol) ishni oddiy choklarni tikishdan boshlaydi. Bunday choklar esa qariyb o‘n xil bo‘lib, ular o‘ziga xos so‘z/terminlar vositasida ifodalangan. Choklarning turlari haqida bir qadar tasavvur hosil qilish maqsadida *oddiy chok* giperonimining giponimlarini keltirib o‘tamiz: *igna oldinlatilgan chok, qaytma chok, suv chok, iroqisimon chok, popop chok, tekis chok, chilvir chok, petlya chok, ilma/ilmak chok, tugun chok*.

Xulosa qilib aytganda, kashtachilik tarkibidagi terminlar o‘zaro xilma-xil leksik-semantik munosabatga kirishar ekan. Bu borliqdagi barcha narsalar qatori kashtachilik terminlari ham bir butun sistemani tashkil etib doimo ular o‘zaro aloqada bo‘lib turadi. Shu bois ham soha terminlarining o‘zaro lug`aviy munosobatlarga kirishuvini keng planda o‘rganish tilshunosligimiz oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Rezyume. maqolada tikuvchilkiningmuhim tarmog‘i bo‘lgan kashtachilik terminlari tadqiqiga bag‘ishlangan. Unda soha terminlarining o‘zaro munosobatga kirishuvining bir turi bo‘lgan gipo-giperonimik jarayonlar Samarqand viloyati materiallari asosida tahlil etilgan.

Resume. the article is devoted to the study of the terms of embroidery, which is an important branch of tailoring. In it, using materials from the Samarkand region, hypohyperonymic processes, which are a type of interaction of industry terms, are analyzed.

Резюме. статья посвящена изучению терминов вышивки, которая является важной отраслью портновского дела. В ней на материалах Самаркандской области анализируются гипогиперонимические процессы, являющиеся разновидностью взаимодействия отраслевых терминов.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 6
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MATNGA MUNOSABAT SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSNING O'RNI

(Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romani misolida)

Madirimov Bahrom Abdullaevich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

O'zbek adabiyotshunosligida «Mehrobdan chayon»ga munosabat Oybekning «Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li» asari bilan boshlanganligi ta'kidlab kelinadi. Ammo romanning dastlabki talqini uning nashriga sanadosh. 1929-yili «Sharq haqiqati» gazetasida Miyon Buzrukning Qodiriyshunoslar ko'p ham ahamiyat bermay kelayotgan «Mehrobdan chayon» (mavzuyi, sinfiy tusi va tuzilishi jihatidan tekshirilmishdur)» sarlavhali maqolasi e'lon qilinadi. Darhaqiqat, ikkinchi roman birinchi talqini shu. Munaqqid unda fikrlarini rim raqamlari ostida quyidagi bo'limlarga ajratadi: I Romanchilikda tarjima; II O'zbek adabiyotida roman; III Romanning xulosasi; IV Shartlar (bunda «tuzuk jihatlar» va «kamchilik»lar, deya nomlangan ikkita qism bor); V Mafkura jihati; VI Tuzilish xatolari; VII G'ayritabiiy jihatlari; VIII Saktalar; IX Tiplar; X Ta'siri; XI Xulosa. 20-yillar oxiri va 30-yillar adabiy tanqidchiligiga xos qator xususiyatlar M.Buzrukning mazkur «go'yo, yeldek kelgan-u, seldek ketgan» (H.Qodiriy ta'biri) maqolasida ham o'z ifodasini topgan edi[11]. Hukmron mafkura talabi va tazyiqi ostida yozilgan ilmiy-nazariy ishlarda asar g'oyaviy-ijtimoiy ahamiyatiga jiddiy e'tibor qaratiladi. Muallif belgilagan bo'limlar ham sotsial munosabatlarga tayanadi, Miyon Buzruk eng avvalo, matndan sinfiy tabaqalanish belgilarini axtaradi, garchand, tuzilishi haqida tavsif bersa-da, sog'lom mantiq buzilishi xolislikni chippakka chiqaradi va markscha-lenincha ta'limot talablarini kuchaytiradi.

Matnda munosabat va baho yaxlitligi badiiy nutq jarayonini hosil etadi, unda nozik kuzatuv va jonli mushohada bir-birini to'ldiradi. Ijod falsafasi hamda mantiqiy izchillik muqobilligi aynan rivoya texnikasi o'ziga xosligini ta'minlaydi. Uzluksiz kechadigan jarayonda tasvir va ifoda jipslashadi, idrok sezgisi tahlil malakasini yuksakka ko'taradi. So'z hamda uning hissiy tavsifi nominatsiya va semantika manfaatlarini uyushtiradi, obraz tasavvurda qayta tiklanishi estetik qiymatni kun tartibiga qo'yadi. Unda tahlil va talqin o'rin almashinuvlari masala mohiyatini anglatadi:

Xon o'rdasi mutavaffo mirzolaridan bittasi madrasada o'qub yurg'an o'g'li bor edi va uyida chaqich chaynab o'lturgan o'n olti yoshliq qizchasi ham bor edi. Bu oila Mohlar oyim taklifini mamnuniyat birla qabul etdi. Chunki "o'xshatmay uchratmas" degandek narigi taraf ham Mohlar oyim bittasi edi. Sovchilar Na'imani yoqtirib Mohlar oyim taklifini qabul qilib ketdilar. Mohlar oyim marhum mirzo uyiga qiz ko'rgali borib ul ham "qizi jajjigina ekan" deb keldi. Kuyavlar ko'rulib ular ham zararsiz topildilar. Shartlar so'zlashildi: ikki orada qalin-palin degan gap yo'q, har kim o'z ulushiga tushkan osh-suvini qiladi, kelinni o'rab-chirmab oladi, vassalom[2].

Badiiy nutqda vazifa hamda uslub bir-biridan tafovutlanadi, tasvir predmetidan manzilli foydalanish darajasi vositani maqsadga ko'chiradi. Muayyan tizim sifatida turli-tuman aloqalarni birlashtiradigan ifodada ma'no xususiyati dolzarblashadi, binobarin, so'z semantik hamda grammatik sathlarda sub'ektiv ohang kasb etadi. Gap, ibora va matn bog'lanishini hosil qilish yordamida sintaktik tartib o'zgaradi, bayon usuli emosional-ekspressiv talqini individual yondashuvni muddao qilib qo'yadi. Badiiy asar qism va butun hamkor-

[1] Bu haqda qarang: Bahodir Karim. Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil va talqin. –Toshkent: Fan, 2006. – B. 45-46.

[2] Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1994. – B. 14.

ligini belgilaydi, unda stilistik formula intizomi ijtimoiy-falsafiy umumlashmani universal mazmun sari yo‘naltiradi. Shunday ekan, rivoya manerasida uslubiy o‘ziga xoslik asosiy planga chiqadi, ijodkor fitrati qahramon xarakterini alohidalashga zamin hozirlaydi:

Aksar juma kunlari maxdumdan izn olib, Anvar shu o‘rtog‘i uyiga borar, kechkacha Nasim bilan “suhbatlashib” qaytib kelar edi. Anvar shu munosabat bilan Nasim otasi Muhammad Rajab poygachi iltifotiga noil ham bo‘ldi. Nasim o‘rtog‘i Anvar yatimlig‘ini otasig‘a bildirib, majbur qilg‘an bo‘lsa kerak, bir necha hayit mavsumida Muhammad Rajabbek Anvarga kiyimlar ham berdi. Bu iltifot ikki do‘st aloqalarini bir-birlariga yana qattig‘roq bog‘ladi, ayniqsa, maxdum dimog‘ini chog‘ qildi. Zero, Anvar Muhammad Rajab o‘g‘li bilan do‘stlashishi bir kamolat bo‘lg‘anidek, do‘stliq hatto sarpolar kiyishkacha borib yetishi maxdum nazarida yana ayni fazilat edi… Shu sarpo kiyish voqi’asidan so‘ng maxdum Anvarga boshqacha qarab qoldi hamda ich-ichidan “boqsa sen odam bo‘ladirg‘an ko‘rinasan”, deb qo‘ydi. [13]

Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanida tarixiy voqelik psixologiyasi qalamga olinadi, hayotiy ziddiyatlar qamrovi personajlar o‘rtasida hamda qahramon ruhiyatida moddiylashadi. Muallif asarda Solih maxdum xarakteriga murojaat qiladi, hajviy ruhiyat realizmi yordamida qahramon qiyofasini batafsil yoritadi. Xilma-xil vositalar asnosida adib (muallif tavsifi, Ra’no yozgan g‘azal, badiiy nutq manerasi) maktabdor fe’l-atvoriga baho beradi. Lavhada bir nechta bo‘lak sabab hamda oqibat aloqasiga kirishadi: Anvar Mirzo Nasim bilan do‘st tutinadi, Solih maxdum nazdida, bu rishta saodatdan nishona, zero, Muhammad Rajab poygachi nufuzli zot sanaladi. Maktabdor hayotda hamma narsadan manfaat axtaradi. Samimiy va chin do‘stlik qahramon tomonidan «ayni bir fazilat» tarzida baholanadi, ichki nutq tipi (boqsa odam bo‘ladirg‘an ko‘rinasan) bir payt o‘zida ikki personaj tabiatini ochib berishga xizmat qiladi. Pirovardida yaxlit manzara maktabdor Mirzo Anvarga bo‘lgan munosabatini o‘zgartiradi:

Baxtka qarshi, do‘stliq aloqasi uzoq davom etmadi. Bir kun oradag‘i do‘stliq rishtasini o‘lim yag‘mogari kelib uzdi. Nasim o‘n besh yoshida chechakka chalindi va o‘sha kezlarda davosiz hisoblang‘an bu kasaldan o‘nglalmay vafot qildi. Muhammad Rajabbek oilasi uchun bu musibat, albatta, og‘ir edi. Biroq, ulardan ham Anvar uchun og‘ir bir hasrat bo‘ldi. Hatto, ko‘z yoshini marhum ota-onasidan ham ko‘broq Anvar to‘kdi desak, mubolag‘a qilmag‘an bo‘lurmiz. Uch kun mobaynida maktab va maxdumni ham unutib, Muhammad Rajabbek havlisida turib qoldi. Har oqshom Nasim qabri ustida bir soatlab yig‘lab o‘lturdi. Bu yosh yigitcha samimiy chin do‘stlig‘i va o‘rtog‘ig‘a bo‘lgan sadoqati har kimni taajjubka qo‘ydi, qalblarni larzaga soladi[21].

Anvar va Nasim orasida paydo bo‘lgan do‘stlik rishtasi manfaat hamda g‘arazdan xoli edi, bir-biri uchun jonini berishga tayyor ikki o‘smir o‘zaro yaqinligi, dastavval, kishilarga erish tuyulgan bo‘lsada, asta-sekin tevarak-atrofdagilar joriy holatga ko‘nikishadi. Binobarin, tabaqa va imkoniyatlar tafovuti ham bu do‘stlikka rahna sololmaydi. Nasim xatto otasini Anvarga yordam berishga ko‘ndiradi, farzand istagi bilan qahramon hayoti o‘zgarib ketadi. Ayniqsa, o‘n besh yoshida xazon bo‘lgan o‘smir qabri tepasida yig‘lab o‘tirgan do‘st sadoqati Muhammad Rajabbekni ham hayratga soladi: jindek mubolag‘a (hatto, ko‘z yoshini marhum ota-onasidan ham ko‘broq Anvar to‘kdi desak, mubolag‘a qilmag‘an bo‘lurmiz) yigit hayotida ham tub burilish yasaydi. Nufuzli amaldor Anvarni qo‘llab-quvvatlashga jazm qiladi, natija o‘laroq qahramon, Solih maxdum ta’biricha, «tole’i kulib boqadi».Chin do‘stlik har bir davrda qadr topgan, ardoqlangan, illo, og‘ir musibat iskanjasida qolgan mazlum ota ham buni ich-ichdan teran idroklaydi, noyob holdan hayratlanadi.

Rus adabiyotshunosi M.M.Baxtin muallif va qahramon masalalarini tekshira turib, bu munosabat uch xilda bo‘lishini aytgan edi. Birinchi holatda, yozuvchi o‘z qahramoni ustidan hukmronlik qila bilmaydi, uni boshqara olmay qoladi; qahramon o‘z tabiati mantig‘iga ko‘ra yechimga boradi. Ikkinchi holatda, muallif qahramonlarni o‘z ideyasiga to‘la bo‘ysundirib olgan bo‘ladi, ular ko‘proq yozuvchi istagiga binoan harakat qiladilar. Uchinchi holatda esa, qahramonning o‘zi muallifga aylana-

[1] Ko‘rsatilgan adabiyot. – B. 25.

[2] Ko‘rsatilgan adabiyot. – B. 25-26.

di, go‘yo sahnada rol o‘ynayotgandek o‘z shaxsiy hayoti xususida o‘zi estetik mulohaza yuritadi[1].

«Mehrobdan chayon» romanida qahramon harakati uchchala toifani ham qamraydi. Solih maxdum obrazi muallif pozitiv qarashlari bilan muttasil boyitilsa-da, nisbatan ma’naviy daxlsiz rivojlanadi: hayotiy mantiq va badiiy iroda yo‘nalishi sintezi uni ijodiy mustaqillashtiradi, muallif Anvar Mirzo, Ra’no, Nigor oyim obrazlari tadrijiga tez-tez aralashadi, o‘z izmiga soladi. Mantiqiy-xulosaviy yechim sari yo‘nalish uning asosini tayin etadi. Ba’zi holatlarda Abdurahmon domla, Sultonali xarakteri teran falsafiy-ijtimoiy hamda g‘oyaviy-estetik talqinni shakllantiradi.

Badiiy asar tili tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda tilning ayni «ekspressiv vazifasi» atamasi bilan bir qatorda «tilning poetik vazifasi», «tilning badiiy vazifasi», «tilning estetik vazifasi» kabi atamalar ham qo‘llaniladi. Ammo shuni ham aytish kerakki, «tilning estetik vazifasi» atamasi filologik adabiyotlarda nisbatan ko‘p ishlatiladi. Bunday bo‘lishi ham tabiiy, chunki estetik vazifasi tushunchasi ekspressivlik, badiiylik, poetiklik kabi bir qator tushunchalarni ham o‘z ichiga olgan holda ularni umumlashtira oladi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur tushunchalarga qaraganda estetik vazifa tushunchasining qamrovi anchayin keng. Vazifa va uning reallashuv shakli bevosita ifoda malakasi bilan bog‘lanadi, so‘z, so‘z birikmasi yoki jumla moddiylashuv jarayoni ma’no siljishini taqozolaydi. Stilistik sathda tushuncha ikkinchi tushuncha bilan mantiqiy aloqaga kirishadi, mohiyat tasvir materialini aniqlashtiradi. Estetik qiymat aslida mushohada izchilligiga tayanadi, ifoda predmetiaro munosabat poetik nutq ta’sirchanligi hamda jozibadorligini ta’minlaydi:

Bir necha kunlardan beri Safar bo‘zchi xursand edi. Mulla Abdurahmon xizmatdan chiqishig‘a o‘zim sabab bo‘ldim, deb o‘ylar; o‘z so‘zi bilan mulla Abdurahmon kabi bir kishi suvg‘a tushkan nondek shilqillab qolishig‘a: “Ko‘rpangga qarab oyog‘ uzat, mullavachcha!” deb o‘zicha kulib qo‘yar edi. Kecha Samad bo‘qoqni ko‘chada uchratib, piching otdi: “Mirzaboshim tegiga suv kelipti-ya, gapingni to‘g‘ri chiqishig‘a qara, Samad” – dedi. Chunki Anvarga borib aytkan xabarni shu Samad bo‘qoqdan eshitkan edi. Samad bo‘qoq uning bu pichingidan qizardi: “Qulog‘img‘a yanglish kirgan ekan-da, ablah!” deb gapni kulgulikka burdi. Safar bo‘zchi ham “payrav” qildi. “Bir qo‘chqorning boshi ketkuncha, minglab qo‘yning boshi kesilar emish, deb ayt domlangg‘a!” dedi. Samad bo‘qoqindamadi. Soniyan, bunga uncha zarurat ham sezilmadi[21].

«Mehrobdan chayon» romanining to‘pori va dangal, oqko‘ngil va sodda qahramoni Safar bo‘zchi mudomi odamlarga yaxshilik sog‘inadi, boshqalarni ham o‘zidek ko‘radigan personaj shosha-pisha qaror chiqaradi. Piching, kinoya va kesatiq uning nutqini bezaydi, oddiy mehnatkash xalq vakili sifatida obraz goh janjal-munozaraga sababchi bo‘lsa, goh odamlarni bir-biri bilan yarashtirishni istab qoladi. «Bir necha kunlardan beri Safar bo‘zchi» yaxshi kayfiyatda, mulla Abdurahmon «xizmatdan chiqishig‘a» o‘zini sababchidek his qiladi. Aslida «fisqu fasod» bilan mashg‘ul mahalla imomi qismati hal qilinishiga Safar bo‘zchi keltirgan xabar turtki beradi. Qahramon xuddi Sultonali yanglig‘ Anvar mirzoga ixlos qo‘ygan, uning odam ayirmasligi, xushmuomalaligini yoqtiradi. «Yaqinda mirzaboshimning tagiga suv keladi» deya ta’kidlagan mulla Abdurahmon so‘zlarini Samad bo‘qoqdan eshitgan, ko‘chada ko‘rib unga piching qiladi. Gapni kulgulikka burgan personaj biroz qizaradi, qo‘shnisi «payravi»ga nisbatan mulohaza bildirishga qiynaladi.

Har bir realistik asar tarixiy konkretlik xususiyatlariga egadir. Ammo tarixiylik darajasi har bir asarda turlicha bo‘ladi va bu tarixiylik xilma-xil yo‘llar bilan ifodalanadi. Zamonaviylik degan tushuncha ham tarixiylikni rad qilmaydi. Asar bugungi kunimizning tarixiy ruhini, asl mohiyatini ochib bera olganligi uchun ham zamonaviydir. Abdulla Qodiriy tarixiy va zamonaviy mavzuda yozilgan asarlarini qimmati shundaki,ularda XIX asr o‘zbek hayoti tarixiy ruhining asl mohiyati estetik ravishda mujassamlantirilgan[31]. Tarixiy aniqlik tushunchasi nisbiy xarakter kasb etadi, binobarin, realistik talqin fakt va faraz uyg‘unlashuvini taqozo etadi.

[1] Bu haqda qarang: Bahodir Karim. Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil va talqin. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 56-57.

[2] Ko‘rsatilgan adabiyot. – B. 95-96.

[3] Qo‘shjonov M. O‘zbekning o‘zligi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1994. – B. 25.

Ruhiyat realizmini qayta tiklash jarayoni moziy va bugun o‘rtasida mavjud rishtani belgilashdan iborat. Adib qalamiga mansub asarlarda eski hamda yangi tutum munosabati tahlilga tortiladi, tarixiy tanlov tavsifi matn poetik strukturasini belgilaydigan omilga aylanadi. «Mehrobdan chayon» romanida zamonaviylik ruhi ancha teranlashadi, xalq hayoti burilish nuqtasi – o‘tish davri ziddiyatlari keskinligi tadqiq markaziga ko‘tariladi:

Safar bo‘zchi darbozadan kirganda, ichkaridan yasamol bir xotin chiqib qoldi. Munday yaxshi kiyingan va husndor xotinni ul o‘z umrida birinchi martaba ko‘rgani uchun bo‘lsa kerak, xotin yashirinib olg‘uncha, undan ko‘zini olmay qaradi. Taajjub va hayrat ichida kelib mehmonxonag‘a kirdi. Mehmonxonada Anvar yo‘q, Anvar o‘rnida begona bir kishi – Sultonali mirzo o‘lturar edi. Safar bo‘zchi salom berdi. Sultonali mirzo javob berib, o‘lturgan joyidan Safar bo‘zchig‘a joy ko‘rsatdi. Safar bo‘zchi bir oz so‘zsiz o‘lturg‘andan keyin, «mirzasini» so‘radi. Sultonali mirzo, Anvarning qo‘shnilaridan birinikiga zarur yumish bilan chiqib ketkanligi va bir ozdan so‘ng kelishini, undan mirzoda qanday bir yumishi borlig‘ini savol qildi[11].

Anvar mirzo ikki hammaslagi – Safar bo‘zchi va Sultonali dastlabki uchrashuvi shunday kechadi: Safar bo‘zchida biroz hadik mavjud, Sultonali esa uni Anvar mirzo soddaligi va bag‘rikengligidan foydalanishni mo‘ljallab kelgan kimsaga o‘xshatadi. Keyingi paytlarda aholi orasidan ilinj hamda manfaat ko‘zlayotgan faqirlar ko‘payganligi bunga asos bo‘ladi, ehtiyotkorona boshlangan muloqot ikki personaj inoqlashib ketishi bilan yakunlanadi. Qiyin-qistov bilan Safar bo‘zchi muddaosini aytadi, jiddiy tashvishga tushib qolgan Sultonali shoshilinch chora ko‘rishga kirishadi. Eng avvalo, xonga chiroyli qizlarni tavsiya etadigan qo‘shmachi – Gulshanni topish lozim! Buni Anvar mirzodan sir tutishni iltimos qilgan qahramon muqarrar fojea oldini olishga harakat qiladi, Safar bo‘zchini yolg‘iz qoldirib, shosha-pisha chiqib ketadi. Xolis xatti-harakatlar samara bermaydi, uchta ig‘vogar tomonidan Solih maxdum hovlisiga yo‘llangan xon bekasi ishni pishitadi.

Har bir davrda kitobxon Abdulla Qodiriy «Mehrobdan chayon» romani estetik qiymatini o‘zicha chamalaydi, talqin qiladi va baholaydi. Xayotiy-maishiy asoslari teranligi, tasvir yo‘sini betakrorligi, ifoda yurishlari jozibasi, milliy o‘lcham aniqligi, umuminsoniy qadriyatlarga hamohangligi bilan o‘quvchi shuurini band etadigan asar badiiy mahorat yorqin namunasi, ma’naviy mezon muammosi pishiq-puxta belgilangan matn quvvat-hofizasi bilan hamisha e’tiborni tutib turadi. Adib tavsiya etadigan adabiy-estetik a’mol qudratini quyidagi omillar ta’minlaydi: xarakter iroda yo‘nalishi xilma-xilligi, mantiqiy bog‘lanish mustahkamligi hamda qayta ishlangan poetik nutq o‘ziga xosligi! Go‘zallik va hayrat qorishgan ijod falsafasi zalvoritahlilu talqinlarda yangi-yangi qirralarini namoyish qilaveradi:

Solih maxdum 1230-1290-nchi hijriy yillarda “Ho‘qandi firdavsmonand”da yashag‘an bir muallim va imom, o‘z zamonasining istilosi bilan aytkanda “maktabdor domla”dir. Solih maxdum sinfi jihatdan ulamo oilasiga mansub bo‘lib, bobosi Olimxon va Umarxon davrlarida muftilik, qoziliq mansablarida xizmat qilg‘an, otasi ersa Qo‘qonning Madali (Muhammadali) xon madrasasida necha yillar mudarris bo‘lgandir. Qisqasi maxdum ota-bobolari xonlar qoshida mumtoz va xalq nazarida “sharaflik va muhtaram” mavqi’ni ushlab kelganlar. Biroq bu mumtoz silsila bizning maxdumgacha yetib kelalmay, Mamadalixonning qatli bilan birga kesilgan[21]. Abdulla Qodiriy tarixiy ruhiyat realizmini shakllantirish jarayoni mobaynida kitobxonni ishontirish uchun bor iqtidorini ishga soladi: adib hujjatlashtirilgan biografik ma’lumotlar keltiradi, vaqt sanasi hamda jo‘g‘rofiy makonni aniq ko‘rsatadi, voqea-hodisalar bayoniga faol ijodiy munosabat bildiradi. Roman «maktabdor domla» tavsifi bilan boshlanadi, ulamo oilasida voyaga yetgan qahramon sifat-xislatlari butun matn davomida to‘ldirib boriladi. Yuksak nufuzga ega xonadon vakillari «imtiyozi» Solih maxdumgacha yetib kelmaydi, fatvo berishdan bosh tortgani uchun jazolangan bir guruh din arboblari qatorida uning ota-bobosi ham faoliyatdan mahrum bo‘ladi. Muallif tarixiy ma’lumotni batafsil yoritadi, Qo‘qon xonligida yuzaga kelgan vaziyat keksa va tajribali ulamolarning yosh din peshvolariga almashtirilishi bilan mantiqiy yakun topadi. Yozuvchi faktdan foy-

[1] Ko‘rsatilgan adabiyot. – B. 100.

[2] Ko‘rsatilgan adabiyot. – B. 3.

dalanish jarayonida Solih maxdum kelib chiqishi – «palagi toza» ekanini uqtiradi.

Bahodir Karim o‘zbek adabiyotshunosligida Abdulla Qodiriy ijodini teran tadqiq etayotgan adabiyotshunoslardan biri. Olim keng jamoatchilikka taqdim etgan «Qodiriy nasri – nafosat qasri» (2000), «Qodiriy qadri» (2003), «Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil va talqin» (2006), «Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur» (2014), «Abdulla Qodiriy fenomeni» (2019), «Ikki daho – ikki bebaho» (2020), «“O‘tkan kunlar” ibrati» (2021) tadqiqotlarida buyuk romannavis hayoti va ijodiy faoliyati xilma-xil rakurslarda baholanadi. Ilmiy izlanishlarda yozuvchi fenomeni, tarixiy roman poetikasi, buyuk adib faoliyati xorijda o‘rganilishi, badiiy matnda xronotop muammosi, poetik mahorat masalasi tahlilga tortiladi. Muallif Abdulla Qodiriy ijodini germentik tafakkur asnosida umumlashtiradi, munaqqid «Ikki daho – ikki bebaho» kitobida esa Zahiriddin Muhammad Bobur va Abdulla Qodiriy shaxsiyati qiyosiy-tipologik sathda tekshiriladi:

Yozuvchining badiiy-estetik ideali, badiiy-estetik tafakkuri matnda obyektivlashgan harf, so‘z, gaplardagi, badiiy asar tilidagi tafakkurga nisbatan ancha keng. Badiiy asar matniga yaxlit organizm sifatida qarash va germenevtik doirani (butun qismlarga ajrashi va qismlardan butun yuzaga kelishini) his etish eng to‘g‘ri va xolis adabiy-ilmiy tafakkurga xos xususiyat. Zotan, badiiy asarga vulgar sotsiologik munosabat bilan germenevtik munosabat aslo tent kuchli emas. Yozuvchi estetik idealini uning asarlaridan, aynan asarlari mohiyatiga singdirilgan go‘zal g‘oyani yaxlit matn, asar tilidan ajratib talqin qilish germenevtik mezon buzilishini ta’minlaydi[1]. Muallif germenevtik tafakkur nazariyasini ijtimoiy talqin bilan aralashtirib yubormaslik tarafdori, zotan, sotsial munosabatda g‘oya mafkura tashuvchisi sifatida hayotiy mantiq hukmronligiga imkon yaratadi:

Umuman, Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanini anglash jarayonida subyektlararo munosabat shakllanadi. Mavzu, g‘oya, muammo hamda struktura aslida umumiy xarakter kasb etadi, tushunish davomida ma’naviy-ruhiy markaz xususiylashadi. Uzluksiz ta’sir shaklida namoyon bo‘ladigan mashg‘ulotda manfaatlar birlashadi, mutolaa, mushohada va idrok matnni aniqlovchi vositalar sanaladi. Subyektiv munosabatdan tarixiy qamrovga ko‘chgan mohiyat psixologik holatda reallashadi, falsafa va mantiqaro uyg‘unlik san’at fenomenini kun tartibiga chiqaradi. Aynan badiiy asar matni inson hamda borliq talqinini individuallashtiradi, tasvir bilan ifoda bir-biriga o‘tib turishi masalani ancha murakkablashtiradi. Tahlil malakasida butun hamda qism aloqasi tayanch nuqta vazifasini o‘taydi. Shu ma’noda, ijod mahsuli ham, uni his etish mexanizmi ham shaxsiylashadi.

Rezume: Using the example of Abdullah Kadiri’s novel “Mehrobdan Chayan,” the article analyzes the factors in the formation of attitudes towards the text, the connection of literary interpretation with the socio-philosophical basis, the type of thinking and the integrity of the criteria for aesthetic evaluation.

Резюме: В стате на примере романа Абдулли Кадири «Мехробдан Чаён» анализируются факторы формирования отношения к тексту, связь литературной интерпретации с социально-философской основой, типом мышления и целостносьтю критериев эстетической оценки.

[1] Bahodir Karim. Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil va talqin. –Toshkent: Fan, 2006. – B. 38.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 6
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

NURIDDIN SHUKUROV – MUMTOZ ADABIYOT BILIMDONI

Tugalov Toshpo'lat Yuldashevich,
Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi

Taniqli munaqqid, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor Nuriddin Shukurov nafaqat XX asr o'zbek adabiyotining zukko tadqiqotchisi, balki adabiy jarayonlar istiqbolini oldindan ko'ra bilgan, o'zbek mumtoz adabiyotini ham qunt bilan o'rgangan, bu mavzuda keng qamrovli mulohaza va mushohada yurita oladigan bilimdon munaqqid edi. Ayni damda faoliyat yuritayotgan adabiy tanqidchilar ham Nuriddin Shukurovni adabiy jarayonlarga o'ta talabchan va hozirjavob adabiyotshunos sifatida e'tirof etishadi, eslashadi.

Novator olim Alisher Navoiyning "Parim bo'lsa...", "Qora ko'zim" kabi g'azallarini tahlil etib, respublikada bir g'azal talqiniga maxsus maqola yozish tashabbusini boshlovchilaridan biri bo'lgan. U an'anaviy janrlar haqidagi risolasida Erkin Vohidovning ijodiga bag'ishlangan adabiy portretida o'zining mumtoz she'riyat bilimdoni sifatida ham namoyon etgan. Olimning Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi daho ijodkorlarning g'azallariga bag'ishlangan sharhlarini kuzatganimizda o'ta sinchkovlik, nozik did va adabiy ta'bli tadqiqotchining o'ziga xos xulosalariga amin bo'lamiz.

"Qayd etmoq lozimki, Nuriddin SHukurov tarixiy va zamonaviy poetikani, aruz va barmoq sistemalarini, she'r tuzilishi qonuniyatlarini chuqur egallagan, ularni mumtoz va hozirgi zamon she'riyati tahliliga mohirlik bilan tadbiq qila oladigan nazariyachi olim edi. Esimda, uch jilddan iborat "Adabiyot nazariyasi" asarining SamDU o'zbek va tojik filologiyasi fakultetida muhokamasi o'tkazildi. Kitob mualliflaridan Izzat Sulton, Matyoqub Qo'shjonov, aruzshunos va she'rshunos olim Ummat To'ychiev va boshqalar Toshkentdan keldilar: ma'ruzalar, chiqishlar, bahsu munozaralar bo'ldi, Samarqandlik adabiyotshunos olimlar ham akademik V.Abdullaev, B.Valixo'jaev, S.Mirzaev, N.SHukurov, R.Muqimov va boshqalar ham jiddiy masalalar ustida fikr-mulohazatarini o'rtaga qo'ydilar, o'z bilag'onliklarini namoyish qildilar. Navbat uch jilddagi aruz sistemasiga bag'ishlangan fasllar bahsiga etganda N.Shukurov yirik aruzshunos olim, kitobdagi aruzga oid nazariy fikrlar muallifi Ummat To'ychiev bilan bahsga kirishdi va o'zining haqligini ajoyib tarzda isbotlay oldi. SHu munosabat bilan kitobdagi aruzga oid fikrlarga qo'shimcha va tuzatishlar kiritiladigan bo'ldi.[1]

Professor Nuriddin Shukurov o'z davrida poetika, badoe', sanoe' va aruz ilmining chinakam bilimdoni sifatida mumtoz she'riyat namunalaridagi aruz bahrlari va vaznlarini, Navoiy, Ogahiy, Bobur, E. Vohidov g'azaliyoti va ijodiy metodini zukkolik bilan aniqlab tahlil qilib bergan, Uning tadqiqot va maqolalari mumtoz, hozirgi zamon she'riyati estetik boyligini, poetikasini, badiiy-uslubiy jihatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan.[2]

Navoiy she'riyatiga xos obrazlar, ramziy-majoziy, ilohiy ishqqa xos asrorlar, g'azalning hatto baytlar aro ma'nosini bilishga hamma vaqt ehtiyoj bo'lgan. Nuriddin SHukurov ilmiy faoliyati davomida va ilmiy jamoatchilik o'rtasida g'azallarni baytma-bayt sharhlash amaliyotini boshlab bergan jonkuyar va zahmatkash sinchi sifatida birinchilardan edi.

Alisher Navoiyning "Parim bo'lsa, uchib qochsam..." g'azalini o'qib, mulohaza yuritar ekan, olim g'azalning har bir tarkibiy qismi, obrazlar, o'xshatishlar, so'z mohiyati va yuki, uning ta'sir kuchi va o'quvchining saviyasi va tayyorgarligini

[1] Орзибеков Р. Устоз ёди.. Соғинч. – Самарқанд, 2005. – Б. 26.

[2] Шукуров Н. Сўз сеҳри, шеър меҳри. – Самарқанд: Зарафшон, 1992. – Б. 2-59.

ham sira nazardan qochirmaydi. G‘azalni sodda va izchil, samimiy va yorqin ifodalarda izohlab beradi. SHu maromda munaqqid bor mahoratini ishga solib kitobxonni avvalo, Navoiy hazratlarini maqsad va muddaosini anglashga, keyin esa g‘azaldagi so‘zlarning mag‘zini chaqishga, tasavvur olamini kengaytirishga diqqat qaratadi.

“Hazrat Alisher Navoiy asarlarida shunday so‘zlar borki, zohiran kishiga ma’nolari tushunarlidek tuyulsa-da, botinan unday emas. Zero, ularning zamirida muayyan bir sirli ma’nolar yashirin. Oddiy kitobxon uchun bu ma’nolarni anglash har doim ham oson kechavermaydi. Ular badiiy so‘z maqomining san’atkorna ifodasi namunalaridar.”[1] Shu nuqtai nazardan Nuridddin Shukurov o‘quvchi uchun misralar qatida yashiringan so‘zlar, timsol va ma’noga yo‘l ochadi. Bunda sharh va izohlar orqali asar mohiyatiga etgan muxlisning shoirga muhabbati va ixlosi oshib, munaqqidning ilmiy-amaliy iqtidoriga tahsin aytadi va g‘azaldan zavq, bahra oladi. Unda keyingi g‘azallarni o‘qish va mazmunini chaqishga rag‘bat uyg‘onadi. Bu qoniqish va qiziqishning sababchisi ilmiy-amaliy bilim, iqtidor esh bo‘lgan tahlildir.

Munaqqid “Parim bo‘lsa, uchib qochsam...” g‘azalini yuqorida qayd etganimizdek baytma-bayt sharhlaydi, kerak bo‘lsa, shoir ta’birining asoslarini ko‘rsatib, izohlaydi. Misol uchun:

Chiqib bu dayrdin Isog‘a nevchun hamnafas bo‘lmay,

Bihamdilloh tajarrud birla hammatdin qanotim bor.-misralarini shahlar ekan, olim Iso payg‘ambarga oid rivoyatni keltiradi va o‘quvchi shuurini yangi bir ma’lumot va bilim bilan boyitadi. Nuriddin Shukurov Alisher Navoiyning bu g‘azalini o‘quvchi ko‘ngli, ongi shuuriga singdirib, maroqli saboq berib borar ekan, so‘nggi ettinchi baytdagi shoir arzini kengroq sharhlashga ehtiyoj sezadi.

Navoiy bilki, shog‘ ko‘ngli manga qayd o‘lmas, billoh,

Agar kavnayng‘a xashok chog‘lig‘ iltifotim bor.

Darhaqiqat, daho shoirning jonidan o‘tgan shubha va alam nedir? Sinchi olim “Xo‘sh, Navoiyning bunchalik kuyinishining, o‘rtanib nola-faryod chekishining sababi nimada? Buning hayotiy asoslari bormi?-degan savol qo‘yib, “Ha, bor!” deya javob beradi va kitobxonga muallif haqida ham qo‘shimcha ma’lumotlar beradi, Alisher Navoiy dahosi, uning zididyatlarga boy hayoti va ijodining mohiyatini anglashga rag‘batlantiradi.

Nuriddin SHukurov g‘azal yozilishiga sabab bo‘lgan omillarni birma-bir sanab o‘tadi va “1460-1461 yillar oralig‘ida Abu Said saltanatidagi zulm-istibdoddan zorlanib, “Parim bo‘lsa, uchib qochsam...” g‘azalini yozgan.”-[2]deb fikrini asoslaydi. Kitobxon munaqqidning mohirona sharh va tahlillari tufayli nafaqat g‘azaldan bahramand bo‘ladi, daho shoirning og‘ir ijtimoiy davrdagi ruhiy holatidan, ijodkorning shaxs sifatidagi kurashchan pozitsiyasi, ilg‘or g‘oyalaridan ham asrlar osha xabar topadi. Olim ijod mahsulini ortida ham shaxs hayoti, dunyoqarashi, davr va zamon, oddiy inson his-tuyg‘ulari borligi, har bir she’rni keng qamrov va tahlil orqali tushunish zarurati borligi tanqidchining nazaridan qochirilmasligi kerak degan xulosaga keladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur g‘azallaridagi romantik buyoqlar, so‘zlar jilvasi, ulardagi hayotiy asoslar professor Nuriddin SHukurovni ham bataamom rom aylagan edi. Olimning Zahiriddin Muhammad Bobur g‘azallariga bag‘ishlangan sharhlarini kuzatganimizda o‘ta sinchkovlik, nozik did va adabiy ta’bli tadqiqotchining o‘ziga xos xulosalariga amin bo‘lamiz.

Adabiy tanqidchi Zahiriddin Muhammad Bobur g‘azallarini tahlil qilish va sharhlash jarayonida asarning yozilish sabablari, ijodkorning his-tug‘ularining hayotiy asoslariga murojaat qilishni afzal ko‘radi. Bu usul kitobxonning shoir hayoti bilan ijodining hamohangligini anglash bilan birga ijod mahsulining ta’sir darajasini kuchaytiradi. Nuriddin SHukurov Boburning “Qoldimu?” radifli g‘azalini sharhlar ekan ana shu yo‘ldan boradi va kitobxonga yanada keng va qo‘shimcha ma’lumot berib, uni izlanishga undaydi: “Boburning g‘azallarini o‘qigan har bir odam ularni birinchi navbatda an’anaviy ishqiy g‘azallar sifatida anglaydi va shunday qabul qiladi. Lekin, “Boburnoma”da berilgan ma’lumotlar ayrim g‘azallarninn konkret sarguzashtlar, muayyan hodisalar ta’sirida yozilgan-

[1] Абдулхайиров М. Бадиий сўз мақоми. “Ўзбекистон адабиётива санъати” газетаси. 2014 йил, 22-сон. 4-бет.

[2] Шукуров Н. Сўз сеҳри, шеър меҳри. – Самарқанд: Зарафшон, 1992. – Б. 9.

ligidan, shunga ko‘ra ularning zamirida aniq hayotiy kechinmalar, kuchli ijtimoiy mazmun yashiringanligidan dalaolat beradi.” [1]

Kitobxon ko‘z o‘ngida Bobur qalbining ehtiroslari bilan birga shu davr voqea-hodisalari jonlanib jonli hayot kartinasi paydo bo‘ladi. “Hayotiy asoslar va romantik buyoqlar” maqolasida olim shunday yozadi: Ota yurti Andijonni qo‘ldan chiqarish; Movarounnahr poytaxti Samarqandni egallash yo‘lidagi umidlarning puchga chiqishi Boburni g‘oyat og‘ir foje’ ahvolga solib qo‘ygan edi. Og‘ir muvaffaqiyatsizliklardan, sargardonlikdan hosil bo‘lgan g‘am-alam, iztiroblar Bobur ruhini muttasil ezardi. U:

Bormoqqa ne maskan muyassar,

Turmoqqa ne davlat muqarrar

deb o‘rtanardi. Ana shu ruhiy azoblar jarayonida “YOd etmas emish kishini mehnatda kishi” misrasi bilan boshlanadigan ruboyisini yozadi. Nihoyat ana shu kechinmalarning aniq ifodasi sifatida “Jonimdan o‘zga yori vafodor topmadim” deb boshlanuvchi g‘azali vujudga keladi.”-[2]degan fikrni aytadi.

Chindanam ulug‘ shoir va sarkarda hayotini yaxshi o‘ragangan kishi uning asarlarida hayotiy asoslar romantik buyoqlarda juda ustalik bilan yaqqol aks ettirilganini his etib turadi. “Qoldimu?” radifli g‘azalning mazmun-mohiyatini ochib berish asnosida olim bu g‘azal ham Bobur hayotiga doir konkret sarguzashtlar, muayyan hodisalar ta’sirida yozilgani va kuchli ijtimoiy mazmun yashiringanini bayon qiladi.

Charxning men ko‘rmagan jabru jafosi qoldimu?

Xasta ko‘nglim chekmagan dardu balosi qoldimu?

Tadqiqot avvalida olim “Xo‘sh, Bobur klassik she’riyatdagi an’analarni, romantik tasvir usulini davom ettirgani uchun bu g‘azal shunchalik dardli bo‘lib chiqdimikin yoki bu she’rdagi musibat konkret bir hayotiy sarguzasht voqea ta’sirida yuzaga keldimikin?”–degan savolga javob izlaydi. Boburning 1507 yil qishida kichik qo‘shin bilan tog‘ yo‘li orqali Hirotdan Qobulga borayotganida qorli bo‘ron hujumiga duch kelgani, bu yo‘lni bir hafta davomida bosib o‘tgani, qadamba qadam siljigani haqidagi “Boburnoma”dagi muxtasar ma’lumotlarga to‘xtalib, ushbu satrlarga shu voqea asos bo‘lganini dalillaydi.

Munaqqid e’tiroficha, Bobur qor va bo‘ron hujumi tufayli hosil bo‘lgan azob-uqubatni ochiq aytmay, kechinmalarini charx-falakning oshiqlar boshiga solayotgan jabru jafolaridan biri sifatida umumlashtiradi:

Meni xor ettiyu qildi muddayig‘a parvarish,

Dahri dunparvarni o‘zga muddaosi qoldimu?

G‘azalda konkret voqea tufayli hosil bo‘lgan kechinma ana shu tarzda romantiklashtirilgan bo‘lsa-da, g‘azalning yozilish tarixidan xabardor kishi bu misralar ortida hayotiy kechinma, mulohazalar ham mavjudligini ilg‘ab olishi mumkin. Olim “Baytning tagida yana-beshavqat dunyo meni o‘z yurtimdan, vatanimdan, ota-bobom poytaxti Samarqanddan ayirib xor etdi, mening raqiblarimga g‘amxo‘rlik ko‘rsatdi, ularni g‘olib qildi, dahri dunparvar(pastkash dunyo)ning yana qanday muddaosi bor ekan? degan mazmun ham bor.” [3]deydi.

Biroq, mazkur g‘azal aniq voqea, hodisalar ta’sirida yozilgan bo‘lsa-da, ishqiy g‘azal sifatida takomilga etgan. Bobur nozik didli san’atkor-ijodkor sifatida ijtimoiy voqelikdan majoziy ma’nodagi “quyosh” so‘zi orqali yor obrazini yuzaga chiqaradi.

Meni o‘ltirdi, javru jafo birla u quyosh,

Emdi tirguzmak uchun mehru vafosi qoldimu?

Bu bayt she’rga an’anaviy ishqiy g‘azal xususiyatini bag‘ishlaydi. Tabiat hodisasi tufayli hosil bo‘lgan kechinma ishqiy kechinmaga aylantirilgan va u romantik buyoqlarda umumlashtirilib ifodalangan.

Nuriddin SHukurov “Boburning o‘quvchi qalbini, ruhini to‘la qamrab oluvchi g‘azallari ko‘p. Ana shulardan biri “Qaro zulfing firoqida...” deb boshlanuvchi she’rdir. Bu she’rda Boburning yuksak iste’dodi, lafziy va ma’naviy san’atlardan foydalanish mahorati, ishq-muhabbat, vafo-sadoqat, gumanizm g‘oyalarini asosiy leytmotiv qilib olish tendensiyasi yaqqol mujassamlangandir.” [4]-deb ta’kilaydi, baytma-bayt tahli qiladi.

[1] Шукуров Н. Сўз сеҳри, шеър меҳри. – Самарқанд: Зарафшон, 1992. – Б. 11.

[2] Шу китоб, 12-бет.

[3] Шукуров Н. Сўз сеҳри, шеър меҳри. – Самарқанд: Зарафшон, 1992. – Б. 14.

[4] Шу китоб, 15-бет.

Qaro zulfing firoqida parishon ro‘zg‘orim bor,

Yuzingning ishtiyoqida ne sabru ne qarorim bor.

Birinchi baytdagi tanosib san’ati, oshiqlik pafosi g‘azalning keyingi baytlarida yanada kuchayib boradi. Har baytda ichki qofiyadoshlik usulining qo‘llanilishi, har yarim misraga alohida jumlaning sig‘dirilishi g‘azal ritmiga alohida bir o‘ynoqilik, jonlilik bag‘ishlashi, keyingi baytlarda ham tanosib san’ati, ichki qofiya va radiflar, kuchli poetik fikr Bobur g‘azaliyotining yorqinligi o‘ziga xosligini ifoda etishini qayd etadi:

Fig‘onim oshdi bulbuldin, g‘ami yo‘q zarra bu quldin,

Base, Bobur, o‘shal guldin ko‘ngilda xor-xorim bor.

Munaqqid har bir g‘azal tahlilida she’riy san’atlar, uslub rang-barangligi, oshiqlik tuyg‘ulari, yuksak badiiylik kitobxonning zavq-shavqi va ma’naviy lazzat olishi manbaidir deb qaraydi.

Taniqli adabiyotshunos Hotam Umurov olimning “Hamma maqolalarida ham tanqidiy-falsafiy salohiyati yaqqol ko‘zga tashlanadi; jo‘shqin sub’ektiv qarashlar ilmiy mushohada bilan birlashadi; estetika erishagn so‘nggi yutuqlarga amal qilish va ilmiy muammoni qiziqarli yoritish san’ati ko‘zga baralla tashlanadi; ilmiy-mantiqiy izchillik tadqiq va tahlil bilan omuxtalashib ta’sirchanlikni, isbotni, ishonchni yuzaga chiqaradi.” – deydi.[1]

Nuriddin Shukurov g‘azal janrining favqulodda keng imkoniyatlarini ko‘rsatib o‘tar ekan, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Erkin Vohidov, Haydar Yahyo, Jamol Kamol erishgan yutuqlar yangi mazmun, shakl, badiiy so‘z mo‘jizalarini ilmiy tadqiq etib, zamonaviy she’riyat yaratishda muallif mahorati sirlarini kashf etilishiga urg‘u beradi. Ijodkor mahorati asarning asl yutug‘ini belgilashi haqida birinchilardan bo‘lib tahliliy maqolalariga e’tibor qaratadi. Bu jihat ham adabiyotshunos olimning milliy tanqidchiligimizdagi ilmiy izlanishlari o‘ziga xos tadqiq jabhasida mahorat egasi ekanigini oydinlashtiradi.

Darhaqiqat, aruzda ilmiy tadqiqotlar olib borish kishidan juda katta salohiyat talab etadi, Nuriddin Shukurov o‘zbek adabiyotining xolis bilimdoni, mumtoz adabiyot ilmining haqgo‘y donishmandi edi.

Rezyume. Mazkur maqolada O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, professor Nuriddin Shukurovning nafaqat XX asr o‘zbek adabiyotining zukko tadqiqotchisi, balki adabiy jarayonlarning istiqbolini oldindan ko‘ra bilgan, o‘zbek mumtoz adabiyotini ham qunt bilan o‘rgangan, bu mavzuda keng qamrovli mulohaza va mushohada yurita oladigan bilimdon munaqqid sifatida amalga oshirgan ilmiy tadiqotlari haqida so‘z yuritiladi. Jumladan, olimning mumtoz adabiyotimiz namoyandalari Navoiy va Bobur ijodi, mumtoz she’r poetikasi, aruz vazni borasidagi izlarnishlari hamda ushbu tadqiqotlar adabiyotshunoslar tomonidan e’tirof etilganligi haqidagi fikrlar maqolada o‘z aksini topgan.

Resume. This article describes the scientific research of the Honored Scientist of Uzbekistan, Professor Nuriddin Shukurov, not only as a brilliant researcher of Uzbek literature of the XX century, but also as a researcher who foresaw the prospects of literary processes, painstakingly studied Uzbek classical literature, capable of comprehensive reflection and observations on this topic. The article reflects, in particular, the scientist’s views on the work of the classics of our literature Navoi and Babur, on the poetics of classical poetry, on the weight of Aruz, as well as on the recognition of these studies by literary critics.

Резюме. В данной статье рассказывается о научных исследованиях заслуженного деятеля науки Узбекистана, профессора Нуриддина Шукурова не только как гениального исследователя узбекской литературы XX века, но и как ученого-исследователя, предвидевшего перспективы литературных процессов, кропотливо изучавшего узбекскую классическую литературу, способного к всесторонним размышлениям и наблюдениям на эту тему. В статье отражены, в частности, взгляды ученого на творчество классиков нашей литературы Навои и Бабура, на поэтику классической поэзии, на вес аруза, а также на признание этих исследований литературоведами.

[1] “Устоз ёди” китоби. Ҳ. Умуров. “Нуриддин Шукуровнинг мақоланавислик санъатига чизгилар” мақоласи. СамДУ нашри. 2005 йил. 68-бет.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 6
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TURKIYADA XALQ ERTAKLARINING TO'PLANISHI VA O'RGANILISHI

Saydullayeva Aziza Ubaydullayevna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktaranti

Ertak ilk davrlardan boshlab bugunimizga qadar yetib kelgan eng ahamiyatli ma'naviy xazinalarimiz orasidan o'rin olgan. Har bir millatga tegishli bo'lgan ertaklar dastlab o'sha xalqning ilk mifik qarashlari bilan ozuqalangan va keyinchalik vaqtlar o'tishi bilan o'sha millatning bor qadriyatlarini o'zida mujassam etgan. Ildizi moziyda bo'lgan ertaklar ila go'zal bir olamaro sayr etilar ekan, yaxshi bilan yomonning; axiy bilan saxiyning; mehribon bilan bag'ritoshning; kuchli bilan kuchsizning o'rtasidagi kurashga duch kelinadi. Bu kurashlar haq bo'lgan kishi naqadar zaif, naqadar qiyin vaziyatda bo'lsa-da, oxir-oqibatda albatta zafar qozonishi, haqiqatni hech bir yovuz kuch yenga olmasligidan xabar beradi. Tinglovchi yoki o'quvchiga ertakdan olishi kerak bo'lgan nasihatni sehrli uslubi orqali yetkazadi. Ertaklarda ko'p qirrali hayot saboqlari yashirindir.

Ma'lumki, xalq ijodining bu turi turkiy millatlar orasida o'zgacha nomlanishga egadir. Masalan, o'zbeklarda "ertak", ozaybayjonlarda "nag'il", qozoqlarda "shabuv", turkmanlarda "ertaki", turklarda esa "masal" tarzida qo'llaniladi.

"Masal" so'zi arab tilidan turk tiliga o'tgan bo'lib, o'zbek tilidagi "ertak" so'zining turkcha nomlanishidir. Turkiyaning Onado'li qismida masal so'zi o'rnida "metel, mesele, matal, hekâ, hikâ, hikiya, hekeya, oranlama, ozanlama ve nagıl" shakllari ham qo'llaniladi. TDK (Türk Dil Kurumu)ning lug'ati (Güncel Türkçe Sözlük)da masal so'zi quyidagicha izohlangan: "Asosan xalq tomonidan yaratilgan, hayoliy, og'zaki tarzda yetib kelgan, ko'pincha insonlar, hayvonlar, jodugar, jin, dev, pari va boshqa mavjudotlarning boshidan kechgan favqulodda voqea-hodisalardan hikoya qiluvchi adabiy tur".[1] "Usmonlicha-Turkcha ensiklopedik lug'ati"da esa ertakka: "masal, tarbiya va axloqqa foydali bo'lgan hikoya" tarzida izohlanadi.[2]

Saim Sakaog'li "Masal araştırmaları" ("Ertak tadqiqotlari") asarida masal (ertak)ga quyidagi ta'rifni keltiradi: "Voqealarning sodir bo'lgan joyi va zamoni aniq bo'lmagan, pari, dev, jin, ajdarho kabi qahramonlarni tamsil etib, aniq kishilarni tamsil etmagan hikoyalardir".[3] Ertak janri ustida izlanish olib borgan yana bir turk olimi Naki Tezelning ta'rifiga ko'ra ertak: "Asosan g'ayritabiiy qahramonlar va sarguzashtlarga o'rin berilgan, hayoliy mavzular, quloqdan quloqqa yetkazilgan holda yetib kelgan hikoyalardir".[4] Pertev Naili Boratov esa: "Nasr yo'li bilan aytilgan, diniy va magik inonchlardan va marosimlardan mustaqil, batamom hayol mahsuli, haqiqat bilan aloqasiz va so'ylaganlariga ishontirish iddaosi bo'lmagan qisqa bir hikoya", - deya ta'riflangan.

Dog'an Kayaning "Ansiklopedik Türk Halk Edebiyatı Terimleri Sözlüğü" ("Turk xalq adabiyoti terminlarining ensiklopedik lug'ati")da ertak shunday ta'riflanadi: "Voqealari xayoliy bir dunyoda sodir bo'lgan, qahramonlari inson, ba'zida esa hayvon va o'ylab topilgan turli mavjudotlar bo'lgan, tinglovchilarni mamnun qilgan, shu bilan bir qatorda tarbiyalagan, haqiqatni bir nechta ramz va obrazlar orqali xayoliy qoliplarda aks ettirilgan nasriy asar".

---

[1] Güncel Türkçe Sözlük. Türk Dil Kurumu. Erişim: 20 Nisan 2017.

[2] Devellioğlu Ferit. Osmanlıca. Türkçe Ansiklopedik Lügat. – Ankara, 1978. – S. 747.

[3] Sakaoğlu Saim. Masal Araştırmaları. – Ankara: Akçağ Yayınları, 1999. – S. 59.

[4] Tezel Naki. Türk Masalları. – İstanbul: MEB Yayınları, 2001. – S. Önsöz.

Turk xalq adabiyoti mahsullaridan biri bo‘lgan ertaklar, eng qadim zamonlardan beri og‘zaki tarzda avloddan avlodga yetib kelgan anonim bir tur hisoblanadi. Ertaklar ham boshqa xalq adabiyoti mahsullari qatorida keyingi yillarda yozib olina boshlangan va tadqiqotlar mavzusi sifatida maydonga kira boshlagan.

Jahonda XIX asr boshlaridan tizimli ravishda boshlangan ertak bilan bog‘liq tadqiqotlar, Turkiyada XX asrdan e’tiboran keng miqyosda tadqiq etilib, salmoqli natijalarni o‘rtaga qo‘ya boshlagan. Turk olimi Seydog‘luning ta’kidlashicha, turk xalq ertaklariga bo‘lgan dastlabki qiziqish, ularni to‘plash va ustida izlanish olib borish ishlari Yevropalik olimlar tomonidan amalga oshirilgan.[1]

Bu mavzuda olib borilgan tadqiqotlarning eng avvalida Fransiya qiroli Lui XVI ning tarjimoni va kotibi bo‘lgan M. Diogenning “Nouveaux Turc Et Arabes” (“Yangi turk va arablar”) nomli ikki jildli asari keladi. Bu asar 1781-yilda nashr etilgan. Uning ikkinchi jildida beshta ertak keltirilgan bo‘lib, uchtasi turk va ikkitasi arablarga tegishlidir.[2]

M.H.Yavuzning keltirishicha, V.Radlofning turkiy xalqlar adabiyoti bilan bog‘liq olib borgan ishlari mahsuli bo‘lgan o‘n jildlik “Proben der Volkslieder Türkischen Stamme” (1866-1907) nomli asarida ham ko‘pgina turk xalq ertaklari joy olgan.[3]

Turk ertaklari ustida olib borilgan ilk ilmiy ishlar mojar turkologi Ignacz Kunosga oiddir. U shu bilan bir qatorda turk xalq ertaklari bo‘yicha eng ko‘p tadqiqot olib brogan xorijlik olimlardan biridir. Demirayga ko‘ra u 1887-yilda ertaklarni tadqiq etgan, manbalari ustida izlanishlar olib borgan va ularni tasniflagan. Shu bilan birga xalqdan o‘zi to‘plagan ertaklarini nashr ettirgan.[4] Kunosdan tashqari J.A. Decourdemanche, R. Nisbet Bain, Enno Litmann, Sebastian Bek, Teodor Menzel, Fredrix Giese, Elsa Sofie Von Kamphoevener, Varren Valker, Otto Spies, Barbara Valker kabi chet ellik olimlar ham turk xalq ertaklari borasida izlanishlar olib borgan olimlar safidadir.

Sakao‘g‘li turk xalq ertaklarini to‘plab va nashrga tayyorlagan kishilar ro‘yxatining boshida shubhasiz K.D. xonim kelishini ta’kidlaydi. Uning xabar berishicha, bu ayolning kim ekanligi va ismi haqida hech bir ma’lumot yo‘q. K.D xonim 1912-yilda taqdim etgan “Turk masallari” deb nomlangan 317 sahifalik kitobidan 13 ta ertak o‘rin olgan. Bu kitob uzoq muddat tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qoladi, 1991-yilda esa hozirgi turk alifbosida qayta nashr etiladi. Bu kitob haqida ilk marotaba Ziyo Go‘kkalp o‘z tadqiqotlarida bahs yuritadi. Ziyo Go‘kkalp ham o‘z navbatida “Kichik majmua”, “Oltin nur” va “Qizil olma” nomli asarlari bilan xalq ertakchiligi rivojiga hissa qo‘shgan shaxslardan biridir.[5]

Hamit Zubeyr (Koshay) 1929-yilda Onadoludan to‘plagan va salmoqli qismini afsonalar tashkil etgan to‘qqiz matnni “*Dokuz Ötkünç*” nomi ostida nashr ettiradi. Ba’zi tadqiqotchilar bu matnlarni ertak sifatida qabul qilganlar. Matnlarni ertak bilan aloqasi yo‘q, deguvchi taraflar ozchilikni tashkil etadi. Ertak to‘plash ishlaridan yana biri Bahtaver xonimga oiddir. U 1930-yilda “Türk Masalları” kitobini nashrdan chiqaradi. Bahtaver xonim bu kitobida xalq og‘zidan yozib olgan to‘qqiz dona ertak matni o‘rin olgan. Biroq bu ertaklarni qayerdan va kimdan yozib olganligi haqidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tmagan.

Yusuf Ziya Demirjio‘g‘lu mamlakat bo‘ylab to‘plagan ertaklar va hikoyalari, Suat Salih Asral bir qismini talabalari bilan birgalikda to‘plagan ertak matnlari “Öz Türk Masalları”(“O‘z turk ertaklari”), Naki Tezelning “Halk Bilgisi Haberleri” jurnalida yoyinlagan ertaklari 1936-yilda “Keloğlan Masalları”(“Kalo‘g‘lon ertaklari”) “İstanbul Masalları”, Mehmet Tuğrul ning Malatya va uning atrofidan to‘plagan ertaklari “Malatyadan Derlenen Masallar” (“Malatyadan to‘plangan ertaklar”) nomi bilan nashr ettirilgan.

[1] Seyidoğlu Bilge, Erzurum Halk Masalları Üzerinde Araştırmalar Metinler ve Açıklamalar. – Ankara: Baylan Matbaası, 1975. – S. 6.

[2] Sakaoğlu Saim. Masal Araştırmaları. – Ankara: Akçağ Yayınları, 2012

[3] Yavuz Helimoğlu Muhsine. Masallar ve Eğitimsel İşlevleri Mesaj İndeks. – İstanbul: Cumhuriyet Kitapları, 2009. – S. 29.

[4] Demiray M. Güner. Türk Halk Masalları Üzerine. Masal Araştırmaları. 1988. – S. 42.

[5] Şimşek Esma. Yukarıçukurova Masallarında Motif ve Tip Araştırması. Dok.dis. 1990.

Turk xalq ertaklarini to‘planishi va nashr etilishida Pertev Naili Boratavning hizmati kattadir. U 1930-yillarda ertaklar ustida ish olib bora boshladi. U ertak katalogi bo‘yicha olib borgan ishlari bilan turk xalq ertaklarining xalqaro kataloglardan joy olishiga imkon bergan.[1]

O‘z navbatida P.N. Boratov turk xalq ertaklarini tasniflagan olimlardan biridir. U ertaklarni uslub, syujet va mavzu nuqtayi nazaridan kelib chiqib, quyidagi 5 guruhga ajratgan:

1) Olağanüstü masallar (sehrli ertaklar);
2) Hayvan masalları (hayvonlar haqidagi ertaklar);
3) Güldürücü masallar (kuldiruvchi ertaklar);
4) yalanlamalar ve zincirleme masallar (yolg‘onlamalar va zanjirli ertaklar);
5) fıkra ve latifeler (latifalar).

Ertak mavzusida ish olib borgan olimlardan yana biri Eflatun Jem Guneydir. U ertaklarning mavzularini xalqdan olib, faqat ularni san’atkorona shaklda o‘zi boshqatdan yozgan. “En Güzel Türk Masalları” (“Eng yaxshi turk ertaklari”), “Bir Varmış Bir Yokmuş” (“Bir bor ekan bir yo‘q ekan”), Evvel Zaman İçinde (“Qadim zamonlarda”), “Gökten Üç Elma Düştü” (“Osmondan uch olma tushdi”) nomlari ostida bir qancha ertak kitoblari nashr qilingan.

Eflatun Jem Güney tutgan yo‘lda ish olib borgan yana bir turk folklorchisi Tahir Alangudir. Alanguning bu mavzudagi ilk ishi Istanbul universitetida tayyorlagan bitiruv ishi hisoblanadi. Unda turk ertaklarining strukturasi va obrazlari ustida olib borgan. Uning “Billur Köşk” (“Billur ko‘shk”) va turk xalq ertaklarining asos qahramonlaridan biri bo‘lgan Kal og‘lon haqidagi “Keloğlan Masalları” deb nomlangan asarlari ham mavjud.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Pertev Naili Boratavning “Az Gittik Uz Gittik”(“Yo‘l yursak ham mo‘l yurdik”), “Zaman Zaman İçinde”(“Qadim zamonlarda”), Mehmet Tug‘rulning “Mahmutgazi Köyünde Türk Halk Edebiyatı”(“Mahmudg‘oziy qishlog‘ida turk xalq adabiyoti”), Saim Sakaog‘luning “Gümüşhane ve Bayburt Masalları” (“Gumushxona va Bayburt ertaklari”) (1973), Bilge Seyidog‘luning “Erzurum Halk Masalları Üzerine Araştırmalar”(“Erzurum xalq ertaklari ustida tadqiqotlar”) (1975), Umay Gunayning “Elazığ Masalları” (“Elazig‘ ertaklari”) (1975), Muhsine Helimog‘lu Yavuzning “Masalların İşlevi”(“Ertaklar qurilishi”), Esma Shimshekning “Yukarı Çukurova Masallarında Motif ve Tip Araştırması”(Yuqori Chuqurova ertaklarida obraz va tip tadqiqi), Evrim O‘lcher O‘zunelning “Masal Mekânında Kadın Olmak”(“Ertak makonida ayol bo‘lish”) nomli asarlari turk xalq ertaklari ustida olib borilgan eng yaxshi tadqiqotlar hisoblanadi.

Rezume. Ushbu maqolaning maqsadi turk xalq ertaklarining o‘rganilish tarixi va bu mavzu ustida ish olib borgan olimlarning tadqiqot ishlari haqida ma’lumot berishdan iborat. Ertaklarni to‘plagan va nashr ettirgan shaxslar faoliyatidan namunalar keltiriladi. Bu bilan bir qatorda turk olimlarining ertak janriga bergan ta’riflari, obrazlar va ertaklarning xalq og‘zaki ijodida tutgan o‘rni borasidagi qarashlari muhokamaga tortiladi.

Maqolada turk olimlaridan Sakaog‘lu Saimning “Masal Araştırmaları” (“Ertak tadqiqotlari”), Seyidog‘li Bilgening “Erzurum Halk Masalları Üzerinde Araştırmalar” (“Arzurum xalq maqollari ustida izlanishlar”), Shimshek Esmaning “Yukarıçukurova Masallarında Motif ve Tip Araştırması” (“Yuqorichuqurova ertaklarida obraz va tip tadqiqoti”), M.Tug‘rulning “Mahmut Gazi Köyünün Halk Edebiyatı” (“Mahmud G‘oziy qishlog‘ining xalq adabiyoti”), Ali Berat Alptekinning “Taşeli Platosu Masallarında Motif ve Tip Araştırması” (“Tasheli Platosi ertaklarida motiv va tip tadqiqoti”), Behiye Ko‘kselning “Gaziantep Masalları Üzerine Bir İnceleme” (“Gaziantep ertaklari ustida tadqiqot”) doktorlik dissertatsiyasidan va Pamuk Nurdan Gumushtepaning qator maqolalaridan foydalanilgan. Tarixiy-qiyosiy, biografik, tasniflash kabi metodlardan asosida izlanish olib borilgan. Bundan tashqari qator ilmiy jurnallar, mavzuga oid konferensiya to‘plamlari va Turk folklor bibliografiyalardan ham foydalanildi.

Resume. The purpose of this article is to provide information about the history of the study of Turkish folk tales and the research work of scientists who have worked on this topic. Examples of the activities of people

[1] Sakaoğlu, Saim, Masal Araştırmaları. – Ankara: Akçağ Yayınları, 1999. – S. 45.

who collected and published fairy tales are given. Along with this, Turkish scholars' definitions of the fairy tale genre, their views on the role of images and fairy tales in folk art will be discussed.

The article includes "Masal Araştırmaları" (Fairytale Research) by Sakaoglu Saim, Seyidogli Bilge's "Erzurum Halk Masalları Üzerinde Araştırmalar" ("Researches on Arzurum Folk Proverbs"), Shimshek Esma's "Yukarıçukurova Masalındar Motif ve Tip Araştırması" ("Research of Image and Type in Yuqorichukurova Tales"), "Mahmut Gazi Köyünn Halk Edebiyatı" ("Folk Literature of Mahmud Ghazi Village") by M. Tughrul, "Motif and Type Research in Tales of Taşeli Plateau" by Ali Berat Alptekin ("Motif and Type Research in Tasheli Plateau Fairy Tales"), Behiye Koksel's "A Study on Gaziantep Masalları Üzerine Bir İnceleme" ("A Study on Gaziantep Fairy Tales") and a number of articles by Pamuk Nur and Gumushtepa were used. Research was conducted on the basis of historical-comparative, biographical, and classification methods. In addition, a number of scientific journals, conference collections and Turkish folklore bibliographies were used.

Резюме. Цель данной статьи – предоставить информацию об истории изучения турецких народных сказок и исследовательской работе ученых, работавших над этой темой. Приведены примеры деятельности людей, собиравших и издававших сказки. Наряду с этим будут обсуждены определения жанра сказки турецкими учеными, их взгляды на роль образов и сказки в народном творчестве.

В статью вошли «Масал Араштырмалары» («Исследование сказок») Сакаоглу Саима, «Эрзурум Халк Масаллари Узеринде Араштырмалар» Сейидогли Бильге («Исследования народных пословиц Арзурума»), «Юкарычукурова Масалындар Мотив ве Тип Арастырмасы» Шимшека Эсмы. Исследование имиджа и Шрифт в сказках Юкоричукуровой»), «Махмут Гази Кёюнн Халк Эдебияты» («Народная литература деревни Махмуда Гази») М. Тугрула, «Исследование мотивов и типов в сказках плато Ташели» Али Берата Алптекина («Исследование мотивов и типов»). в «Сказках плато Ташели»), были использованы «Исследование Газиантепа Масаллари Üzerine Bir İnceleme» Бехие Кокселя («Исследование сказок Газиантепа») и ряд статей Памука Нура и Гумуштепы. Исследования проводились на основе историко-сравнительного, биографического и классификационного методов. Кроме того, был использован ряд научных журналов, сборников конференций и турецкой фольклорной библиографии.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 6
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ABDUSAID KO'CHIMOV NASRIY ASARLARIGA BIR NAZAR

Abdurahmonov Mahmarizo,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Samarqand viloyat bo'limi mutaxassisi

Odatda nasriy asarlarda qofiyaga amal qilinmasdan uning mazmundorligi, hissiy ta'sir, ifodaviyliliga e'tibor beriladi. Fan darg'alarining ta'kidlashlaricha, hikoyaning eng asosiy belgisi uning mazmun-mohiyati sanaladi. Hikoyada qahramonning hayotiga oid bitta voqea yoki hodisa haqida so'z yuritiladi va ana shu voqeaning mohiyati ochib beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi o'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Qo'qon davlat pedagogika instituti, Qarshi davlat universiteti, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida tayyorlangan "Hozirgi adabiy jarayon masalalari" jurnalida: "Yozuvchilik san'atini hayot va o'lim sirlarini ochadigan kalitga qiyoslash mumkin. Badiiy ijodda eng muhim ish voqeanavislik emas, balki haqiqatni kashf aylashga imkon beradigan ana shunday bir "ochqich"ni o'quvchiga etkazishdir. Bu esa did va saviyasi baland kitobxonni sal kam ijodkor darajasiga ko'taradi. Badiiy asar o'qishdan tug'ilgan taassurotlaridan u ham o'zining bir kitobini yaratadi. Ma'lumki, ayni bir davr va zamonda, ayni bir jamiyat va ijtimoiy muhitda yashagan, bir turli voqea-hodisalarni boshdan o'tkazib, turdosh savollarga javob axtargan yoki javobdan chekingan odamlar ahvol-ruhiyati o'xshash bo'ladi. Ulardagi axloqiy-ma'naviy fazilatlar ham, nuqson, ayb va gunohlar ham. Mana shu sababdan ham yozuvchi ko'p narsa yozishi, o'quvchining o'zi ko'rgan, bilgan voqea-hodisalarini qaytadan unga ifodalab berishi shartmas. Kitobxonning aql-farosati, fikrlash layoqatiga ishonish kerak. Nimani yoqlab, nimani inkor aylash, nimadan zavqlanib, nimalarga befarq qolishi – bu, o'quvchining shaxsiy, demakki, daxlsiz huquqi. Faqat fahmi past, kaltabin adibgina yozgan har bir asarim ko'pchilikni qiziqtira oladi deb o'ylaydi. Holbuki, bunday bo'lmaydi. So'z va tasvirning kuch-quvvati, avval-oxir ruhga ta'siri, ruhoniy ehtiyojga nechog'lik muvofiqligi bilan belgilanadi. Inson o'zining Xoliqi, ya'ni yaratuvchisi emas. SHuning uchun o'zi haqida u ko'p narsa bilmaydi. Bilganlari esa uni hamma payt ham xato va adashishlardan qutqazolmaydi… Ammo istak, intilish va qo'msash ma'nosida inson ruhi chegarasiz. U yashayotgan olam chegaralangan. So'ngsizlik ehtirosiga to'lg'in ruh, voqelikning qat'iy va qattiq to'siqlaridan iztirob chekadi. Hamisha so'ngsizlik sog'inchi bilan yashaydi. Buni teran tushungan ijodkor moddiyot va ilohiyot sirlarini yoritishda ham, inson tabiati va xarakteri tasvirida ham deyarli adashmaydi. Har qanday odamda ikki reallik mavjud. Biri – tashqi, ikkinchisi, ichki, ya'ni zohir va botin. Asosiy murakkablik va ziddiyat botindadir. Aks holda aql, nafs, ruh, ko'ngil xususida bunchalik keng, bu qadar ko'p bahs yuritilmasdi. Chunki botiniy hayot vujudning "qalin parda"si bilan to'silgan. Nafsning ahvoli qanday? Ruhning holi qanaqa, qalb nimaga ilhaq – aksariyat kishi ana shuni bilmaydi. Chunki bularni bilish juda qiyin. Ayniqsa, nafsni tanish va tizginlash muammolarning muammosi erur. Nafsni qoralab, nafs izmidan chetlashmaslikning bir sababi ham shu"[1] deya ta'kidlanadi.

Rus va Yevropa adabiyotida hikoya bilan bir qatorda *novella* atamasi ham ko'p qo'llaniladi.

Masalan, ...o'rta asrlar adabiy-estetik tafakkuri mevalariga ham garchi ular diniy, falsafiy, badiiy va ilmiy asarlar tarkibida uchrasa-da, inson kamolotaga doxil ma'naviy meros deb qaraldi. Shu jihatdan o'rta asrlarda Yevropada yaratilgan nazariy asarlar ham "jaholat va inkvizatsiya iskanjasida" emas, balki adabiy-estetik tafakkur taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan ma'naviy omil sifatida qaralib, ularning adabiy-nazariy tamoyillarini belgilashga urinildi. Tabiiyki, bu ilmiy yangilanish yo'lida jahon estetik tafakkuri tarixiga oid fundamental qarashlar, nazariy tamoyillar va adabiy konsepsiyalar asos qilib olindi. Sir emaski, bu jihatdan rus tiliga tarjima qilingan, o'rta asrlar va o'yg'onish davriga oid ilmiy-tadqiqot ishlari va ayrim manbalarga murojaatda ingliz va olmon hamda arab, fors va turk tillarida yaratilgan ilmiy manbalarga ham e'tibor qaratildi. Shu jihatdan rus tilidagi tadqiqot ishlari sharq xalqlari estetik tafakkuri

[1] Hozirgi adabiy jarayon masalalari. Aktualnыe problemы literaturnogo protsessa, Current issues of the literary process" to'plami materiallari, – Toshkent: Fan, 2022. – B. 3.

namunalarining ingliz, arab, fors va boshqa tillarda yozilgan talqinlari asosida to‘ldirildi, – deyiladi.

Novella so‘zi italyan tilida “yangilik” ma’nosini anglatib, bir qahramon bilan bog‘liq bitta voqeani bayon qiluvchi hikoya hajmiga teng keladigan asar. Novella ham bir qahramon bilan bog‘liq bitta voqeani bayon qilish bilan cheklanadi. Ana shu xususiyatlari borligi uchun ham novella bilan hikoyani bir-biriga mutanosib, deb bilish mumkin.

Hikoyalar hajman ixcham bo‘lganligi sababli vaqtli matbuotda ko‘proq e’lon qilinadi. Chunki, ularni gazeta yoki jurnallarning bir sonida uni o‘quvchilar hukmiga havola qilish mumkin.

Bu haqda taniqli adib Shukur Xolmirzaev “Sharq yulduzi” jurnalining, 1971-yil 1-sonida chop etilgan “Hikoya haqida” nomli maqolasida shunday yozadi: “… Chexovdan keyin J.London haqida gapirish bir oz ezmalik bo‘larmi deyman”[1].

Chunki, o‘zingizga ham ma’lumdir, Jek Londonning deyarli barcha hikoyalarida, umuman aytish mumkin, ijodida ikkita tip bor: botir va qo‘rqoq, to‘g‘rirog‘i, kuchli va kuchsiz. ...Ammo Jek Londonning Chexovdan farq etib, kezi kelganda, o‘zi tasvirlagan, kuchli, olijanob qahramonlarni sevishini baralla aytishi, hatto uni o‘ta bo‘rttirishi ham menga ma’qul tushdi. Demak, chin... hikoyada yozuvchi, kezi kelganda, qahramonlarga munosabatini bekitmasa ham bo‘laveradi... Tagorni o‘qiganimdan keyin, hikoyada chuqur bir ma’no bo‘lishi kerak, degan xulosaga keldim. Bu xulosa sizdan ham uzoq emas, bilasiz, tanqidchilar “Tagorning har bir hikoyasida bir roman mazmuni bor”, deb vaqtida yozishgan edi...[2], deyiladi maqolada.

Qissada esa bitta syujetga bog‘langan bir necha voqea yoki hodisa haqida hikoya qilinadi. Nasrchilikning yana bir ko‘rinishi – bu roman bo‘lib, romanda bayon etiladigan voqealar, qahramonlar juda ko‘p bo‘lishi mumkin. Bu voqealar va qahramonlarning taqdirlari bir-biri bilan bevosita yoki bilvosita bog‘langan bo‘ladi.

Lekin, amalda asar voqealari faqatgina hajmi jihatidan shunday ko‘rinadi. Ularning mazmuni, mohiyati esa bir-biridan farqi butunlay boshqacha.

Masalan, shunday hikoyalar uchraydiki, ular qissadan yirikroq hajmli, ya’ni sahifalari ayrim qissalarning sahifalaridan ko‘proq bo‘ladi. Hikoya, qissa va romanlardan iborat bo‘lgan nasr janrida o‘zbek xalqining taniqli yozuvchilar mukammal badiiy asarlar yozib, adabiyotimiz yuksalishiga munosib hissa qo‘shib kelmoqdalar.

Ushbu o‘rinda taniqli adib Abdusaid Ko‘chimovning nasriy asarlari aynan mazkur fikrlarning isboti bo‘la oladi. Abdusaid Ko‘chimov asarlarining e’tiborga molik jihatlari shundan iboratki, matn mukammalligi, xalqchilligi yaqqol ko‘rinib turadi. Xususan, uning “Kashfiyotchi bolalar” (1978 yil), “Mening O‘zbekistonim” (1979 yil). “Toshburgut” (1981 yil), “Mening yulduzim” (1984 yil), “Chanoq”(1985 yil), “Halqa” (1987 yil), “Ikki bahor” (1990 yil), “Umid daraxtlari” (1992 yil), “Qiyofa” (1996 yil), “YOsuman” (2000 yil), “Baland tog‘lar” (2002 yil), “Ko‘zlarimning qarog‘idasan” (2006 yil), “Muhabbat bog‘lari” (2008 yil), “El suv ichgan daryolar” (2009 yil), “Saylanma” (2011 yil), “Safar” (2010 yil) nomli publitsistik, she’riy va nasriy kitoblarida o‘zbek adabiyoti, she’riyati, bolalar ijodiga berilgan baho yaqqol ko‘zga tashlanadi. Tatar adibi M.Xarisovning “Qizil sayyoraga sayohat” nomli qissasi A.Ko‘chimov tomonidan o‘zbek kitobxonlariga taqdim etilgan. Bu bilan adib o‘zining tarjimonlik mahoratini ham ko‘rsatganligi e’tiroflidir. Adibning “Baland tog‘lar” qissasi va “Boychechak” hikoyasi asosida ko‘p qismli badiiy filmlar yaratilganki, uning ijodida o‘zi tug‘ilib o‘sgan Samarqand viloyatining Urgut tumani tabiati, odamlarining tantiligi va mardligi, qishloq aholisining qadimiy durdona shevasi, yo‘qolib borayotgan so‘zlarimizning hali-hamon qo‘llanilib kelinayotganligi aks etadi. Adib o‘zining so‘z boyligi bilan har bir asaridagi epizodni o‘quvchi qalbiga etkaza olishi bilan ajralib turadi. Uning “Halqa” va “Hayot hukmi” nomli kitoblari Xitoyda nashr etilganligi va yana o‘nlab hikoya, qissa va she’rlari ukrain, moldovan, turk, rus va boshqa tillarga tarjima qilinganligi ham Ko‘chimov nasriy asarlaridagi voqeliklar, xalqona tilimizni dunyo xalqlari o‘rganishiga, undan andaza olishiga turtki bo‘ladi.

Aytaylik, hikoya uncha katta bo‘lmagan adabiy-badiiy asar sanaladi va romandagidan kichikroq voqelikni o‘z ichiga oladi. Romanchilikda ijodkor hikoyaga nisbatan kattaroq epizodlarga qo‘l uradi va undan foydalanib, mahorat bilan qiziqarli voqea-hodisalarni asarga jamlaydi. Abdusaid Ko‘chimovning hikoyalarida mazkur jarayonlar kuzatiladi. Yozuvchining “Binafsha”sini o‘qigan o‘quvchi uning satrlariga e’tibor qaratmasdan iloji yo‘q. Chunki, bir-birini boshlab keladigan voqeliklar, qahramonlarning tuyg‘ulari, noziklik bilan ochib berilgan. Qayta-qayta o‘qish uchun kishini o‘ziga tortadi.

Nasriy adabiyotda asarlarning esse turkumi ham mavjud. Esse kichik hajmdagi muallifning o‘z taassurotlarini va fikr-mulohazalarini ifodalovchi asar bo‘lib, bu turkum asarlar bir mavzuda, bir masala

[1] Boltaboev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. 2-jild: O‘rta asrlar. O‘yg‘onish davri (IV-XVI). – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2016. – B. 45.

[2] “Sharq yulduzi”, jurnali, 1971-yil, 1-son. – B. 67. www.ziyo.uz internet sahifasi.

yuzasidan muallifning nuqtai nazari doirasida yoziladi. Esse – ko‘proq ilmiy-amaliy maqolaga, badiiy ocherkka o‘xshaydi. Abdusaid Ko‘chimovning esselarida gaplarning tuzilishi, so‘zlarning joy-joyida ishlatilishi va albatta, yuqorida aytganimizdek, qahramonlarning tili va xulq-atvorida so‘z o‘yinlari va xalqona iboralari kishi e’tiborini tortadi. Qahramonning ichki dunyosi ochib berilgan bu asarda qahramon o‘z o‘y-fikrini, kechinmalarini aniq va ravon ifodalashi bilan o‘quvchini qiziqtirib qo‘yadi.

Abdusaid Ko‘chimovning “Bu dunyoda shunday yashasang…” nomli essesi shunday boshlanadi: “Toltushgacha toshqotsam kerak deb o‘ylagan odam, sahar-mardonda uyg‘onib ketib, o‘z-o‘zimdan hayron qoldim: bosh artilgan shishaday tiniq, oyoq-qo‘l parday engil, xuddi kun bo‘yi chashma bo‘yi maysalariga ko‘milib yotgan boyvachchaday dumog‘ choq, kayfiyat a’lo – yarim kechagacha bo‘lgan gurungda chavandozlik qilgan odamga hecham o‘xshamasdim. Gurungmisan – gurung bo‘ldi-da, o‘ziyam! Qishloq oqsoqollari, ziyolilari, Jumanazar akaning sara qarindoshlari, hokim bobo etovidagi tuman rahbarlari, toshkentliklar… Alqissa, o‘n besh bolorli uy odamga liq to‘ldi. Avval, chaq-chaqlashib o‘tirdik. Keyin, turli sohalardan gap ketdi. Uncha-muncha chegaraga sig‘mas edi, suhbat mavzui: bir yog‘i – tumanli tarix, bir yog‘i – serhasham kelajak, yana bir yog‘i – adabiyot muammolariyu uy-ro‘zg‘or tashvishlari… Meditsina borasida esa biz kirmagan eshik, biz o‘tmagan tor ko‘cha qolmadi-yov…”.

Ta’kidlanganidek, adibning hikoyalari, qissalaridagi qahramonlarning so‘zi o‘ziga xoslikka qaratilgan. Uning gapirishi, fikrlashi xalqona tilda bo‘lib, tabiatidan kelib chiqqan holda, muayyan hudud odamlari shevasidan iborat bo‘lgan so‘zlardan foydalanib yozilgan.

Essening boshlanishida qahramonning toltushgacha toshqotsam kerak, degan so‘zlari qishloq odamlarining odatiy gapi bo‘lib, toltushgacha – ya’ni ertadan yarim tushlik vaqtigacha. “toshqotsam kerak…” qattiq, hech narsadan xabarsiz, biror narsani sezmasdan uxlashini xalqona tilda keltiradi. “…bosh artilgan shishaday tiniq, oyoq-qo‘l parday engil…”, hikoya qahramoni o‘zini bardam va ishtiyoqmand, shahdam sezishini ham e’tibordan chetda qoldirmasdan, uning ichki kechinmalari orqali sahifaga joylab qo‘yadi. “…Jumanazar akaning sara qarindoshlari, hokim bobo etovidagi tuman rahbarlari, toshkantliklar…”. Davradagi mehmonnavozlikda, ya’ni gurungda uy sohibining yaqin qarindoshlari – sara qarindoshlari, shuningdek, (tuman hokimining ortidan ergashib kelgan ma’nosida), bundan tashqari “…toshkanliklar, ya’ni poytaxtdan kelgan mehmonlar…”. Bu bilan adib hikoya qilmoqchi bo‘lganlarni bir jumlaga sig‘dirib, ular kimlar, nechog‘li odamlar, maqsadlari nima ekanligini batafsil bayon etgan.

Jumladan, essening davomida: “…Tuman hokimi – bug‘doyrang, bo‘yi baland, yelkalari ko‘tarilgan, qoruvli, ovozi dag‘alroq odam – “qishloqi”day ko‘ringani bilan ko‘pni ko‘rgan, ko‘p o‘qigan, serfikr kishi ekan. Qamashi va Qashqadaryoda bo‘layotgan o‘zgarishlar to‘g‘risida ko‘pdan-ko‘p ma’lumotlar eshitdik undan. Jumanazar Beknazarov boshchiligidagi Navro‘z xususida esa alohida mehr bilan gapirdi: – Bunday savobli tadbir, respublikani bilmayman-u, ammo Qashqadaryoda bitta, boshqa joyda yo‘q! To‘g‘ri, xudoga shukur, xayr-ehson sohiblari oz emas – bor. Ammo, sistema yo‘q, esiga tushganda qiladi ko‘plar. Jumanazar aka, mana, yigirma yildan oshdiyov, to‘g‘rimi? – deb yonidagilarga tasdiqlatib oldi hokim…[1] degan jumlada tuman rahbarining gapirish ohanggi, rangi-ro‘yi, qaddi-qomatiga ta’rif berib, ko‘z o‘ngingizda siyratini jonlantiradi. O‘quvchiga tabiiy holdek ko‘ringan satrlarning batartibligi va so‘z qurilishi jarayonida unga sayqal berishni unutmaydi va albatta, o‘qishliligiga e’tibor qaratadi. Qanday asar yozmasin, albatta, o‘sha asar qahramonlarining tili, kundalik odati va odamiyligi, tutgan tutumi asar g‘oyasi mazmunini ochib beradi.

Xalqona til ko‘rinishini qadr-qimmatini ilgari suradi. Badiiy adabiyotda ko‘p qo‘llaniladigan uslublardan yana biri *metafora* deyilib, ushbu atama bilan nomlanadigan jarayonlarda ta’rif orqali o‘xshatishlar ketma-ketligi shakllanadi. Masalan: “…Tuman hokimi – bug‘doyrang, bo‘yi baland, elkalari ko‘tarilgan, qoruvli, ovozi dag‘alroq odam – “qishloqi”day ko‘ringani bilan ko‘pni ko‘rgan, ko‘p o‘qigan, serfikr kishi ekan”, Jumlasiga qaytadigan bo‘lsak, shaxsning baland bo‘yli, elkalari ko‘tarilgan, qoruvli, ovozi dag‘alroq odam – “qishloqi”day, ya’ni o‘xshatishda metaforalarga murojaat qilinganligi ko‘rinib turibdi.

Badiiy adabiyotda ancha keng tarqalgan nasriy asar turkumi ayniqsa hikoya, esse, detektiv asarlar bo‘lib, ular nasriy badiiy ijod mahsullarining ichida odamlar tomonidan eng ko‘p o‘qiladigani ekanligini adib nasriy bezaklar bilan uyg‘unlashtiradi.

Shuningdek, adib asarlari orasida detektiv, dramatik ko‘rinishlar ham uchraydi. Gap orasida asosan haqiqatni, adolatpeshalikni tarannum etuvchi jarayonlarni bayon qilishga qaratilgan jumlalar ham uchrab turadiki, ziyrak o‘quvchi buni darhol ilg‘ab oladi. Masalan, essening davomida shunday so‘zlar bitilgan:

[1] Abdusaid Ko‘chimov. Bu dunyoda shunday yashasang... – B. 1.

"... – Ot haqidami? – savol berdi kimdir. – Ha, shunday desayam bo'ladi, – javob berdi Jumanazar aka. Va, atrofdagilarning qiziqishidan ruhlanibmi, gapni olisroqdan boshladi: – Ulug' ajdodlarimiz egar bilan yuganni, uzangini ixtiro qilgan. Uzangi kashfiyoti sharafiga bobolarimiz o'zining kam sonli askari bilan dushmanlarining ko'p sonli qo'shinini tor-mor etgan. Bu hatto ingliz tarixchilari tomonidan tan olingan. Ibtidoiy tuzumdan to hozirgi paytgacha bo'lgan voqealar yozilgan ingliz ensiklopediyasida bobolarimiz to'g'risida batafsil ma'lumot berilgan. Men bu ensiklopediyani o'qib, rostakamiga hayratda qoldim. Agar o'sha gaplarni o'zimizning olimlar yozganida, e-e, olimlarimiz o'zimizning bobolarni ancha ko'pirtiribdi-da, ko'p narsalarni qo'shibdi-da, degan xayolga borishim mumkin edi. Lekin ingliz tarixchilari bu narsani yozganidan keyin men unday deya olmayman. Faqat tan olgan, tan olishga majbur bo'lgan narsasinigina yozadi ular. – Xullas, qissa ana shunday tarixiy manbalarga suyanib yozilgan, – deb Jumanazar aka nomidan xulosa yasadi Qozoqboy aka. – Hozirdan kafolat berishim mumkin: bu asar o'qirmanlarni juda qiziqtiradi.

– Yo falaksan! – deb yubordi halidan beri Jumanazar akaga havas bilan tikilib o'tirgan Azim aka – mashhur shoir Azim Suyun. – Amerika hindulari haqidagi kinolarga qarab turib hayron bo'lardim: nega ot bor-u, uzangi yo'q, nega otga sakrab minadi, deb. Gap buyoqda ekan-da? Egar, no'xta, uzangi tarixi o'zimizning ajdodlar bilan bog'liq, deng? O'zim ham xuddi shunday bo'lsa kerak, deb o'ylab yurardim…"[1].

Yuqoridagi esseda keltirilgan jumlalarda dramatik ko'rinishlar ham mavjud bo'lib, unda ishtirok etuvchilarning dialoglariga asoslangan voqealar asar qahramonlarining gaplari orqali hikoya qilingan. Otlarga taqiladigan jugan, no'qta, uzangi qanday paydo bo'lganligini, uning tarixini qishloq odamlaridan eshitganligini va qishloq odamlari ham tarixiy manbalarga amal qilib yashashi, o'z tillarida, shevasida va dag'al talaffuzida bo'lsa ham haqiqatni, adolatni bir so'z bilan ifoda etib berishlari yoritilgan. Ularning lirik kayfiyatlari ham, nutqi va hatti-harakatlari buning yorqin dalilidir. Bunday asarlarni asarlar drama ko'rinishidagi asarlar toifasiga kiradigan guruhiga ham kiritish mumkin.

Nasriy adabiyotda voqealar rivojining eng avjiga chiqqan nuqtasini, ish-harakat yoki kurashning eng keskinlashgan joyini aks ettiradigan epizodini asar kulminatsiya nuqtasi deyilsa, A. Ko'chimov asarlarida buni xalqona tilda maromiga etkazilganligini ko'rish mumkin. Xuddi shuningdek, adib asarlarida lirika tamoyillar, lirik chekininsh usullari ham mahorat bilan qo'llanilgan.

Ijodkorlar yozganlarida ijodiy mahsullarining rang-barangligini, mazmundorligini oshirish maqsadida mubolag'aga – narsa yoki hodisaning o'ziga xos xususiyatini oshirishga, bo'rttirishga harakat qilishadi.

Masalan, "...Sizga havasim keladi! – dedi chin ko'ngildan. – Yurtdoshlarga hisob berib turishniyam sizdan o'rganish kerak ekan. To'g'rimi? – menga yuzlanib fikrini tasdiqlatgan bo'ldi u. – Akaning bu ishi, sizu bizga o'xshab qishloqdan shaharga borib qolganlar uchun katta saboq. Axir, shaharda nima ishlar qilib yurganingni qishloqdoshlaringning barisiyam bilavermaydi-ku! Bundan tashqari, yutuqlaringni eshitsa suyunishadi, qarindosh-urug'laring g'ururlanadi, ota-enang xotirjam bo'ladi. Men sizday odamlardan bahra olaman, ilhom keladi, qiyoslab bo'lmaydigan quvonch keladi. Ajoyib va qiyomat odamsiz! Azim Suyunning bu samimiy so'zlari xuddi mening tilimdan aytilayotgandek edi…"[2].

Yozuvchi kunning sovuqligini, qahraton qishning ayozini payqashi va uni yozilayotgan yangi asariga kiritish uchun tashqariga chiqdi. Biroz muzdek havodan nafas olib, atrofni kuzatdi, deya ishlatadigan bo'lsak, qahramonning fikrlarini o'sha muhitga moslashi, o'rganishi, qo'llashi asarning ham tabiiyligini oshiradi. Buni yozuvchi mahorat bilan yozilajak asarida ishlatadi va uning o'qishligini oshirish uchun tabiiylik bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladi. Abdusaid Ko'chimov har bir asarni yozishda bunday hollarni qo'llashi uning yozganlarida yaqqol ko'rinadi.

A.Ko'chimov jurnalist bo'lsin, yozuvchi bo'lsin albatta, ocherklar yozadi. Ocherk aslida voqea-hodisalarni, turmush faktlarini yoki odamlar faoliyatini aynan tasvirlash orqali boshqa janrlardan ajralib turib, unda badiiy syujet bitta bo'ladi, real voqelik, qahramonlar mavjud insonlar sifatida yoritiladi. Ocherkni yarim badiiy, yarim hujjatli asarga o'xshatish ham mumkin. Chunki, unda real hayotiy voqealar bir muncha badiiy uslubda tasvirlanadi. A. Ko'chimov ijodida bunday holatlar ko'plab topiladi.

"...Adib nasriy asarlari men uchun yanada qadrli va ardoqlidir. Birgina "Boychechak" hikoyasida o'ndan ortiq turfa taqdirlar va xarakterlarga duch kelamiz. Tog' yonbag'ridagi ovloq bir qishloqda kechgan, yozuvchining sehrli qalami bilan jonlangan bu voqeani har gal maza qilib o'qiyman. Manzaraga

[1] Abdusaid Ko'chimov. Bu dunyoda shunday yashasang... – B.1.

[2] Abdusaid Ko'chimov. Bu dunyoda shunday yashasang... – B. 4.

qarang: “Tom ortidagi teraklar ustida jilmayib turgan to‘lin oy hovlini sutdek yoritib yuborgan, har joy-har joyda suv ko‘llab qolgan olachalpoq supa pastida ustiga katta savat to‘nkarib qo‘yilgan so‘ri – hamma-hammasi kunduzdagidek aniq ko‘rinib turar edi. “Boychechak” aytib keldik eshigingizga, Xudoyim o‘g‘il bersin Beshigingizga... “Uning qaltiroq ovozini eshitgan Shodmon aka birdan bo‘shashib ketdi. Enkayib bolakayning yuzlarini ketmondek kafti bilan siladi:

– Yana bitta ayt, jon o‘g‘lim...”[1].

Masalan, yozuvchi Isajon Sulton ustozi – taniqli adib Abdusaid Ko‘chimovning hayoti va ijodiga bag‘ishlab o‘nlab maqolalar yozadi. Ulardan biri “Barakali izlanish: beorom ezgu ishlarga oshno adib” deb nomlangan. Yo‘qoridagi jumlalarda yozuvchi adibning mahorat bilan yozganligini bayon etadi.

Kishi ko‘z o‘ngida yaqqol gavdalanib, ongga muhrlanib qoladigan bunday tasvirlar Abdusaid Ko‘chimov asarlarida juda ko‘p uchraydi”, deb yozadi Isajon Sulton o‘zining mazkur maqolasida. Yozuvchi bu bilan yo‘q bo‘lib ketayotgan qadriyatlarimizni Abdusaid Ko‘chimov o‘z asarlari orqali keng yoritib kelayotganligini oqqa tushiradi, o‘quvchiga etkazishga harakat qiladi[2].

Xullas, o‘zbek adabiyotida o‘zining salmoqli o‘rni va uslubiga ega bo‘lgan taniqli yozuvchi, tarjimon, shoir, publitsist Abdusaid Ko‘chimovning qaysi bir asarini o‘qimang, asarga singdirilgan milliylik, qadriyat, xalq og‘zaki ijodi durdonalariga duch kelasiz. O‘qilajak asarning qimmati ham shunda, aslida.

O‘zbek milliy adabiyotida turli janrlar mavjud bo‘lib, ulardan nasr yo‘nalishida ham, nazm yo‘nalishida ham ijodiy atamalar xilma-xilligi ko‘zga tashlanadi. Biz ular orasidan tanlaganimiz nasr yo‘nalishi edi. Bunda vazn, qofiya kabi o‘lchamlarga amal qilinmasdan, voqealarni erkin uslubda, ammo adabiy til qoidalariga amal qilgan holda aks ettiruvchi yozma asarlar sanaladi.

Hikoyadagi o‘xshatishlardan yana biri yuqoridagi “ ...Uning qaltiroq ovozini eshitgan Shodmon aka birdan bo‘shashib ketdi. Enkayib bolakayning yuzlarini ketmondek kafti bilan siladi:

– Yana bitta ayt, jon o‘g‘lim...– Jumladan, “...bolakayning yuzlarini ketmondek kafti bilan siladi: ..., ya’ni baquvvat, yirik qo‘llarini “ketmondek” so‘z orqali o‘xshatish qilib, erlik aholiga ta’rif beribgina qolmasdan, o‘quvchining ham hikoyaga bo‘lgan qiziqishini orttirmoqda. Bu bilan adib o‘z mahoratini yana bir bor ko‘rsatmoqdaki, uning asarlaridagi pishiqlik bunda aks etadi. Gapning davomida Shodmon akaning “... – Yana bitta ayt, jon o‘g‘lim... “[3].

O‘sha maqolada Shodmon akaning deganlari esa uning mehribon inson ekanligini, qadriyatlarimizni ulug‘lashini, udumlarimizga ishonishini, sodda va samimiy kishilardanligini hikoyaga ustalik bilan singdirgan.

Bulardan tashqari Abdusaid Ko‘chimovning “Binafsha” hi koyasida ham quyidagi jumlalar bor. Hikoya shunday satrlar bilan boshlanadi:

“To‘rtinchi qavatga chiqib kelib, supachada bir lahza ikkilanib turib qoldi. Shu ko‘yi avval o‘ng, keyin to‘g‘ridagi yopiq eshiklarga hadiksirab birrov ko‘z yugurtirgan asno, jigarrang charm qoplangan chapdagi eshik tugmachasiga qo‘l uzatdi. Sezilar-sezilmas ochiq turardi bu eshik avvallari. U ikkinchi qavatdan oyoq uchida ohista-ohista ko‘tarilib kelardiyu, “lip” etib kirib ketardi qiya ochiq shu eshikdan. Qo‘shnilar sezib-netib qolmadimikan, degan xatardan qaltirab turardi to ichkariga kirib olgunicha. Deyarli esidan chiqib ketgan o‘sha hayajon yana o‘rab oldi uning vujudini. “Hozir manovi eshik zarb bilan ochilib, sochlari qo‘qigan kampir chiqsa-yu, (u qo‘shni ayolni sira ko‘rmagan, ammo Binafsha har safar to‘g‘ridagi eshikdan ehtiyot bo‘ling, unda shallaqi o‘ris kampir yashaydi, sezib qolsa, butun “dom”ga ovoza qiladi, deyavergani uchun yalmog‘iz kampirdan qo‘rqqan boladek cho‘chib qolgandi) kimsan, nima qilib yuribsan bizning bo‘sag‘ada, deya zug‘um qilib qolsa, nima deyman”, degan o‘ydan yuragi potirlab ketdi”[4].

O‘quvchi e’tiborini tortadigan jihati shundaki, A. Ko‘chimov ijodida so‘zni jilolantirib ishlatilishi, voqelik ketma-ketligining ta’minlanish, ortiqcha, tushunarsiz jumlalar ishlatilmaganligi ko‘rinib turibdi. Hikoyalarida avval maqsad, jarayon, kishilardagi his-hayajon va iztirobning toti, so‘ngra diolog va muallifning fikrlari to‘lasincha aks etadi. Bu bilan hikoyaning qimmati, ahamiyati yanada oshadi.

Xullas, milliy adabiyotimiz kun sayin yanada rivojlanib, takomillashib borayotgan bir paytda ijodkorlarimiz nazm, nasr yo‘nalishida o‘zlarining o‘tkir syudjetli maqola, she’r va hikoyalari, esse, badiha, qissa, roman singari janrlarda ijod qilishi, bu adabiyotimiz yanada ravnaq topayotganligidan dalolatdir. Bu esa A. Ko‘chimov singari ijodkorlar asarlari yuzasidan keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borishni taqoza etadi.

[1] Abdusaid Ko‘chimov. Bu dunyoda shunday yashasang... – B. 5. www.ziyo.uz internet sahifasi.

[2] Isajon Sulton. Barakali izlanish: beorom ezgu ishlarga oshno adib / “Xalq so‘zi” gazetasi, 2019-yil. 14-may. – B. 3.

[3] Abdusaid Ko‘chimov. Bu dunyoda shunday yashasang... – B. 6. www.ziyo.uz internet sahifasi.

[4] Abdusaid Ko‘chimov. Binafsha. Qissa va hikoyalar to‘plami. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi NMIU, 2017. – B. 17.

Rezyume. Ushbu maqolada dunyo filologik ilmida insoniyat badiiy tafakkuridagi evrilishlarni qadimdan bugungi globallashuv davrigacha mavjud bo‘lgan turli badiiy obrazlarni muayyan nasriy asarlar misolida aniqlash, tadqiq etish, tizimlashtirish, tavsiflash, fillogiya ilmining asosiy tadqiqot ob’ektlaridan biri ekanligi xususida fikr yuritilgan. Shu nuqtai nazardan, asar qahramonlarining madaniyati, urf-odatisingari jarayonlarni bir-biriga yaqin bo‘lgan shevalarning adabiy til bilan mushtarakligi hamda o‘zaro ta’siri masalalari Abdusaid Ko‘chimov nasriy asarlari misolida tahlil qilishga harakat qilingan.

Resume. It is considered that one of the main research objects of the science of philology is to identify, investigate, systematize, and describe the evolutions in human artistic thinking in the world philological science, from ancient times to the present globalization period, in the example of certain prose works. From this point of view, an attempt has been made to analyze the culture of the asar heroes, the commonality of the shevas with the literary language and the mutual influence of the customs-like processes in the example of Abdusaid Kochimov’s Nasri asar.

Резюме. В мировой филологической науке считается, что одним из основных объектов исследования науки филологии является выявление, исследование, систематизация и описание эволюции художественного мышления человечества с древнейших времен до современную эпоху глобализации на примере конкретных прозаических произведений. С этой точки зрения предпринята попытка проанализировать культуру героев произведения, процессы традиции, общность близких друг другу диалектов и литературного языка, вопросы взаимодействия на примере прозаических произведений Абдусаида Кучимова.